





Yoqubjonova H.Y., Boyto'rayev O.U.

# FARG'ONA VODIYSINING EKOTURISTIK SALOHIYATI VA UNDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Yoqubjonova H.Y., Boyto'rayev O.U.

# FARG'ONA VODIYSINING EKOTURISTIK SALOHIYATI VA UNDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

*Monografiya*

"Fan ziyosi" nashriyoti
Toshkent
2023

**UO'K: 200.60.55**
**KBK: 28.081(5Ўзб)**

Yoqubjonova H.Y., Boyto'rayev O.U. Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyati va undan foydalanish holati tahlili. Monografiya. "Fan ziyosi" nashriyoti. – Toshkent, 2023. – 172 b.

Mazkur monografiyada Farg'ona vodiysi ekoturizm salohiyatining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan, shuningdek, hududning ekoturistik imkoniyatlari, ekoturizmda mahalliy aholi imkoniyatlardan samarali foydalanish mexanizmlari, hududda ekoturizmni rivojlantirish, hududdagi ekoturizmni rivojlantirish ob'yektlaridan foydalanishdagi muammolarni tahlil qilish kabi masalalar ochib berilgan. Alohida tadqiqot ishi sifatida ko'rilgan ushbu monografiyadan oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ekoturizmdan darsliklar, o'quv qo'llanmalar tayyorlashda shuningdek, mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar foydalanishlari mumkin.

O'rganish natijalariga ko'ra tayyorlangan mazkur monografiyada ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar hududlarda ekoturizmni kompleks rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Масъул муҳаррир:**
**Xamidov Obid Xafizovich**
BuxDU professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Taqrizchilar: Dilorom Tojiboyeva**
ToshMI faxriy professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Navro'z-Zoda Baxtiyor Negmatovich**
BuxDU professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Monografiya Namangan davlat universiteti Ilmiy-texnika kengashining 2022-yil 10-fevraldagi 10-sonli va Namangan muhandislik-qurilish instituti Ilmiy-texnika kengashining 2022-yil 5-apreldagi 10-sonli yig'ilishi qarorlari bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-8767-4-3

25790

© Yoqubjonova H.Y., Boyto'rayev O.U.
© "Fan ziyosi" nashriyoti, 2023

# KIRISH

Jahonda ekologik muammolarning avj olishi va havoning ifloslanish darajasining Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan belgilangan me'yoriy xavfsizlik darajasidan 2,5 barobar ortib ketayotganligi atrof-muhitga mas'uliyatli bo'lgan ekoturizm(dunyo turizm xizmatlari bozoridagi ulushi-yiliga 181,1milliard AQSH dollarini,-yillik o'sish surhati 14,3foiz)[1]ni rivojlantirishni hayotiy zaruriyatga aylantirmoqda. Atmosferaning ifloslanishi va zaharli kimyoviy vositalardan foydalanish oqibatida dunyo miqyosida sodir bo'layotgan har 8 ta o'limning bittasi (onkologik kasalliklar, nafas olish tizimi kasalliklari, chaqaloqlarda nuqsonli tug'ilishlar) aynan ekologiyaga dahldor xastaliklar tufayli ro'y bermoqda.[2] Atrof-muhit ifloslanishining oldini olishdagi eng samarali iqtisodiy strategiya - bu aynan salohiyatli hududlarda ekoturizmni rivojlantirishdir.

Jahonda ...."Yashil" va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur bo'lib qolmoqda[3]. Bu borada salohiyatli hududlarda ekoturizmning yangi yo'nalishlari imkoniyatlarini tadqiq etish, rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida ehtibor qaratilmoqda. Xususan, ekologik maqsadlarga yo'naltirilgan ekomehmonxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish, uning bozor talablarini xalqaro darajada shakllantirish, tabiiy ekohududlarni muhofaza etish maqsadida yashillik maqsadlari sari sertifikatlash, ekoturizm faoliyatida foydalanilmayotgan tabiiy o'rmon resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

---

[1] https://www.statista.com/statistics/1221034/ecotourism-market-size-global/#statisticContainer
[2] World Health Statistics 2018.
https://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/272596/9789241565585-eng.pdf
[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030" ikkinchi xalqaro sammiti ishida so'zlagan nutqi, 2021-yil, 30-31 may.,https://oz.sputniknews-uz.com/20210530/mirziyoev-seuldagi-sammitda-ishtirok-etdi-asosiy-fikrlar-18989066.html

Mamlakatimizda ham koronovirus pandemiyasi oxirgi ikki-yillikda butun dunyodagi keskin vaziyat kabi turizm sohasini barqaror rivojiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmay qolmadi, lekin keyingi-yillarda turizm sohasini har tomonlama yangi pog'onaga ko'tarish yuzasidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar o'z samarasini berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish"[4] vazifalari belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirish asnosida ekologik xavfsizlikni tahminlovchi kompleks choralarni qabul qilish yo'li bilan atrof-muhitga ko'rsatilayotgan antropogen tahsirni imkon qadar kamaytirish maqsadida turizmning yangi yo'nalishlaridan biri ekoturizm imkoniyatlarini tadqiq etish, ekohududlarning salohiyat darajasini chuqur o'rganish orqali xalqaro talab mehyorlarga olib chiqish, aholi salomatligini tiklashda o'rmon hududlaridan ekoturizm yo'nalishida maqsadli foydalanish, Farg'ona vodiysining tabiiy resurs imkoniyatlariga tayangan xolda ekoturizmni rivojlantirishning mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida», 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida», 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son «2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi» to'g'risida, 2019-yil 13-avgustdagi PF-5781-son «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni \\www.lex.uz

tadbirlari to'g'risida», 2020-yil 28 maydagi PF-6002-son «Koronavirus pandemiyasini salbiy tahsirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, 2018-yil 6 fevraldagi PQ-3509-son «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6 oktyabrdagi 602-son «Koronavirus pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatda turizm sohasi subhektlarini qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida»gi qarorida va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meg'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ekoturizmning nazariy-iqtisodiy va ilmiy masalalari quyidagi xorijlik olimlar tomonidan tadqiq etilgan[5], jumladan, «ekoturizm» tushunchasining ilk asoschisi

[5] Ceballos-Lascurain, H. (1987). The future of 'ecotourism'. Mexico Journal 13-14. Buckley, R. (1994) A framework for ecotourism. Annals of Tourism Research 21(3): 661-665. Blamey, R. and Braithwaite, V. (1997). A social values segmentation of the potential ecotourism market. Journal of Sustainable Tourism 5(1): 29-45. Honey, M. (1999). Ecotourism and Sustainable Development: Who Owns Paradise? Island Press, Washington, DC. Fennell, D.A. (2001). A content analysis of ecotourism definitions. Current Issues in Tourism 4(5): 403-421.Powell, R. B., and Ham, S. H. (2008). "Can ecotourism interpretation really lead to pro-conservation knowledge, attitudes and behavior Evidence from the Galapagos Islands", Journal of Sustainable Tourism, 16( 4), 467-489. Lindberg, K., Enriquez, J., & Sproule, K. (1997). Ecotourism questioned: Case studies from Belize. Annals of Tourism Research, 23(3). 543-562. doi: 10.1016/0160-7383(95)00074-7.Лю. Цзяминь. Процесс исследования и планирование развития экотуризма в Китае Текст: Лю Цзяминь // Экология, 1998. -Ч 9. № 3. -327-331с. Фу.Боцзе.Концепция зонирования экотуризма в Китае Текст // - Пекин: издательство туризма КНР,2001.-1-6 с. Mohd Rusli, Yacob Ahmad Shuib Research Gate, Local economic benefits of ecotourism development in Malaysia: The case of Redang Island Marine Park, Malaysiya, 2007. p-3-7. Keyser,H. (2009), Developing tourism in South Africa: towards competitive destinations, Oxford University Press, Cape Town. Wight,P.A. (2003), "Supporting the principles of sustainable development in tourism and ecotourism: government's potential role", in Lück, M., and Kirstges, T., (eds.) Global ecotourism policies and case studies:perspectives and constraints, Channel View, Clevedon. Leonie de Wit, Peet van der Merwe Book of proceedings vol.ii – International conference on tourism & management studies – algarve 2011, An ecotourism model for south african national parks, 1138-1142 pp. Balkaran, R., & Maharaj, S. (2014).A comparative analysis of the South African and global tourism competitiveness models with the aim of enhancing a sustainable model for south Africa.Journal of Economic and Behavioural Studies, 6(4), 273-278. Getz, D. (1987).Tourism planning and research: Traditions, models and futures. Australian Travel research workshop, Bunbury, Western Australia, Vol. 5, No. 6, Mowforth, M., Munt, I. (2008). Tourism and sustainability: Development, globalization and new tourism in the third world.Routledge. Weaver, D. (1998).Ecotourism in the less developed world.Cab International, 64-78. Hall,C.M.(2008). Tourism planning: Policies, processes and relationships.Pearson Education. Orams, M. B. (1995).Towards a more desirable form of ecotourism.Tourism Management,16(1), 3-8. Scheyvens, R. (1999). Ecotourism and the empowerment of local communities.Tourism Management, 20(2), 245-249. Sharpley, R. (2006).Ecotourism: A consumption perspective.Journal of Ecotourism, 5(1&2), 7-22. Stone, M., & Wall, G. (2003).Ecotourism and community development: Case studies from Hainan, China.Environmental Management, 33(1), 12-24. Björk, P. (2007). Definition paradoxes: From concept to definition. Critical issues in ecotourism: Understanding a complex

Ceballos-Lascurain, hisoblanib, unga doir tadqiqotlarni Buckley, R., Blamey, R., Honey, M., Fennell, D.A., Powell, R. B., Ham, S. H., Lindberg, K., L.Czyamin, F..Botse, Mohd, R., Yacob, A., Keyser,H., Wight,'.A., Leonie de Wit., 'eet van der Merwe., Balkaran, R., Maharaj, S., Getz, D., Mowforth, M., Munt, I., Weaver, D., Hall,C.M., Orams, M. B., Scheyvens, R., Sharpley, R., Stone, M., Wall, G, Bjork, '., Geoffrey, W., L.Terzieva., Honey, M. va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Ekoturizmni rivojlantirishga doir tadqiqotlarni ilmiy va amaliy jihatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqot ishlarini MDH davlatlaridagi qator olimlar[6] xususan, A.V.Drozdov, T.A.Safranov, A.I.Tarasenko, A.S.Slepokurov, V.M.Pao'enko, S.R.Erdavletov, M.B.Birjakov, I.Nikiforov va V.V.Xrabovchenko, A.O.Pivovarov, V.P.Shevchuk, Ye.I.Golubeva, N.I.Tulg'skaya, Ye.Yu.Dedovskix, N.V.Moraleva O.Yu.Dmitruk, V.P.Kekushev, V.P.Sergeev, V.B.Stepanitskiylar ilmiy ishlarida ko'rib chiqdilar.

O'zbekistonda turizmning marketing, menejment va iqtisodiy masalalari bo'yicha K.X.Abdurahmonov, M.R.Boltabaev, M.Q.Pardaev, I.S.Tuxliev, G'.H.Qudratov, N.Tuxliev, T.Abdullaeva, A.S.Soliev, B.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, D.X.Aslanova, M.R.Usmonov,

---

tourism phenomenon (pp. 23–46). Oxford: Elsevier. Geoffrey Wall Professor of Geography and Recreation and Leisure Studies University of Waterloo, Ecotourism: Change, Impacts, and Opportunities, pp 109-117. L.Terzieva. Ecotourism best practice models general overview and characteristics The modul has been developed. NHTV Breda University of Applide Sciences, the Netherlands pp-18. Honey, M. (2008), Ecotourism and sustainable development: who owns paradise?, 2nd ed., Island Press, Washington.

[6]Дроздов А.В. Основы экологического туризма.-М.: Гардарики, 2005. 271 с. Сафранов, Т.А. Экологизация санаторно-курортной и рекреационно-туристической деятельности в горных регионах Украины.-Одесса: ОГЭУ, 2005.-223 с. А.И.Тарасенка Бизнес в агро-и экотуризме-Минск, 2014.-380 с. Слепокуров А.С. Разнообразия ландшафтов Крыма как основа развития курортно-туристической деятельности// Биологическое и ланфшафтное разнообразие Крыма; проблемы и перспективы. – Симферополь: СОНАТ, 1999.-263 с. Пащенко В.М. К развитию теории ландшафтоведения // География и природные ресурсы. – Новосибирск, 1990.№2.-с. 143-153. Ердавлетов С.Р. Ещё раз к вопросу науки о туризме// Международная научно-практическая конференция.Вестник,1/2(42) -Казахстан, 2016. -22 с. М.Б.Биржаков., В.И.Никифоров Индустрия туризма: Перевозки (туристов) Издательский дом Герда, 2007 – 528 с. В.В. Храбовченко, Экологический туризм, -М; 1983-221 с. Пивоваров А.О., Шевчук В.П., Ливченко Е.Н. Вклад экотуризма в охрану природы // Успехи современного естествознания. – 2014. – № 12- –С.78-82; Голубева Е.И., Тульская Н.И, Экологический туризм на ООПТ в Российской Арктике:перспективы и проблемы, 2016 №23, стр- 68. Е.Ю.Дедовских, Н.В.Моралева., Экологический туризм на пути в Россию. Принципы, рекомендации, российский и зарубежный опыт/ Сост. .- Тула: Гриф и К, 2002.- 284 с. О.Ю.Дмитрук, Экологический туризм: современные концепции менеджмента и маркетинга, Учебное пособие. -2-е изделия., М.: «Альтерпресс», 2004.-192 с. В.П.Кекушев, В.П.Сергеев., В.Б.Степаницкий., Основы менеджмента экологического туризма, М.; Издательство МНЭПУ, 2001 - 60 с.

M.M.Muxamedov, D.K.Usmanova, M.Xoshimov, A.Norchaev, B.Turaev, B.Berdiyorov, B.SH.Safarov, M.T.Alimova[7] va boshqalar tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqot jarayonida nomlari ko'rsatilgan va boshqa bir qator jahon hamda o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlari ehtiborga olindi. Tadqiqotimizda mazkur yo'nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyatiga ehtibor qaratilgan, hududda ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarining takomillashtirishning o'ziga xos jihatlari yoritilib, hududning ekoturistik salohiyatini ekoturizm imkoniyatlari spektri (EIS) usulida baholash mezonlari, tabiiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning mexanizmlari va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

---

[7] Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма. Учебное пособие. - Т.: Филиал ФГБОУ ВПО "РЭУ им. Г.В. Плеханова" в г. Ташкенте, 2013., Boltabayev M.P, Tuxliyev И.С. Turizm: nazariya va amaliyot. - Т.: «Fan va texnologiya», 2018. - 400 b.; Пардаев M.Q., Атабаев Р. Туризм асослари. Самарқанд, СамИСИ. 2006.
- 74 б.; Пардаев M.Q., Атабаев Р., Пардаев Б.Р. Туризмни ривожлантириш имкониятлари. - Т.: «Фан ва технология», 2007. - 32 б.; Тухлиев И.С. Туризм асослари. Дарслик. -Т.: Фан ва технологиялар, 2014. - 332 б.; Тухлиев И.С., Қудратов Ғ.Ҳ., Пардаев М.Қ. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: «Иqтисод ва молия», 2010. - 238 б.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития. -Т.: Гос. Науч. Изд-во "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. - 416 с.; Солиев А., Раhматов Ф. Туризм соhасида бозор муносабатларининг шаклланиши ва унинг тармоq самарадорлиги ко'рсаткичларига таъсири // Сервис ва туризм: Бошqариш ва ривожлантириш муаммолари. Халqаро илмий-амалий анжуман материаллари. -Самарқанд, 2007 й., 4-7 сентябрь; B Navruzzoda and N.Ibragimov. The measures for improving virtual activity of incoming urban tourism In Uzbekistan.In: World Journal of tourism small business management. Volume 1. Issue 3. 2007. World Research Organization. Isis Press. Cape Town. South Africa. 43-49 pp. О.Х.Хамидов.,Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантиришни бошқаришни такомиллаштириш: муаммо ва ечимлар/монография, Т: Иқтисодиёт - 2016. Д.Х.Асланова., Модели формирования туристического кластера зарубежом// "Сервис", 2013, №1.-С/41; Усмонова Д.К. Особенности формирования туристского продукта и перспективные направления его развития. иqтисод фан. ном. дис. Автореферати.-Самарqанд, СамИСИ, 2009. - 25 б.; Хошимов М. Ўзбекистон экологик туризми. Монография. Самарқанд, "Зарафшон" нашриёти ДК, 2009. - 220 б.; Норчаев А.Н. «Халqаро туризмни ривожлантиришнинг иqтисодий о'сишга таъсири» номзодлик диссертацияси. ТДИУ, 2004. - 120 б.; То'раев Б.Х. Теоретико-методологические основы развития туризма. -Т.: «Фан», 2008. - 166 с.; Б.Бердиёров. Экотуризм ва унинг Ўзбекистон туризм хизмат бозоридаги ўрни. Номзодлик диссертацияси.-С.;СамИСИ. 2010 й. 154.б. Сафаров Б.Ш. Совершенствование методолого-методических основ инновационного развития национального рынка туристических услуг. Докторская диссертация. СамИСИ, 2015. - 254 с.; Алимова М.Т.Нудудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида); иқтисодиёт фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. С: СамИСИ, 2017.-24.

Tadqiqotning vazifalari:

«Ekoturizm» tushunchasining vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va nazariy asoslarini yoritib berish;

«ilmiy ekoturizm», «kognitiv ekoturizm», «rekratsion ekoturizm», «madaniy landshaft», «tabiiy landshaft» tushunchalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ochib berish;

ekoturizmni rivojlantirishda xorij tendentsiyalari, tajribasi tahlili, uni O'zbekistonda qo'llashning o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

Farg'ona vodiysi ekoturistik salohiyatining joriy holatini tahlil qilish;

hududning ekoturistik salohiyatini baholash usulini ishlab chiqish;

ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy aholi salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

Farg'ona vodiysi hududida ekoturizmni rivojlantirish obhektlaridan foydalanishdagi muammolarni tahlil qilish;

O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Farg'ona vodiysining ekoturistik obhektlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tasniflash, ekonometrik tahlil, reyting baholash, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik, grafikli usul, umumlashtirish, eksperiment, empirik, ijtimoiy so'rovlar usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha jahondagi yetakchi davlatlarni tajribasi va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tadqiq etilgan;

hududlarda ekoturizmning rivojlanishiga tahsir etuvchi omillar aniqlangan;

Farg'ona vodiysi hududlarida ekologik yo'nalishi doirasida «Turistik klasterlar» ni rivojlantirishga qaratilgan taklif ishlab chiqilgan.

Farg'ona vodiysi hududlarida ekoturizm yo'nalishlaridan *«Orchard landscapes»* nomli «Mevalar sayli», «Otda tabiatni sayohat qilish», « "Eko-agroturizm», «Shifobaxsh buloqlarni o'rganish» deb nomlanuvchi ekoturistik marshrutlar ishlab chiqilgan.

ekoturistlarga mo'ljallangan ingliz tilidagi maxsus qo'llanma ishlab chiqilgan (Namangan viloyatining noyob tabiiy hududlari to'g'risida).

alohida hududlar kesimida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan eksperimental ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan;

Farg'ona vodiysiga tegishli o'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish maqsadida investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining SWOT tahlili qilingan;

hududlarda ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari taklif etilgan.

# I BOB. EKOTURIZMNING RIVOJLANISHI VA NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

## 1.1-§. Ekoturizm tushunchasi to'g'risidagi turli nazariy qarashlar evolyutsiyasi

Ekoturizmni rivojlantirish va uning shakllanish bosqichlarining, nazariy asoslarini o'rganish, milliy iqtisodiyotda turizmning alohida bir istiqbolli yo'nalishi bo'lgan turini barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, bugungi kundagi respublikada ro'y berayotgan global ekologik muammolardan biri atmosferaning buzilishi - yil sayin o'zining atrof-muhitga salbiy ta'sirini sezdirmoqda. Ushbu salbiy hodisalarni oldini olish maqsadida respublikada tabiiy resurslardan oqilona foydalangan xolda ushbu xolatlarga nisbatan chora-tadbirlar rejasini tuzish va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasidagi turizm sohasida iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi uning hududlarda yangi yo'nalishlari va imkoniyatlarini chuqur o'rganishni talab etmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5 yanvardagi 4095-sonli Qarorida, "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi"da 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirishning maqsadlari sifatida turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasining xilma-xil hamda-yilning turli fasllarida jozibador va raqobatbardosh turistik mahsulotlari, shu jumladan, mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, mahrifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport,

davolovchi-sog'lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan.[8] Shu o'rinda, mamlakatning tabiiy resurslari salohiyatini inobatga olgan xolda alohida bir turi (ekologik turizm)ni ilmiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab,"Tabiatni muhofaza qilish" termini xususida, bu tushuncha 1913-yil birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish bo'yicha SHveytsariyada o'tkazilgan Shezddan so'ng xalqaro miqyosda keng tarqaldi. Turizmning ekologik yo'nalishi esa dastavval, dunyo miqyosida amaliy ishlardan boshlangan bo'lib, mustaqil turistik yo'nalish sifatida rivojlanishi XX asr oxiri va XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi.

Tadqiqot ishining ushbu paragrafi tahlil metodologiyasi asosida xorijiy ilmiy amaliyotda ekoturizm sohasidagi tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Ilmiy izlanishlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ekoturizmning asosiy muammolaridan biri uning talqinlari va tashriflarining hanuzgacha keng qamrovligi va noaniqligidir. Ekoturizmni turizmning bir turi sifatida qarama-qarshi tahrifi, uning turizm sanoatining tashkiliy shakli sifatida qabul qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida muammoli savolni tug'diradi.

Tadqiqot ishida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha dunyo tajribasi va ushbu faoliyatni tashkil etishning O'zbekiston amaliyoti muhokama qilinadi. Hozirgi kunda ekoturizm tushunchasi haqida hamma eshitgan, biladi, lekin hech kim uning to'liq tasnifi, belgilari va parametrlari nima ekanligini aniq bilmaydi. Shuningdek, bu yo'nalishdagi bir necha-yillik ilmiy munozaralarning ko'rinishi ham bir to'xtamga kelgan emas. Ekoturizm tushunchasi, ta'riflari va misollari ko'plab, ammo kontseptual mohiyati yetarli darajada emas.

Bizning fikrimizcha, O'zbekistonda xorijiy olimlarning yutuqlari, uni rivojlantirish amaliyotlarini yanada chuqurroq

---

[8] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5 yanvardagi "2019-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi" to'g'risidagi 5611-sonli Farmoni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019-yil 6 yanvarь.

o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, bu esa ekologik turizmni tashkil etishdagi ilmiy va amaliy tajribani keng joriy etishda yordam beradi. Xorijiy ilmiy maktablarda turizm va mehmondo'stlik sohalari o'zaro ilmiy, qiyosiy tahlil tamoyillariga, uning amaliy holatlari va aniq yo'nalishlarini amalga oshirish tajribasiga asoslangan. Shuningdek, bugungi kunda zamonaviy jamiyatda ekologik turizmning ahamiyati va rolini, funktsiyalarini aniqlashning kontseptual yondashuvlarini o'rganish, terminologiyasini mukammal darajada muhokama qilish va ushbu dolzarb yo'nalishni turizm nazariyasi va amaliyotida tasniflash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bir qator mutaxassislarning fikriga ko'ra, xususan, Björk,[9] bugungi kunda zamonaviy sayyohlik sanoati "yashillik" sari intilmoqda, sayyohlarning soni tobora ko'payib borayotgani sayyohlar dam olish maskanlari va manzillarning ekologik muammolariga, tabiiy majmualarni saqlash jihatlariga e'tibor bermoqdalar va ko'proq dam oluvchilar ekologik toza, tabiiy salohiyatli hududlarni tanlamoqda. Tanlangan joylar tabiiy hududlar bo'lib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy darajasining yuqoriligiga bog'liq emas. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlar uchun ekoturizm milliy iqtisodiyotning asosiy tarmog'iga aylangan, davlat byudjetiga salmoqli darajada hissa qo'shmoqda. Bunday mamlakatlarning yorqin misollari sifatida Kosta-Rika, Ekvador, Nepal, Keniya, Tailand, Madagaskar va boshqalarni keltirish o'rinli, ularning tajribasi Lindberg, K.[10] Brockelman, W.A[11] Wallace,G.N[12] kabi tadqiqotchilarning bir qator ilmiy asarlarida mukammal yoritilganligini ko'rish mumkin. Ekoturizm sayyohlik sanoatini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi, shuningdek,

---

[9] Björk, P. (2000). Ecotourism from a conceptual perspective, an extended definition of a unique tourism form. International Journal of Tourism Research, 2, 189-202.

[10] Lindberg, K., Enriquez, J., & Sproule, K. (1997). Ecotourism questioned: Case studies from Belize. Annals of Tourism Research, 23(3). 543-562. doi: 10.1016/0160-7383(95)00074-7.

[11] Brockelman, W. A., & Dearden, P. (1990). The role of Nature trekking in conservation: A case-study in Thailand. Environmental Conservation, 17(2), 141-148. doi: 10.1017/S037689290003191X.

[12] Wallace, G. N. & Pierce, S. M. (1996). An evaluation of ecotourism in Amazonas, Brazil. Annals of Tourism Research, 23(4), 843-873. doi: 10.1016/0160-7383(96)00009-6.

uning oldida yangi tahdidlarni ham keltirib chiqaradi, lekin u ko'plab nazariy va kontseptual muammolarni o'z ichiga oladi, ularning yechimi ko'p jihatdan ahamiyati, funktsiyalari va rolini aniq anglashga to'sqinlik qiladi. Higham, J. E. S., Carr, A.[13] Ekoturizm "rivojlanishning noaniq xususiyati tufayli" yuzaga kelgan sayyohlik faoliyatining barcha segmentini tashkil etuvchi siyosat, rejalashtirish va rivojlanishiga to'sqinlik qilayotganligini ta'kidlaydilar.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar tarixi ko'p-yillik murakkab va qarama-qarshiliklardan iborat. Uning asosiy kontseptsiyasi "madaniy moslashuv"dir, bu odatda umumiy ma'noda jamiyatning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi va atrof-muhitning o'zgarishi asosan odamlarning mehnat faoliyati tufayli yuzaga kelishi tushuniladi. Bu munosabatlar XX asr o'rtalarida rivojlana boshlagan "madaniy landshaft" tushunchasida aks etadi.[14] Madaniy landshaft tushunchasi — muayyan maqsad bilan (biologik hosilni oshirish; rekreatsiya, aholi turar joylarini bunyod etish va h.k.) ilmiy asosda va insonlar manfaatini ko'zlab oqilona o'zgartirilgan landshaftlardir[15]. Tabiiy landshaft esa (nem. Land — yer, schaft — manzara) tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, rel'efi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hududlardir.[16]

Bugungi kunda atrof-muhit o'zgarishlarini tartibga solish hali yetarli darajada tashkil etilmagan va bu "Inson va tabiat" tizimini saqlab qolish uchun insoniyatning birinchi navbatda atrof-muhitni boshqarish uslublarida "atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo'lish xulqi" bilan bog'liq jarayondir. Dunyo ilmiy adabiyotlarida

---

[13] Higham, J. E. S. & Carr, A. (2003). Defining ecotourism in New Zealand: differentiating between the defining parameters within a national/regional context. Journal of Ecotourism, *2*(1), 17-32.
[14] Саушкин Ю.Г. Культурный ландшафт // Вопросы географии. 1946. Сб.1. С. 97-106.
[15] O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
[16] O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

turizmning tabiiy muhitga salbiy ta'sirining misollari va shakllari allaqachon ilmiy asoslangan.

Ekoturizmga eng dastlabki ta'rif 1965-yilda Hetzer, D.[17] tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra ekoturizm - bu tabiiy va arxeologik manbalarga asoslangan faoliyat turi hisoblanib, masalan, qushlarni va boshqa yovvoyi tabiatni tomosha qilish, manzarali joylarni, riflarni, g'orlarni, qazilma turlari topilgan joylarni, arxeologik joylarni, botqoq yerlarni ziyorati va sayohatidir - deya ta'rif beradi. Lekin, meksikalik iqtisodchi Ceballos-Lascurain,H[18]. 1983-yilda tanishtirgan keng ilmiy inqilob, "ekoturizm" atamasini tubdan farq qiladigan–ekotsentrik qiymat tizimini tushunishda, ya'ni tabiiy mahsulotlardan oqilona foydalanishga asoslanib, qulayliklar, ommaviy aloqalar, qulay, zamonaviy muhitda yashashdan voz kechish, ko'p sonli sayyohlar istehmolini qondirishga qaratilgan sayyohlik tushunchasidir - deya, 30 dan ortiq bir-biriga bog'liq tushunchalar va atamalarga aniqlik kiritadi. Dunyo ilmiy adabiyotlarida dastlabki ekoturizmga olimlar tomonidan berilgan turlicha tahriflarni quyida (1.1.1-jadval)da tahlil qilamiz; ushbu jadvalga ko'ra, ekoturizmga oid eng dastlabki va to'liq tahrif Seballos Laskureyn tomonidan berilgan. keyingi ta'riflar esa o'xshash yoki to'ldiruvchi sifatida keltirilgan. Masalan, K.Ziffer (1989), Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) (1990), J.Richardson (1993)larning bergan ta'riflarini tahlil qilgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, ekoturizm - bu asosan hududning tabiiy tarixi, shu jumladan mahalliy madaniyatlari bilan ilhomlangan turizmning bir shakli bo'lib, ekoturist nisbatan rivojlanmagan hududlarga tashriflarni qadrlash, ishtirok etish va tahsirchanlik ruhida tashrif buyuradi. Ekoturist yovvoyi tabiat va tabiiy boyliklardan behuda foydalanishga yo'l qo'ymaydi va tashrif buyurgan ish joyi yoki moliyaviy vositalar yordamida hududni saqlash va mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishga

---

[17] Hetzer, D. (1965). Environment, tourism, culture. UNNS, Reported Ecosphere, 1-3.
[18] Ceballos-Lascurain, H. (1987). Estudio de Prefactibilidad Socioeconomica del Turismo Ecologico y Anteproyecto Arquitectonico y Urbanõstico de Centro de Turismo Ecologico de la Reserva de la Biostera Sian Ka'an, Quintana Roo. Mexico: Study made for SEDUE Mexico.

hissa qo'shadi. Ushbu ketma-ketlikda shakllangan tahriflarda mahalliy aholining iqtisodiy farovonligiga urg'u berilmoqda.

**1.1.1-jadval**

**Seballos-Laskureyndan so'ng ekoturizmga berilgan tahriflarning bir xil printsiplar bo'yicha rivojlanish bosqichlari[19]**

| № | MUALLIF YOKI MANBA | YIL | TA'RIFLAR |
|---|---|---|---|
| 1. | T.S. Laskureyn | 1987 | **Eng dastlabki tahrif:** Ekoturizm - tabiiy mahsulotlardan oqilona foydalanishga asoslanib, qulayliklar, ommaviy aloqalar, qulay, zamonaviy muhitda yashashdan voz kechishga qaratilgan ko'p sonli sayyohlar istehmolini qondirishga yo'naltirilgan sayyohlik tushunchasidir. |
| 2. | K..Ziffer | 1989 | **Ekoturizm** - bu asosan hududning tabiiy tarixi, shu jumladan mahalliy madaniyatlari bilan ilhomlangan turizmning bir shakli. Ekoturist nisbatan rivojlanmagan hududlarga tashriflarni qadrlash, ishtirok etish va tahsirchanlik ruhida tashrif buyuradi. Ekoturist yovvoyi tabiat va tabiiy boyliklardan behuda foydalanishga yo'l qo'ymaydi va tashrif buyurgan ish joyi yoki moliyaviy vositalar yordamida hududni saqlash va mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirishga hissa qo'shadi . |
| 3. | Xalqaro ekoturizm tashkiloti (TIES) | 1990 | **Ekoturizm** - tabiiy hududlar uchun mashul sayohat turi bo'lib, atrof-muhitga mashul hamda atrof-muhitni asrash orqali mahalliy aholi farovonligini tahminlash demakdir. |
| 4. | J.Richardson | 1993 | **Ekoturizm**-tabiiy hududlardagi ekologik jihatdan barqaror turizm mahalliy atrof-muhit va madaniyatlarni tushuntiradi, sayyohlarning ular haqidagi tushunchalarini yaxshilaydi, tabiatni saqlashga yordam beradi va mahalliy aholining farovonligini oshiradi. |

[19] Turli ilmiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif ishlanmasi.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | N.K.Vard | 1997 | **Ekoturizm**–sayohatchilar, atrof-muhitni o'rganadigan, tabiatning qiymati yuqori bo'lgan sayohatdir. |
| 6. | M.B. Birjakov | 1999 | **Ekologik turizm** - ilmiy va tahlimiy maqsadlar bilan sayohat qiluvchi odamlarni birlashtiradigan tabiiy turistik turlaridan biridir. |
| 7. | A.S. Slepokurov | 2000 | **Ekologik turizm**–tabiatga chiqindi chiqarmagan xolda, zararni yo'q qilish, yer osti manbalarini tiklash maqsadida ekologik guruhlarning tabiatga sayohatidir. |
| 8. | Ya.B.Oliynik | 2002 | **Ekologik turizm** - tabiiy muhitni muhofaza qilishga, xususan, qo'riqlanadigan landshaftlarga, mahalliy aholi va o'z-o'zini boshqarish organlari bilan insoniy munosabatlar o'rnatishga, moliyaviy va iqtisodiy farovonlikni oshirishga qaratilgan barcha turistik turlarni o'z ichiga oladi. |
| 9. | V.V. Xrabovchenko | 2003 | **Ekoturizm** – sayyohlik talablariga asoslangan, sayyohlik ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan, tabiatni bilish va ekotizimlarni saqlab qolishga hissa qo'shishga xizmat qiluvchi turizm yo'nalishidir. |
| 10. | D.Fennel | 2008 | **Ekoturizm**-tabiatni va uning yovvoyi o'simliklar va hayvonlarini o'rganish, zavqlanish va aniq maqsadga qaratilgan xolda nisbatan ko'p tahsirlar o'tkazilmagan tabiiy hududlarga sayohat qilishdir. |

Shu o'rinda, ekoturizm tushunchasini izohlaydigan tushunchalarning sinonimi sifatida quyidagilarni keltirish o'rinlidir:

Bugungi kunda "ekoturizm" tushunchasi eng ko'p tilga olingan turlaridan biri hisoblanadi. Ammo ushbu tushunchaning to'liqligi mohiyati va mazmuni borasida hali aniqlik mavjud emas. Bugungi kunda ekoturizmni aniqlashga ko'plab yondashuvlar mavjud. Masalan, bir qator mualliflar Björk, ' [20], Fennell, D. A.[21], Wight, P. A.

[20] Björk, P. (2000). Ecotourism from a conceptual perspective, an extended definition of a unique tourism form. International Journal of Tourism Research, 2, 189-202.
[21] Fennell, D. A. (2001). A Content Analysis of Ecotourism Definitions. Current Issues in Tourism, 4(5), 403-421. doi: 10.1080/13683500108667896.

[22], "ekoturizm jamiyat barqaror rivojlanishning ifodasidir" deb ta'kidlaydilar.

R. Blamey[23], R.Bakli[24] uning asosiy maqsadi - tabiiy muhitda yovvoyi tabiatni o'rganish tajribasi deb ta'kidlaydi. Fennell, D. A [25], Fennell, D., Ebert K.[26], Lawton, L. J., Weaver, D. B.,[27] kabilarning ilmiy qarashlarida esa ekoturizmning nazariy muammolaridan biri tahriflarning kengligi va noaniqligidir. Dunyo ilmiy adabiyotlarida ekoturizm tushunchasini aniqlashga 100 dan ortiq turli xil yondashuvlarni uchratish mumkin. Ushbu faoliyat turini yagona aniqlashning uslubiy muammosi hali ham noaniqligicha qolmoqda. Lekin nazariy va uslubiy asoslari nomahlum bo'lgan turizmning ushbu yo'nalishi jahon amaliyotida jadal rivojlanmoqda. Qator tadqiqotchilar tomonidan bir necha bor amalga oshirilgan "ekoturizm" tushunchasini aniqlashga yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, xulosa chiqarish uchun ko'plab urinishlar mavjud. Valentine[28] tabiatga asoslangan turizmni tahriflash uchun ishlatilgan 18 ta tahriflarning qisqacha mazmunini umumlashtirdi va taqdim etdi. Edwards,S.N.,[29] SHimoliy Amerikadagi turli xil 25 ta tahrifni umumlashtiradi. (hukumat hujjatlaridan tortib ilmiy adabiyotlarga qadar), ularni oldindan belgilangan tarkibiy qismlar bilan taqqoslab, maqsad, faoliyat, ko'rsatmalar, boshqaruv va operatsiyalar, tabiatni muhofaza qilish, rejalashtirish va dizayn, iqtisodiy foyda, tajriba va xabardorlik, tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy manfaatlar va ijtimoiy-madaniy muhofaza tushunchasigacha aniqlik kiritdi.

---

[22] Wight, P. A. (1993). Ecotourism: Ethics or Eco-sell? Journal of Travel Research, 31(3), 3-9. doi: 10.1177/004728759303100301.

[23] Blamey, R. (1997). Ecotourism: the search for an operational definition. Journal of Sustainable Tourism, 5(2), 109-130. doi: 10.1080/09669589708667280.

[24] Buckley, R. (1994). A framework for ecotourism. Annals of Tourism Research, 21(3), 661-665.

[25] Fennell, D. A. (2001). A Content Analysis of Ecotourism Definitions. Current Issues in Tourism, 4(5), 403-421. doi: 10.1080/13683500108667896.

[26] Fennell, D., & Ebert K. (2004). Tourism and the precautionary principle. Journal of Sustainable Tourism, 12(6), 461-479. doi: 10.1080/09669580408667249.

[27] Weaver, D. B., & Lawton, L. J. (2007). Twenty years on: The state of contemporary ecotourism research. Tourism Management, 28(5), 1168-1179. doi: 10.1016/j.tourman.2007.03.004

[28] Valentine, P. (1993). Ecotourism and nature conservation. A definition with some recent developments in Micronesia. Tourism Management, 14(2), 107-115. doi: 10.1016/0261-5177(93)90043-K.

[29] Edwards, S. N., McLaughlin, W. J. & Ham, S. H. (1998). Comparative Study of Ecotourism Policy in the Americas. Washington, DC: University of Idaho and the Organization of America States.

Björk,'.[30] ekoturizmning mavjud barcha ta'riflarini tanqidiy taqqoslab, barcha ta'riflarning asosiy yadrosi bu: ekoturist tashrif buyuradigan hudud bo'lishi kerak, tabiat va (yoki) madaniy asosiy diqqatga sazovor joy sifatida namoyon bo'ladigan joy; turist tabiiy hududlarda ushbu elementlarga qoyil qolishi, o'rganishi va zavqlanishi kerak degan yagona ta'rifni ilgari suradi.

Boshqa tomondan qaraganda, ekoturizm alternativ (atrof-muhitni muhofaza etishning o'ziga xos usuli) yondashuv bo'lib, tabiiy resurslarni, ayniqsa biologik xilma-xillikni himoya qilishga qaratilgan;[31] resurslardan barqaror foydalanishga ko'maklashish; ekologik tajriba va sayyohlar uchun ekologik ongni yaratish maqsadi ustuvor bo'lgan, [32] tabiiy va madaniy merosni muhofaza qilish va hurmat qilish, mahalliy jamoalarga foyda keltirishi va ularni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va rejalashtirish jarayonlarining markaziga qo'yish kabi masalalar[33] dolzarb vazifasi bo'lgan sayyohlik yo'nalishidir.

Amalga oshirilgan qator tadqiqotlar tahlili ko'rsatishicha, g'arb amaliyotida ekoturizm tahriflarining eng to'liq tahlili Fennell,D.A.[34] tomonidan taqdim etilgan. U mavjud bo'lgan 85 ta ekoturizm tahriflarining tarkibiy tahlilini o'tkazdi. Xuddi shunday metodologiyani ishlab chiqqan va yondashuvlarning xilma-xilligini tahlil qilish uchun quyidagi mezonlardan foydalangan xolda ekoturizmning 30 ta tahrifini tarkiban tahlil qilgan H.Donohoe.,R.Needham[35], atrof-muhitga ta'sir qilish, ekoturizm xizmatlarini ko'rsatadigan korxonalar hajmi, etika, turistlarning javobgarligi va xabardorligi, atrof-muhit ob'ektlariga (tabiiy bog'lar)

---

[30] Björk, P. (2000). Ecotourism from a conceptual perspective, an extended definition of a unique tourism form. International Journal of Tourism Research, 2, 189-202.

[31] Bansal, S. P., & Kumar, J. (2011).Ecotourism for community Development: A Stakeholder's perspective in great Himalayan National Park.International Journal of Social Ecology and Sustainable Development, 2(2), 31-40.

[32] Fennell, D. A. (1999). Ecotourism: An introduction (1st ed.). London and New York: Routledge.

[33] Tewodros, K. T. (2010).Geospatial approach for ecotourism development: A case of bale mountains national park, Ethiopia.(Master Thesis).

[34] Fennell, D. A. (2001). A Content Analysis of Ecotourism Definitions. Current Issues in Tourism, 4(5), 403-421. doi: 10.1080/13683500108667896

[35] Donohoe, H. M. & Needham, R. D. (2006). Ecotourism: The Evolving Contemporary Definition. Journal of Ecotourism, 5(3), 192-210. doi: 10.2167/joe152.0.

va tabiiy hududlarni muhofaza etishni boshqarish, madaniy ehtiyojlarni qondirish, taassurotlar, tabiatga yo'naltirilgan, (volontyorlar)ko'ngillilar kabi tushunchalarga aniqlik kiritadi. Bu shundan dalolat beradiki, G'arb ilmiy nazariyasida "ekologik turizm" tushunchasi yagona yaxlit ta'rifga ega bo'lmasdan, ushbu faoliyat turini ajratib turadigan asosiy printsiplar to'plamiga ta'sir qiladi xolos.

Yigirmanchi asrda boshqa sohalar kabi turizm ham tabiatga ko'p zarar keltirdi. 1997-yilda Lawrence, T. B., Wickins, D. va Phillips, N.[36] ekoturizm o'zining ko'zlangan ekologik va iqtisodiy maqsadlariga erishish qobiliyati nuqtai nazaridan "qonuniylik inqirozini" boshdan kechirayotganini ta'kidlashdi. Lindberg, K., va McKercher, B.[37] ekoturizmni belgilangan maqsadlarni amalga oshirish qobiliyati noaniq bo'lgan rivojlanayotgan soha sifatida ta'rifladi. "Ekoturizm" fenomenining turli xil ta'riflari bilan uning aksariyat turlarining rivojlanishi ekologik turizmning ommaviy ko'rinishlari rivojlangan taqdirda ular uchun xavf tug'diradigan tabiiy, yopiq joylarga sayohat qilishga aylanadi. Masalan; (Ekofalokatlarni tomosha qilish).

Ekoturizmning tabiat bilan mujassamlashuvi deganda, tabiatni boshqarishning eng keng tarqalgan, tanish usulini ("tabiatda rekreatsion boshqaruv" deb nomlangan uzoq vaqt davomida mavjud bo'lgan) turini anglatadi. Boshlang'ich mohiyatiga ko'ra, ekoturizm g'oyasini manfaatdor tomonlar uchun marketing va boyishning umumiy shakliga aylanishiga yana bir misol, ekologik standartlashtirish, "ekologik muvofiqlik" sertifikatlaridir. Agar barcha ekohududlarda to'lovlarni davlatga to'langanda, olingan moliyaviy mablag'lar haqiqatan ham tabiatni muhofaza qilish maqsadida hududlar tarmog'ini rivojlantirish, buzilgan landshaftlarni qayta tiklash va hokazolar uchun byudjetga tushishi mumkin edi, agar bu vazifalar xususiy mulkka beriladigan bo'lsa,

[36] Lawrence, T. B., Wickins, D. & Phillips, N. (1997). Managing legitimacy in ecotourism. Tourism Management, 18(5), 307-316. doi: 10.1016/S0261-5177(97)00020-4.
[37] Lindberg, K., & McKercher, B. (1997). Ecotourism: A critical overview. Pacific Tourism Review, 1(1), 65-79.

xususiy sektor va individual "mutaxassislar"ning ekoturizni rivojlantirish borasidagi harakatlari samarasizdir. Ammo iste'molchi uchun "Eko" belgisini ko'rish juda muhim, yahni "ekoturizm". Bugungi kunda "eko-standartlashtirish" dan keladigan foyda bir necha o'nlab milliard dollarga yetadi. Cater, E.[38] ekoturizm aslida atrof-muhitni boshqarishning g'arbiy modeli ekanligini ta'kidlaydi. Tabiatni boshqarishning anhanaviy shakllariga qaraganda, ekoturizm atrof-muhitga nisbatan kam miqdorda muammolar va xavflarni keltirib chiqaradi. Bir qator mualliflar Cater, E.[39] Hall,C.M[40] Mowforth,M. Munt, I.[41]ekoturizm kelajakda "ekokolonializm" shakliga aylanishini tahkidlamoqda, yahni ilgari iqtisodiy faoliyatda foydalanilmagan tabiiy resurslar iqtisodiy tijoratlashtirishga jalb qilinadi. Ekoturizmning ko'pgina tahriflari barqarorlik maqsadiga yoki "tabiiy va madaniy muhitga salbiy tahsirni minimallashtirish", "tabiatni saqlash foydasiga iqtisodiy daromadlarni oshirish" yoki ushbu maqsadga erishish vositalariga asoslangan. Shuning uchun Lindberg K., va Hawking, D.[42] sodda va umumiy ko'rinishdagi tushunchali ta'rifdan foydalanishni taklif qiladi, yahni "Ekoturizm - bu turizmning barqaror turi bo'lib, tabiatga yo'naltirilgan xolda dam olishdir." SHundan kelib chiqib, turizmning mutlaqo har qanday turi, tarkiban ekoturistik bo'lishi mumkin degan xulosaga kelish mumkin, atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarida turistning ishtirok etish shakli yoki uning tashkil etilishi va o'tkazilishi ekologik boshqaruvga mos keladi. Bizning fikrimizcha, bunday xolda, ekoturizmni turizmning alohida bir shakli sifatida aniqlash amaliyotiga urinish noo'rin bo'ladi.

---

[38] Cater, E. (2006). Ecotourism as a Western Construct. Journal of Ecotourism, 5(1-2), 23-39. doi: 10.1080/14724040608668445.

[39] Cater, E. (1993). Ecotourism in the Third World: problems for sustainable tourism development. Tourism Management, 14(2), 85-90. doi: 10.1016/0261-5177(93)90040-R.

[40] Hall, C. M. (1994). Ecotourism in Australia, New Zealand and the South Pacific: Appropriate tourism or a new form of ecological imperialism? In: Ecotourism: A Sustainable Option? London & Chichester: Royal Geographical Society and John Wiley, 137-157.

[41] Mowforth, M. & Munt, I. (2003). Tourism and Sustainability. London: Routledge.

[42] Lindberg K., & Hawking, D. (1993). Ecotourism: A Guide for Planners and Managers. Vol. 1. The Ecotourism Society, North Bennington.

Bugungi kunda turizmning alohida turi sifatida ekoturizmni turlarga ajratish amaliyoti mavjud. Ammo turizm nazariyasida anhanaviy ravishda logistika sayyohlikni turlar bo'yicha tasniflash, motivatsion omillardan foydalanishga imkon beruvchi belgi sifatida ko'riladi. Ushbu tasnif bilan ular odamni sayohatga borishga undagan asosiy sababdan kelib chiqadilar. Bu esa ekologik turizmni alohida tur sifatida ajratishning qonuniyligining uslubiy muammosini vujudga keltiradi. Ilmiy adabiyotlarda ekoturizmni aniqlash mezonlari, tamoyillari, xususiyatlarini aniqlashga urinishlarni uchratish mumkin. Buckley, R.,[43] 'ierce, S. M., Wallace, G. N. va,[44] Björk, '.,[45] Needham, R. D va Donohoe, H.M. [46], Eagles,'.F.J. [47], Dowling, R. K., Newsome, D., Moore, S. A. [48] va boshqalar).

SHuningdek, O'zbekistonda ekoturizmga berilgan bir nechta tahriflarning tahlili quyida jadvalda jamlandi: (1.1.2-jadvalga qarang)

**1.1.2-jadval**

| № | MUALLIF YOKI MANBA | YIL | TA'RIFLAR |
|---|---|---|---|
| 1. | A.X.Pardaev, A.N Norchaev | 2011 | **Ekoturizm** - tabiiy turizm bo'lib tabiat muhitini hosil qilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, "tabiiy muhit", madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarini uzoq muddatli muhofaza qilishni o'z ichiga oladi. |

43 Buckley, R. (1994). A framework for ecotourism. Annals of Tourism Research, 21(3), 661-665.
44 Wallace, G. N. & Pierce, S. M. (1996). An evaluation of ecotourism in Amazonas, Brazil. Annals of Tourism Research, 23(4), 843-873. doi: 10.1016/0160-7383(96)00009-6.
45 Björk, P. (2000). Ecotourism from a conceptual perspective, an extended definition of a unique tourism form. International Journal of Tourism Research, 2, 189-202.
46 Donohoe, H. M. & Needham, R. D. (2006). Ecotourism: The Evolving Contemporary Definition. Journal of Ecotourism, 5(3), 192-210. doi: 10.2167/joe152.0.
47 Eagles, P. F. J. (2001). Nature-based tourism management. In: Contemporary Perspectives on Tourism. Department of Geography Publication Series. Waterloo, ON: Department of Geography, University of Waterloo, 181-232.
48 Newsome, D., Moore, S. A. & Dowling, R. K. (2002) Natural Area Tourism: Ecology, Impacts and Management. Clevedon: Channel View Publications.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2. | A.Nigmatov, N.SHomurato va | 2011 | **Ekoturizm** tor mahnoda kishilarni ekotizimlarga sayohat qilishlari. Keng mahnoda esa **ekoturizm** — shaxslarning doimiy yashash joylaridan dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, iqtisodiy, ijtimoiy, mahrifiy-mahnaviy ishlarni amalga oshirish yoki boshqa maqsadlarni ko'zlagan holda ekotizimlarga qiladigan sayohatlari |
| 3. | O.Xamidov | 2016 | **Ekoturizm**–atrof-muhitga ongli ravishda munosabatda bo'lib, salbiy tahsirni eng kam darajaga tushirish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni obodonlashtirishni moliyalashtirishga yordam berish, ekoturistik firmalarga tegishli daromad olishga imkoniyat yaratish, mahalliy aholi uchun daromad manbaini barpo etish, sayyohlarni ekologik madaniyatga o'rgatishdir. |
| | R.Islomova | 2019 | **Ekologik turizm** - tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni ko'rish, tomosha qilish, ilmiy jihatdan o'rganish, ularning betakror jozibasi va o'ziga xos tomonlaridan zavq olish maqsadida tabiat hududlariga ziyon yetkazmasdan, atrof-muhitni muhofaza qilgan holda sayohat va sarguzasht qilish orqali tabiatga ko'maklashish, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilashga qaratilgan turizmning turiga aytiladi. |

Respublikamiz olimlari tomonidan eng so'nggi (2019)[49] berilgan tahriflariga qo'shimcha ravishda, ekoturizm–bu tabiiy landshaftni saqlash maqsadi ustuvor bo'lgan, maxalliy aholining, hududning sayyohlik taraqqiyotidagi manfaatlari ustuvorligini ehtirof etuvchi, mahalliy o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qiluvchi, mahalliy aholini atrof-muhitni muhofaza qilish uchun iqtisodiy rag'batlantiruvchi sayyohlik turidir, deya tahrif beramiz.

[49] Islomova R.A. Erkin iqtisodiy zonali hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. S: SamISI, 2019.-12.

Bugungi kundagi zamonaviy ekoturizm tushunchasi, natijasida barqarorlikka erishishga qaratilgan ehtibor ko'p jihatdan bizni sayohatlarning qaysi turlarini ekoturizm deb hisoblash kerakligi haqidagi anhanaviy g'oyalarni qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi. Shu bilan birga, turizm turlarini farqlashning anhanaviy mezonlari - sayohatchilarning motivatsiyasi va turistik oqimlarning hajmi albatta muhimdir, ammo ular o'zlari ekoturizmni alohida tur sifatida ajratishda hal qiluvchi rol o'ynamaydilar. Shu sababli, ekoturizm atrof-muhitga yumshoq munosabat va atrof-muhitda turistik xulq-atvorning umumiy madaniy normalariga rioya qilish tamoyiliga muvofiq tashkil etilgan turizmning mahlum turi hisoblanadi. Sayohat tashkilotchilari o'zlariga savol berishlari kerak: ushbu sayohatlar tabiiy va madaniy muhitga qanday tahsir qiladi, ular qanday oqibatlarga olib kelishi haqida. Bundan kelib chiqadigan bo'lsak, agar turistik dastur atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarida (shu jumladan, tahlim) sayyohlarning ishtirok etishining har qanday shaklini yoki uning tashkil etilishi va o'tkazilishini keng miqyosda ekologik boshqaruvga muvofiq bo'lsa, turizmning mutlaqo har qanday turi ekoturizm bo'lishi mumkin. SHu sababli, bizning fikrimizcha, ekoturizmni turizm emas, balki turistik sohaning tashkiliy shakli deb hisoblash yanada to'g'ri va uslubiy jihatdan asoslidir. (1.1.2-rasm)da ekoturizmning maqsadlariga ko'ra turlari aks etgan:

1993-yildan beri O'zbekiston Respublikasida parlamentga bevosita hisobot beradigan atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'nlab turistik tashkilotlar, yuzlab xususiy uy xo'jaliklari o'z faoliyatini olib bormoqda. Hozirgi vaqtda ekoturizm turizmning yangi ilmiy yo'nalish sifatida o'z o'rniga ega bo'lish arafasida.

1.1.2-rasm mahlumotlariga ko'ra, turizmning birgina ekologik yo'nalishini 20 ta turini mamlakatimizda rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lib, bu o'z o'rnida mana shu 20 ta yo'nalishga dahldor sohalar xususan (qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi) rivojiga ham ijobiy tahsir etadi.




**1.1.2-rasm. Ekoturizm tushunchasining istiqbolli turlari[50]**

Xususan, ushbu tadqiqot ishida aynan ekoturizm sohasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir keltirilgan ilmiy yangiliklar;

EIS (ekoturizm imkoniyatlari spektri) usuli – ekoturizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlarni aniqlash, ushbu salohiyat darajalari aniqlangan hududlarda olingan mahlumotlarga muvofiq optimal variantlarini topishdan iboratdir.

SPA so'zi, bu suv bilan bog'liq fizioterapiya usulini anglatadi. Gidroterapiya (grek. hýdōr, suv+ thera'éia) davolash (suv, daryo, ko'l, buloq, yomg'ir) foydalanish[51] balg'neoterapiya (lat. *balneum* — + grek. thera'éia —»davolash»), shuningdek, psammoterapiya (grek.

[50] Muallif ishlanmasi.

[51] Научно-информационный «Орфографический академический ресурс АКАДЕМОС» Института русского языка им. В. В. Виноградова РАН.

psammo — qum, therapia — davolash)[52] kabi mahnodosh tushunchalardan ham keng foydalaniladi. Dunyoda dastlabki SPA-dam olish maskanlari - bu mineral, shifobaxsh, tuzli, dorivor suvlar bilan davolaydigan Frantsiyadagi «Vichi» va «Evian», Italiyadagi «Abano-Terme» va Belgiyadagi SPA dam olish maskanlaridir. Ushbu maskanlar hudud iqtisodiyotida muhim rolg' o'ynaydi. Tadqiqotchi tomonidan bunday uslubdagi ekomehmonxonalarning ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida taklif etilishiga sabab, ushbu hududlarda talab bugungi kunda infratuzilma mavjud bo'lmasa-da, mahalliy turistlar hisobiga tabiiy holatda mavjudligi aniqlangan.

Ko'p bosiqchli tuzilmaviy model - ekoturistik faoliyatni tizimli ravishda yo'lga qo'yish maqsadida ishlab chiqildi. Ayni kunda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda foydalanib kelinmoqda.

O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi - ushbu mexanizmning bosh maqsadi o'rmon xo'jaligini muhofaza etish, aholi sog'ligini tiklashga ko'maklashish, o'rmon atrofida istiqomat qiluvchi mahalliy aholiga iqtisodiy ko'mak va turizmning barqaror shaklini rivojlantirishni nazarda tutgan xolda faoliyat olib borishdir. Ushbu mexanizmda: ekoturizmni rivojlantirish jarayonida bir-biriga bog'liq, manfaatdor subhektlarning harakatlari natijasida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi harakatlanadi.

So'nggi 15-20-yil ichida xalqaro tajribada ekoturizm ilmi va tahlimi hayotga jadal surhatda kiritildi. Tadqiqotlar Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqida, shuningdek, qo'riqxonalarning ekomarkazlarida quyidagi (1.1.3-rasm) tamoyillarga asoslangan xolda olib borilmoqda;

Ushbu tamoyillarni tahlil qilgan holda uning to'la qonli tahrifiga barcha tamoyillariga mos kelishligini va inobatga olinganligini tahkid etish lozim. Xususan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza etish, mahalliy aholining iqtisodiy

---

[52] Олефиренко В. Т. Водотеплолечение. 3-е изд.-М., 1986; Маньшина Н. В. Курортология для всех: За здоровьем на курорт.- М., 2007.

farovonligiga ko'mak, madaniyatini hurmat qilishi va himoya qilishi va boshqalar.




**1.1.3-rasm. Ekoturizmning tamoyillari**

Bugungi kunda O'zbekistonda ekoturizm faoliyatini yo'lga qo'yishda aholida yetarlicha ko'nikmalar xali to'liq shakllanmagan. Bunga sabab, bizning fikrimizcha, ehtimol yetarlicha targ'ib qilinmayotganligidir. O'zbekistonlik bir nechta olimlar ekoturizmni rivojlantirish, uning mexanizmlarini takomillashtirishga doir izlanishlar olib borishgan va uning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishgan. Masalan, uning iqtisodiy xususiyatlarini bevosita N. Tuxliev (2001), A. Taksanov (2005) va T. Abdullaevaning (2006), A. X. Pardaev., B.Berdiyorov, (2010), A. N. Norchaev, (2011), O.Xamidov (2017), R.Islomova (2019) ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. O'zbekistonda ekologik turizm va uning mintaqaviy jihatlari kengroq o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ekoturizmning ahamiyati faqatgina to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy daromad bilangina cheklanmaydi, balki, uning ekologiyaga ijobiy tahsiri, iqtisodiy foydasidan anchayin yuqoriroq.

## 1.2-§. Xorij tajribalari asosida O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish strategiyalarini joriy etish

Ayni kunda davlat byudjetini asosiy qismi turizm sohasiga to'g'ri kelayotgan mamlakatlar oz emas. ButunJahon Turistik Tashkiloti (BTT) tomonidan o'tkazilgan bashorat tahlillariga ko'ra, shu qadar jadal rivojlanayotgan tarmoq prognozi natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yilga borib sayyoramizda sayohatchilar soni 1,6 mlrd kishiga yetishi kutilayotgan edi. O'zbekistonda esa xalqaro turizm bashoratlariga ko'ra, 2025-yilga kelib turistlar soni 15 mln kishidan oshishi kuzatiladi. (pandemiya holatlarini inobatga olinmaganda) Umumiy turistlar sonining o'sishida esa ekoturizmning ulushi yuqori.

Xalqaro darajada ushbu soxada ulkan ishlar amalga oshirilmoqdaki, Jumladan, Xalqaro ekoturizm jamiyati (TIES) faoliyatini keltirish o'rinli.

Ekoturizmni global miqyosda targ'ib etishga qaratilgan ushbu notijorat tashkilot 1990-yilda tashkil etilgan bo'lib, ushbu tashkilot ekoturizm faoliyatiga doir ko'rsatmalar va standartlar, texnik yordam, o'quv, ilmiy tadqiqotlar va nashrlarni taqdim etish bilan birga ekoturizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

(TIES) global ekoturizm sohasidagi mutaxassislar va sayohatchilar tarmog'i bo'lib, sayyohlikni, biologik madaniy xilma-xillikni saqlash va jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun ishonchli vosita sifatida foydalanishga qaratilgan. Eng yirik va eng dastlabki ekoturizm jamiyati, (TIES) 190 dan ortiq mamlakatlarda o'z ahzolariga ega. SHuningdek, hamkorlarning barchasi barqaror ekoturizmni rivojlantirish yuzasidan faoliyat olib boradi, ekoturizmni rivojlantirishga hissa qo'shmoqchi bo'lganlarni birlashtiradi.

Shuningdek, mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning atrof-muhitga yetkazayotgan salbiy tahsirini o'rganuvchi Xalqaro Markaz Yevropa va O'rta yer dengizi Universitetlari fakulg'tetlari hamkorlikda birlashgan markaz mavjud. Ushbu markaz "Hozirgi

ehtiyojlarnigina qondirishga qaratilgan rivojlanish, kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazadi" shiori ostida faoliyat olib boradi.[53] Iqtisodiyotda o'ta sanoatlashishning atrof-muhitga salbiy tahsirini doimiy nazorat qilib, ekologik sertifikatlash, samarali ekologik tadqiqotlar ustida ilmiy-amaliy izlanishlar olib boriladi. Ushbu Markaz faoliyatining maqsadi atrof-muhitni iloji boricha asrab-avaylash borasida innovatsion xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihalarini qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu sanoatni xalqaro darajada tahlil etadigan bo'lsak, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ekoturizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini birinchilardan amalga oshirishga kirishgan yetakchi davlatlar o'z hududlaridagi alohida muhofaza qilinmaydigan tabiiy hududlardan ham ekologik turizmni rivojlantirishda keng foydalanishmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, har-yili atmosferaga 100 million tonnadan ortiq uglevodorod chiqariladi. SHuning 74 foizi rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.[54] Ushbu global masalani yuqori darajada sanoatlashgan mamlakatlar (AQSH, Kanada, Xitoy, Yaponiya, Germaniya.) tajribasi va siyosatini tahlil qilgan xolda, aynan ekoturizmni rivojlantirish, uning maqsadi va yo'nalishlarini to'g'ri, aniq tahlil qilish orqali erishmoqdalar. Ushbu mamlakatlar ekoturizmni rivojlantirish orqali mahalliy aholini ish bilan tahminlashning, sunhiy yashil ekoturizm burchaklarini yaratayotgan va har bir hudud, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini rejalashtirishni jahondagi boshqa davlatlarga nisbatan juda erta boshlagan mamlakatlar hisoblanadi. Quyida (1.2.3-rasmga qarang) aks ettirilgan mamlakatlar (2010-2020) ekoturizmda dunyo miqyosida yetakchi mamlakatlar hisoblanadi.

AQSH, Avstraliya, Keniya, Yangi Zelandiya, Tanzaniya kabi mamlakatlar ayni kunda ekoturizmni rivojlantirishning o'ziga xos

---

[53] https://www.ecsev.org/EUROPEAN CENTER OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT, Sustainable Development Conference, 2019, Rome, Italy

[54] Xolmo'minov T.J.,Safarov. I.J, Xorijiy mamlakatlarda tabiiy resurslar huquqi; qiyosiy tahlil va qonunchilikni takomillashtirish. T;2012-yil. Monografiya. 6-bet

yo'nalishlarini-yildan-yilga yangi turlarini kashf etayotgan mamlakatlar hisoblanadi.




**1.2.3-rasm. Dunyo mamlakatlarining-yiliga ekoturizmdan oladigan daromadlar ulushi mln. dollar hisobida[55]**

AQSH ekoturizmdan keladigan daromadlari jihatidan boshqa mamlakatlardan sezilardi darajada ustun turadi,-yillik daromadi 14 000 million AQSH dollarini tashkil qiladi. Ekoturizm hisobiga bunday-yillik daromadning kelib tushishi dunyo bo'yicha aynan ushbu mamlakatga ekoturistik talabning yuqoriligini ko'rsatib bermoqda.

Shu o'rinda, AQSH tajribalarini, maqsadli siyosat strategiyalarini tahlil qilar ekanmiz, Amerikada ekoturizmni rivojlantirish jarayoni dastlab milliy bog'lar, tabiiy qo'riqxonalarni rivojlantirishdan boshlandi.[56] AQSHda ekoturizm turizm sanoatining asosiy qismini tashkil etadi. SHu sababli mamlakatda turizm industriyasining barqarorligi uchun ekoturizm tashabbuskorlari juda muhim hisoblanadi. Mamlakatda ekoturizm qarorlarini qabul

[55] Intesco Research Group ekologik va qishloq turizm markazining biznes rejasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[56] https://en.wikipedia.org/Ecotourism_in_United_States

qilishni yanada soddalashtirish maqsadida, eng kuchli ekoturistik shtatlar 10 taligi ehlon qilingan.[57]

Yaponiya tajribasini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishda dastlabki tadbirlar milliy parklarga juda katta ehtibor qaratishgan. Yaponiyaning milliy parklariga har-yili 316 mlndan ortiq ekoturist tashrif buyuradi. Bundan (80%) 252 mln.ni yaponlarni, qolgan qismi xorijiy sayyohlarni tashkil etadi.

Kanada davlatida ekoturizmni jadal rivojlanishiga sabab hududining kattaligi va bu hududlarda aholining keng ko'lamda tarqalganligi qo'l keldi. Ekoturizmni jadal rivojlantirishga tahsir etuvchi omillar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududning umumiy maydoniga nisbatan aholi joylashuvi ko'proq o'rinli bo'ladi.[58] Ushbu davlat yetakchi davlatlar qatorida birinchilardan bo'lib, milliy parklarni tashkil qilish, ulardan dam olish, tabiatni muhofaza qilishda ekologik turizmni rivojlantirish stretegiyalarini ishlab chiqishdi. Masalan, ayni kunda Kanada davlatida "ochiq tabiat qo'ynida sayohat" umumiy turizm hajmining 4 dan birini tashkil etadi.

Frantsiyaning ekoturizmni rivojlantirishdagi strategiyalarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu davlatning uzoq-yillik tajribasi shuni ko'rsatadiki, muhofaza etiladigan hududlardan tashqari bugungi kunda alohida "ekoturizm burchaklari"ni ham sunhiy ravishda yaratmoqdalar.[59] Ko'plab mehmonxonalar alohida imtiyozga ega "yashil yorliq"ni olish uchun maxsus mezonlarga javob berishga harakat qilmoqdalar. (yahniki, barcha xizmatlar ekologik va yashillikka qaratilgan bo'lishi lozim)

Germaniyada ichki ekosayyohlik 1-o'rinda turadi. 1983-yilda tabiatga sayohat (ekoturizm)ni G'arbiy Germaniya turistlarining 46% muhim deb hisoblagan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 1993-yilda 59,3% ga o'sganligini kuzatish mumkin. Germaniya misolida global sayyohlik turining o'sish tendentsiyasi; ekosayyohlik bozori doimiy

[57] https://mynatour.org/destination/top-10-ecotourism-states-usa
[58] Geoffrey Wall Professor of Geography and Recreation and Leisure Studies University of Waterloo, Ecotourism: Change, Impacts, and Opportunities, pp 109-117.
[59] http// www.tourism4development2017.org /solution in-france/

o'sish tendentsiyasiga ega. Masalan, 2000-yilda 6,8% dan 2010-yilda 10% oshgan bo'lsa, 2018-yilda 15%gacha oshganligini kuzatishimiz mumkin.




**1.2.4-rasm. Germaniyada ekoturistik sayyohlikning taqsimlanishi[60]**

Turistlardan safar maqsadlari 2000-yilda Germaniyada ekoturistik sayohatlarga bo'lgan talabning umumiy tasviri quyidagicha: Germaniya umumiy aholisi 82,2 mln.ni tashkil etib, mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 48,4 mln. (58,5%). Umumiy ekoturizm bozorining potentsiali (yovvoyi tabiat kuzatuvi, milliy bog'larga tashrif buyurish) 14,5mln.-(30%)ni tashkil etdi. (1.2.4-rasm). O'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, bugungi kunda ekoturizmda yetakchi mamlakatlarda ichki sayyohlikning tarkibida ekosayyohlar ulushi 1.2.1-diagramma mahlumotlarida aks ettirildi.

Bugungi kunda ekoturistlar soni ko'p bo'lgan mamlakatlar, Germaniya 22%, AQSHda 18% ni tashkil etadi. Ispaniya 17%, Buyuk Britaniya 17 %, Avstraliya, Braziliya 16% ni tashkil etgan. 1.2.1-diagramma mahlumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, ekoturizmda yetakchi bo'lgan davlatlarda o'z-o'zidan ekoturistlar soni ham

[60] https://ecotourismingermany.wordpress.com/

ko'pligi kuzatiladi. Ushbu hududlarga ekoturistlar tashrifi uchun hech qanday cheklovlar mavjud emas. Respublikamizda esa ba'zi ekohududlarga kirish ta'qiqlangan. Bu holatda qathiy tartib mezonlarga amal qilinishini nazoratga olgan xolda ekohududlarda ekoturizmni rivojlantirishni yo'lga qo'yish lozim.




**1.2.1-diagramma. Mamlakatlar bo'yicha ekoturistlar ulushi 2019** [61]

**Avstraliya** - bugungi kunda ekoturistlarni jalb etish bo'yicha ko'p-yillik tajribaga ega yetakchi davlatlardan biri hisoblanib, ayni vaqtda 20 ta shtatida deyarli turistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning 85% izi turizmning ushbu yo'nalishiga to'g'ri keladi. Tadqiqotlarimiz tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatga tashrif buyurgan ekosayyohlarning 30% izi aynan tabiat qo'ynidagi uy mehmonxonalarini xoxlashmoqda.[62]

[61] https://www.criteo.com/insights/green-travel-trends/

[62] L.Terzieva. Ecotourism best practice models general overview and characteristics The modul has been developed. NHTV Breda University of Applide Sciences, the Netherlands pp-18

**Malayziya** davlati ayni kunda turizm bo'yicha dunyo miqyosida 6 o'rinda turgan bo'lsa, ekoturizm bo'yicha esa yetakchi mamlakatlardan biri sifatida 2016-yil yakunlariga ko'ra eng ko'p ekosayyohlarni jalb etgan mamlakat bo'ldi.

Malayziyaning turizm sohasidagi strategik vazifalaridan biri bu-mamlakatda turizmni barqaror ravishda rivojlantirish hisoblanadi. Ushbu mamlakatning turizm soxasidagi siyosati xorijiy valyuta tushumlarini oshirish evaziga iktisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish, aholini ish bilan bandligini tahminlash imkoniyatlarini kengaytirish va iktisodiy-ijtimoiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga karatilgan. Shuningdek, mamlakat hukumati turizmdan kishlok hududlarini barkaror rivojlantirish vositasi sifatida foydalanishni kam ko'zlagan.

Malayziyada tarmoqni jadal rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri transport va infratuzilma, xizmat ko'rsatish soxalariga jiddiy ehtibor berishligidadir.[63] Mamlakatda ekosayyohlikning jadal rivojlanishiga sabab bo'layotgan omillardan biri Gunung Mulu National 'ark nomli milliy bog'i hisoblanadi. Ushbu bog' YuNESKOning butun jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgandir. Ushbu milliy bog'ning asosiy qismi o'rmonzorlardan iboratdir. U yuqori darajadagi bioxilma-xilligi va karst xususiyatga egaligi uchun ham mashhurdir. O'rganilgan g'orlar eng kamida 295 kmdan iborat.[64] Malayziya davlati ayni kunda rivojlanish darajasi barqaror tus olayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat poytaxtida ham katta yer maydoniga ega hududlarda yashil o'rmonlar saqlanib qolgan. Ushbu o'rmon hududida turli hayvonlar parvarishlanadi, maxalliy aholi do'stona munosabatda bo'ladi. Atrof-muhit va aholi salomatligi doimo davlat tomonidan nazoratda va dolzarb masalalar qatorida turadi. Ishlab chiqarishdagi

---

63 Yakubjonova H.,Boyto'rayev O, Malayzian experiens in developing ecotourism, Экономика и социум, электронное периодическое издание, №2(45)- 2018, стр-93.

64 Manba; 6 th world Ecotourism conference 2016, MULU, SARAWAC, MALAYSIYA.

zaharlanishlar, ekologiyani buzilish xolatlari shahar markazidan 200-300 km uzoqlikdagi hududlarga joylashgan.

Turizm soxasida yetakchi mamlakat Ispaniya davlatida 25-yil davomida turizm industriyasini iqtisodiyotga tahsiri o'rganib chiqilganda, 2015-yilda 1–marta dunyoning 184 ta mamlakatidan sayyohlar tashrif buyurdi. Ispaniya misolida taqqoslasak, (2000)-yilga nisbatan (2015) da 38% oshganligi kuzatiladi. 2018-yilgi jahon turizm industriyasi natijalarini tahlil etar ekanmiz, eng ko'p sayyohlarni jalb etib, birinchilikni qo'lga kiritgan mamlakat Ispaniyaga 75 mln. sayyoh tashrif buyurdi. 2017-yilgi natijalarga ko'ra sayyohlar oqimi 9,9 %ga ortgan. Sayyohlik tashkilotlari orqali davlat byudjetiga 77 mlrd. summa kirim bo'lgan, har bir sayyoh uchun 1000 yevrodan to'g'ri keladi. (3 mln.450 ming so'm bo'ladi). Ispaniyaning sayyohlik amaliyotiga nazar tashlar ekanmiz, ushbu mamlakatda Sayyohlik instituti faoliyat olib boradi. Ko'p-yillik tajribaga ega bo'lgan Ispaniya har 10-yillikda soxani rivojlantirish maqsadida istiqbolli rejalarni ishlab chiqadi.[65] Turizmga oid qonun-qoida va mehyorlar bevosita ular tomonidan ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi. Mamlakatda ko'proq salomatlik turizmiga katta ehtibor berilmoqdaki, byudjetga tushayotgan mablag'larning salmoqli qismi shu yo'nalishga to'g'ri keladi. Ispaniya iqtisodiyotining 11%ini turizm tashkil etadi. O'z o'rnida, mamlakatda ekoturizm ham jadal rivojlangan bo'lib, Ispaniya sayyohlik tashkiloti strategiyasiga ko'ra ekosayyohlarga amal qilishlari lozim bo'lgan qathiy 10 ta tartiblarni belgilab qo'ygan.[66]

Ushbu mexanizmni joriy etgan xolda respublikada ekoturizmni rivojlantirishda ekosayyohlar uchun quyidagi xulq normalarini ishlab chiqildi;

1. Mahalliy aholi madaniyatini hurmat qilish;
2. Tabiiy resurslardan oqilona, tejamkorona foydalanish;

---

[65] Travel tourism economic impact 2015 Spain, World Travel tourism counsil(WTTC). https://www.wttc.org/-/media/files/reports/economic-impact-research/regions-2019/world2019.pdf

[66] https://traveltips.usatoday.com/ecotourism-spain-18528.htm

3. Faqatgina mahalliy mahsulotlarni xarid qilish orqali mahalliy aholiga iqtisodiy yordam berish;

4. Atrof-muhitga chiqindi chiqarmaslik.

5. Tabiat, o'simliklar va yashil manzaraga zarar yetkazmaslik. Yuqoridagi ekoturizm rivojlangan mamlakatlar strategiyalarini o'ziga xos jihatlarini O'zbekiston amaliyotiga joriy etish soxa rivojida kutilgan natijani beradi. Afsuski, uzoq vaqt davomida O'zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishi tabiiy ravishda havaskorlik edi. So'nggi-yillarda sezilarli darajada turizmning ushbu turini shakllantirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Lekin xali ham uning statistikasi shakllantirilmagan.

Bugungi kunda esa hududlar kesimida ekoturistik hududlar aniqlanmoqda. Aholi ekoturizm haqida tushunchaga ega bo'lmoqda.

Shunday qilib, bizning fikrimizcha, shu kunga qadar dunyo olimlari, mamlakatimiz olimlari ekoturizmning iqtisodiy jihatlarini o'rganar ekan, ekoturizmni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari, uning jamiyatga ikki tomonlama, yahni iqtisodiy va ekologik ahamiyatini asoslab bera olishdi.

O'zbekiston Respublikasining tegishli hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini va xalqaro tajriba va amaliyotini inobatga olgan xolda ekologik turizmning istiqbolli yo'nalishlari, uni yanada rivojlantirishning optimal mexanizmlarini ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

## 1.3-§. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Mustaqillik-yillarida 1-Prezident I.Karimov tashabbusi bilan boshlangan va hozirda ham amalga oshirilib kelinayotgan tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi uchun qulay yashash muhitini yaratishga qaratilgan oqilona siyosat yuritilishi natijasida, kamyob o'simlik va hayvonot turlari ko'paytirilib, bioxilma-xillikni tahminlashga erishilmoqda. Bunda

sohaning tashkiliy-huquqiy asosi yaratilgani, xalqaro hujjatlar talablari izchil ijro etilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillikning o'tgan davri mobaynida O'zbekiston ekologik siyosatni belgilab beruvchi ushbu sohadagi 40 dan ortiq konventsiya va xalqaro shartnomalarga qo'shildi. O'zbekiston Respublikasining ekologik xavfsizligini ta'minlash strategiyasi shaxsning, jamiyat va davlatning va Konstitutsiyasida belgilab berilgan ekologiya soxasidagi hayotiy muhim manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ya'ni;

- aholi salomatligini muhofaza qilish uchun eng zarur ekologik shart-sharoitlarni yaratish;
- ekologik vaziyatni barqarorlashtirish,
- avlodlarning jismonan rivojlanishiga erishish;
- mintaqalarda barqaror rivojlanish va barqaror ekologik vaziyat,
- sog'lom turmush tarzini shakllantirish;
- mamlakatning ekologik siyosatini amalga oshirishda jamiyatning barcha kuchlarini safarbar etish kabi masalalarni xal etishdan iboratdir.[67]

Ekologik xavfsizlikni tahminlashda xalqaro ekologik hamkorlik umumbashariy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida so'nggi yuz-yildan ko'proq vaqtdan beri shakllanib, takomillashib bormoqda. Uning eng dastlabki ko'rinishlari 19-asr oxirlaridan boshlab hayvonot va qushlardan foydalanishni tartibga solishga qaratilgan davlatlararo harakat tarzida namoyon bo'la boshlagandi.

O'zbekiston Respublikasi 1995-yildan boshlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsiyasiga qo'shildi va quyidagi majburiyatlarni olgan:

a) biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishning yoki mavjud rejalar va dasturlarga

[67] O'zbekiston ekologik partiyasi dasturi, T: 2019-yil, O'zbekiston Ekologik partiyasining 2019-yil 8 yanvardagi I S'ezdi qarori bilan tasdiqlangan. 5-b.

moslashtirishning milliy strategiyalari, rejalari va dasturlarini ishlab chiqish;

b) biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish uchun uning muhim ahamiyatga ega bo'lgan qismlarini belgilash;

v) biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini tahminlash maqsadida mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish; [68]

O'zbekiston Respublikasining 1992-yilda Rio-de-Janeyroda 82-I-son qarorini ijro etish yuzasidan imzolangan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi Konventsiyaga qo'shilishi, shuningdek biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni tahminlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi surhatlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash Ctrategiyasi tasdiqlandi, ushbu Strategiyaga muvofiq,

Strategiyani amalga oshirish 2 bosqichni nazarda tutadi;

I-bosqich (2019-2023-yillar) – qonunchilik bazasini takomillashtirish;

II-bosqich (2024-2028-yillar)-maqsadli ko'rsatkichlarga va kutilayotgan natijalarga erishish.

Biologik xilma-xillikni saqlash maqsadida hududlarda uyushtirilgan ekologik turizmni tashkil etish tadbirlarini amalga oshirish zarur. Ushbu xolatda, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va soxa mutaxassislarini tayyorlash masalasi ham muhim hisoblanadi.

---

[68] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019—2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi" to'g'risidagi qarori 2019-yil 11 iyunьdagi 484-sonli Qarori.

Respublikaning ayrim tabiiy hududlari turistlarni qabul qilish uchun eng uyushtirilgan va munosib joylar hisoblanadi, chunki ushbu hududlarda belgilangan maydon va chegaralar, turistlar tashrif buyurishi uchun ajratilgan uchastkalar, keluvchilar bilan maxalliy aholining ishlash ko'nikmasi va tajribasi mavjud, ayrimlarida esa-hududlar mavjud lekin infratuzilmalar talabga javob bermaydi, ushbu xolatlarda dastlabki hech bo'lmaganda 1 (bir kechalik) infratuzilma imkoniyatlarini yaratib berish zarur bo'ladi. Bu esa kam mablag' sarf etishligi bilan ahamiyatlidir.

Strategiya milliy va mahalliy darajalarda atrof-muhit muhofazasi bo'yicha harakatlar rejalarini, fundamental va amaliy tadqiqotlarni, atrof-tabiiy muhit monitoringiga, biologik xilma-xillikka to'g'ridan-to'g'ri yuklamalarni qisqartirishga, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirishga, ekotizimlar xizmatlarini hisobga olgan holda biologik xilma-xillikni saqlab qolish va undan foydalanish samaradorligini oshirishga va iqlim o'zgarishiga moslashishga, o'rmon xo'jaligini rivojlantirishga, suv resurslarini muhofaza qilishga tegishli tarmoqni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish uchun huquqiy asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi belgilangan vazifalarning ijrosi barchasi bevosita ekologiya va ekoturizmga taalluqlidir.

Biroq qonun hujjatlariga muvofiq ekoturizmni, shu jumladan, rekreatsion faoliyatni amalga oshirish uchun davlat qo'riqxonalariga, tabiiy bog'larning qo'riqxona zonalariga va biosfera rezervatlariga kirish tahqiqlangan. Bu xolat esa, hududlarda ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi muhim to'siqlardan biri hisoblanadi. Ayni paytda O'zbekiston bir qancha nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo va xalqaro darajada aloqalarni tartibga soluvchi konventsiya va kelishuv sharnomalarini imzoladi. (1.3.1-chizma.) yuklatilgan vazifalarni bajarish yuzasidan samarali natijalarga erishdi.

| Konventsiyani qabul qilingan-yili | Konventsiya nomi | O'zbekistonning a'zo bo'lgan-yili |
|---|---|---|
| 1985-yil Vena | Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha | 1993-yil 18 may |
| 1992-yil Rio-de-Janeyro | Iqlim o'zgarishi bo'yicha | 1993-yil 20 iyun |
| 1992-yil Rio-de-Janeyro | Bioxilma-xillik to'g'risida | 1995-yil 6 may |
| 1994-yil Parij | Cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha | 1995-yil 31 avgust |
| 1972-yil YuNESKO | Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarni muhofaza qilish to'g'risida | 1995-yil |
| 1979-yil Bonn | Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish bo'yicha | 1998-yil 1 may |
| 1971-yil Ramsar | Asosan suvda suzuvchi qushlar yashash joylari sifatida xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan suv-botqoq joylari to'g'risida | 2001-yil 30 avgust |
| 1992-yil Xelsinki | Afrika-Evroosiyoning ko'chib yuruvchi suv-botqoq qushlarini muhofazasi bo'yicha | 2007-yil 9 avgust |

**1.3.1-chizma. O'zbekistonning ekologik sohalardagi muhim xalqaro Konventsiyalarga ahzoligi tasnifi**[69]

Shuningdek, "...mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy - madaniy - tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini-ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal

[69] Turli rasmiy manbalarni o'rganish asosida tadqiqotchi ishlanmasi.

rivojlantirish..." [70] borasida davlat dasturlari asosida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda.

Shunisi, e'tiborga molikki, ayni kunda O'zbekiston atrof-muhitni muhofaza etish, ekologik barqarorlikni saqlashga alohida e'tibor qarayotgan mamlakatlar safidan joy oldi. Shuningdek, bugungi kunda Turizm qonunchiligidan tashqari turizmning ekologik yo'nalishiga boshqa bir qator qonunlar bilan ham tartibga solinayotganligini ham ta'kidlash lozim. (1.3.1-jadvalga qarang).

**1.3.1- jadval**

**O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish va ekoturizmni rivojlantirishni boshqarishga ko'maklashuvchi chiqarilgan qonunlari[71]**

| № | Qonunlar | Qabul qilingan-yili va sanasi |
|---|---|---|
| 1. | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | 08.12.1992 |
| 2. | Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida | 09. 12.1992 y. |
| 3. | Suv va suvdan foydalanish to'g'risida | 06.05.1993 y. |
| 4. | Er osti boyliklari to'g'risida | 23.09.1994 y. (yangi tahr. 13.12.2002 y.) |
| 5. | Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida | 27.12.1996 y. |
| 6. | O'simlik dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida | 26.12.1997 y. |
| 7. | Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida | 26.12.1997 y. |
| 8. | O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi | 30.04.1998 y. |
| 9. | O'rmon to'g'risida | 15.04.1999 y. |
| 10. | Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida | 20.09.1999 y. |

[70] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni, «Xalq so'zi», 08. 02. 2017. № 28 (6722).

[71] Muallif tomonidan tuzilgan.

| | | |
|---|---|---|
| 11. | Ekologik ekspertiza to'g'risida | 25.05.2000 y. |
| 12. | CHiqindilar to'g'risida | 05.04.2002 y. |
| 13. | Er osti boyliklari to'g'risida | (yangi tahr. 13.12.2002 y.) |
| 14. | Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida | 03.12.2004 y. |
| 15. | Turizm to'g'risida | (yangi taxr. 18.07.2019 y) |

Er, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.[72] Darhaqiqat, shu nuqtai nazardan, kishilarda ekologik madaniyat mezonlarini singdirish, atrofimizdagi tabiat ne'matlarini avaylash to'g'risidagi ko'nikmalarni keng yoyish va tashviq etish ayni kunda muhim zaruriyatdir.

Yuqoridagi qonunlarni o'rganish tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu hujjatlarning har biri atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birgalikda ekoturizmni rivojlantirishga bevosita ko'mak beradi.

1992-yili O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni qabul qilinib, unga ko'ra tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi. Qonunning maqsadi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obhektlar muhofaza qilinishini tahminlashdan, fuqarolarga qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatladi.[73]

Mamlakatimizda ekologiya sohasiga 2017-yilda yanada ehtibor kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 21 aprelda imzolangan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi" "Ekologiya va atrof-muhitni

[72] O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992-yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 3-bo'lim, XII-bob, 55-modda. 18-bet.
[73] Lex.uz/pages/ getpage.aspx? lact_id=7065

muhofaza qilish davlat qo'mitasi" etib qayta tashkil etildi. Ushbu Farmonda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga quyidagi vazifalar yuklandi: ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish; maishiy chiqindilarni to'plash, tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va ko'mish ishlarining samarali tizimini tashkil etish; atrof-muhitning ekologik holati maqbul tarzda saqlanishini, ekologiya tizimlari, tabiiy komplekslar va alohida obhektlarni qo'riqlashni, ekologik vaziyat sog'lomlashtirilishini tahminlash; yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya qilish borasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish; ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o'simliklar ko'paytiriladigan va saqlanadigan pitomniklar, zoologiya va botanika kollektsiyalarining davlat hisobini yuritish; ekologik tarbiya, targ'ibot va mahrifiy ishlarni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.[74] Yuqoridagi vazifalarning barchasi bevosita ekoturizm oldidagi maqsad va tamoyillariga bog'liqdir.

Mamlakatda turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishning muhim sharti bu uning barqaror faoliyati uchun zarur mehyoriy-huquqiy bazani shakllantirishdir.

Mustaqillik-yillarida O'zbekistonda sayyohlik sohasini har tomonlama huquqiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mustahkam huquqiy baza yaratildi. Turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsad va tamoyillari bayon qilindi. Bu yo'nalishda eng birinchi qadam 1992-yilda "O'zbekturizm" milliy kompaniyasining tashkil

---

[74] www.uza.uz

etilishi bo'lib, unga turizmni rivojlantirishning milliy modelini shakllantirish vazifasi yuklatilgan edi. Turizm sohasidagi xalqaro huquq nuqtai nazaridan O'zbekistonning 1993-yilda BMT Jahon sayyohlik tashkilotiga (YuNVTO) kirishi juda muhim voqea bo'ldi. Bundan tashqari, respublika bir necha-yildan beri ushbu tashkilot Ijroiya Kengashining ahzosi hisoblanadi.

Sohani rivojlantirish yuzasidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ichida ayniqsa, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining hujjatlari alohida o'rin tutadi. Shuningdek,"O'zbekiston Respublikasiga sayyohlarning kirib kelishi va chiqishi tartibi to'g'risida"gi qo'shma nizom tasdiqlandi. Xususan, qabul qilingan hujjatga muvofiq, turizm tashkilotlari mulkchilik shaklidan qathi nazar, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasiga belgilangan shaklda, ular kelgan kundan 5 kun oldin, "Chet ellik sayyohlar to'g'risida"gi sertifikatni taqdim etadi. Ushbu Nizom talablariga muvofiq turistlar bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olish, xavfsizligini tahminlash maqsadida turistlarni qabul qiluvchi turistik tashkilotlar quyidagi tadbirlarni amalga oshiradilar:

-chet ellik sayyohlarni aeroportda, vokzalda va boshqa kirish joylarida, sertifikatda ko'rsatilgan mehmonxonada kutib olish va tegishli tartibda ro'yxatdan o'tkazish;

- sayyohlarni safar oxirigacha barcha yo'nalishlarda kuzatib borish;

- belgilangan muddatda turistlarning respublika hududida bo'lishini va muddat tugaganidan keyin o'z vaqtida respublikadan chiqib ketishlarini tahminlaydi;

- xavf tug'diradigan joylarga chet ellik sayyohlar yetib bormaslaridan oldin Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli bo'limlaridan tegishli mahlumotlarni olish;

-O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining tegishli hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda mahlum xavfsiz marshrutlar bo'ylab yurishni tahminlaydi;

-turistlarga rejalashtirilgan marshrutning xususiyatlari va turistlarning harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xavf manbalari to'g'risida xabardor qilish, shuningdek ularning xavfsizligini tahminlash;

- zarur bo'lganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chet ellik sayyohlar to'g'risida mahlumotlar taqdim etadi;

- tegishli davlat organlariga chet ellik sayyohlarning chegara hududini kesib o'tishda belgilangan tartibni bajarishini tahminlashda yordam berish va boshqalar[75].

1999-yilda turizm sohasini rivojlantirishdagi asosiy hujjat - "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Yuqoridagi ishlab chiqilgan Qonunning asosiy vazifasi soxaning xuquqiy jarayonlarini boshqarish, O'zbekiston sayyohlik sanoati bozorini jadallashtirish, shuningdek, sayyohlar va turistik soxa yo'nalishi ishtirokchilarining qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. SHuningdek, qonunchilik darajasida mahalliy davlat hokimiyatining turizm sohasidagi vakolatlari aniqlangan. "Turizm to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yettinchi moddasiga muvofiq: Turizm sohasidagi mahalliy davlat hokimiyati organlari turizmni rivojlantirishning mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladilar.

Shu o'rinda tahkidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida fuqarolar tabiiy atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.[76] Bundan kelib chiqadiki, atrof-muhitga nafaqat mashul shaxslar, balki har bir respublikada istiqomat qilayotgan fuqarolar mashuldirlar.

O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros obhektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunida belgilanganidek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o'z vakolatlari

---

[75] O'zbekiston Respublikasiga sayyohlarning kirish va chiqish tartibi to'g'risida" gi nizom. NK (O'zbekturizm ) Turizm va sport vazirligining 13.09.2004-yildagi №-23, MXXning 29.10.2004-yildagi № - 9 / 1005, Ichki ishlar vazirligining 27.09.2004-yildagi №- 7, Favqulodda vaziyatlar vazirligining 15.09.2004-yildagi №- - 1/5/4-622, ro'yhatdan o'tgan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi 03.11.2004 № -1421 qo'shma qarori.

[76] O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2- bo'lim, 50- modda.

doirasida o'z hududlarida joylashgan madaniy meros obhektlarini aniqlash va hisobga olish, himoya qilish, saqlash va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qiladilar. Madaniy meros obhektlaridan foydalanish, ular fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini ularni muhofaza qilish, saqlash, ommalashtirish tadbirlarini amalga oshirishga jalb qiladi.

"O'zbekturizm" Milliy Kompaniyasining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2004-yilda "O'zbekturizm" MK byudjetdan tashqari Turizmni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etdi, uning manbai turistik kompaniyalar va mehmonxonalar tomonidan turistlarga xizmat ko'rsatadigan soliq to'lovlaridan kelib chiqqan holda to'ldiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekistonda turizmning yanada rivojlanishiga yordam berdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2 dekabrdagi 4861-sonli Farmonida, "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni tahminlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasidagi davlat siyosatining yangi vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Ular orasida: turizmni strategik tarmoq maqomini beradigan turistik rivojlanishning yaxlit kontseptsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, iqtisodiyotda ushbu sohani barqaror rivojlantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishning kuchli vositasiga aylantirish;[77]

-turizm sohasi subhektlari faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan sohasidagi qonunchilik bazani yanada takomillashtirish;

---

[77] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4861-sonli Farmoni, Toshkent shahri, 2016-yil 2 dekabrь. // www.lex.uz.

-turizmni rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, viza va ro'yxatdan o'tish tartibini soddalashtirish, bojxona va pasport nazorati, davlat va bozor mexanizmlarini optimallashtirish turizm sohasini tartibga solish;

-turizm sohasida tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va raqobatni rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish turistik xizmatlar bozoridagi voqealar, turizmning statistik tizimini takomillashtirish;

-turizm soxasini rivojlantirishga va ulkan sayyohlik salohiyatidan samarali foydalanishga yo'naltirilgan ichki va tashqi turizmni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha milliy va mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Ushbu Farmonga binoan, tugatilgan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi bazasida O'zbekiston Respublikasining Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi. Shuningdek, Farmonda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- an'anaviy-madaniy va tarixiy turizm bilan bir qatorda boshqa turistik turlar-ziyorat, ekologik, tahlim, biznes, sanoat, qishloq, sog'lomlashtirish, sport, gastronomik, etnografik va boshqa turizm turlarini jadal rivojlantirish;

- soxaning xalqaro standartlariga, turistlarning ehtiyoj va talablariga javob beradigan turistik sanoat ob'ektlarini respublikaning barcha hududlarida jadal rivojlantirish - mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joy binolari, ovqatlanish joylari, transport va madaniyat va sport muassasalari, axborot markazlari, logistika tuzilmalari yo'lni qurish va rekonstruktsiya qilish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi, asosiy sayyohlik yo'nalishlari bo'ylab yo'l bo'yidagi infratuzilma, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni keng jalb qilish va boshqalar[78].

---

[78] Т.В.Ким., Настоящее и будущее: перспективы развития туристского потенциала Узбекистана, Научно –аналитический журнал наука и практика Российского экономического университета им. Г.В.Плеханова. 2018. №.3, 104-112 стр.

2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, turizm industriyasi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

-turizm industriyasini jadal rivojlantirish;

-uning iqtisodiyotdagi roli va hissasini oshirish;

-diversifikatsiya va sifatni yaxshilash turistik xizmatlar;

-turistik infratuzilmani kengaytirish.

Xususan, turizm sohasiga kelsak, 2017-yil 1 yanvardan boshlab: Turistik faoliyatni amalga oshirish huquqini litsenziyalash faqat turistik faoliyatni tashkil etuvchi turistik kompaniyalar-turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, ekskursiya tashkilotlari, sayyohlik agentliklari tomonidan amalga oshiriladi; [79] turistik faoliyatni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani olgandan so'ng, litsenziyalashning majburiy sharti diqqatga sazovor joylar, turistlarning mol-mulki, sog'lig'i va hayoti xavfsizligini tahminlash tizimining mavjudligi; turizm faoliyati bilan bog'liq subhektlar tomonidan ko'rsatiladigan turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi kerak, mehmonxonalar, motellar, lagerlar va shunga o'xshash turar joy binolari, turistik xizmatlarni ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lish to'g'risidagi talab bekor qilindi, bundan tashqari, 2018-yil 1 yanvardan boshlab: xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish va avtotransport korxonalari uchun majburiy sertifikatlash joriy etildi; SHu bilan birga, O'zbekiston turizm sohasi oldida turgan yangi muammolarni hisobga olgan holda, 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori bilan byudjetdan tashqari mablag'larni qo'llab-

---

[79] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 189-sonli Qaroriga ilova "Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizom. 2017-yil, 6 aprel.

quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi yangi nizom tasdiqlandi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar dasturida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan;

-turizm sohasidagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;

-turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish va yangi turistik yo'nalishlarni yaratish, turistlarni jalb qilish uchun rag'batlantirish va imtiyozlar berish;

-logistika, transport va yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish;

-turar joy va boshqa turistik infratuzilma obhektlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Shuningdek milliy turistik mahsulotni jahon bozorlariga faol va kompleks ravishda ilgari surish istiqboli "2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish uchun navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" 2017-yil 16 avgustda 3217- sonli qaror qabul qilindi.

Turizm sohasidagi mehyoriy-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida, 2018-yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 5326-son qarori qabul qilindi. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5326 son Farmoyishi ijrosini tahminlash, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tahminlash maqsadida[80] mamlakatimizda ko'pgina islohotlar amalga oshirilmoqdaki, mamlakatimizda ichki turizmga yaratilayotgan imkoniyatlar, tashqi turizm uchun qulay imkoniyatlar yaratilganligini belgilab beradi.

[80] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", Namangan haqiqati, 2018-yil 19 fevralь №12 (19424).

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining samaradorligini oshirish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ichki turizmni rivojlantirishdagi rolini kuchaytirish maqsadida 2019-yil 5 yanvarda "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi" tasdiqlandi. Ushbu kontseptsiya turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirishga va turistik xizmatlarning sifatini oshirish, turistik infratuzilmani takomillashtirish orqali turizm maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, samarali reklama va marketing ishlarini olib borishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. 2019-yil 5 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4095-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, xalqaro talablar va standartlarga javob beradigan turistlar uchun mehmonxonalar va tegishli infratuzilmaning soni va sifatining jadal o'sishi uchun ko'plab imtiyoz va imkoniyatlarni taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6 aprelda "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6199-sonli farmoni bilan Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi tuzilmasida Bosh vazir o'rinbosari – Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisi hamda Jismoniy tarbiya va sport vaziri lavozimlari tugatildi.

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, ushbu farmonda Turizm va sport vazirligining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

xususan turizm sohasida:

turizm obhektlarini davlat-xususiy sheriklik asosida samarali boshqarish hamda mazkur sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

mamlakatning turizm salohiyatini tubdan oshirishga, turizm sohasida yagona davlat siyosati yuritilishiga yo'naltirilgan turizmni rivojlantirishning yaxlit kontseptsiyasini shakllantirish va amalga oshirish;

turizm xizmatlarining tashqi va ichki bozorlarida marketing tadqiqotlari olib borishga, tarixiy-madaniy merosni keng targ'ib qilishga, mamlakatimizning turizm qiyofasini saqlab qolish va rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotlari va brendlarining xalqaro turizm bozorlariga kirib borishiga yo'naltirilgan faol reklama-axborot siyosatini amalga oshirish;

ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlari ishlab chiqilishini muvofiqlashtirish, xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan turizm infratuzilmasini rivojlantirishga investitsiyalarni, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va boshqa tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish;

turizm turlarini diversifikatsiyalash, eng avvalo, ziyorat turizmi, ekologik turizm, etnoturizm, ishbilarmonlik turizmi, sport, gastronomik, tibbiy, tahlim va ilmiy turizmni hamda ularning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

turizm sohasida xizmatlarni litsenziyalash va sertifikatlashtirish hamda turizm xizmatlarining belgilangan talablar va standartlarga muvofiqligi bo'yicha inspektsiya nazoratini amalga oshirish;

turizm xizmatlarini tashkil etishda turistlarning xavfsizligi va sog'lig'ini tahminlashga yo'naltirilgan turizm xizmatlarini ko'rsatish sifati va xavfsizligi standartlarini ishlab chiqish;

turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, turizm sohasida tadbirkorlik faolligi oshishiga har tomonlama

ko'maklashish, ushbu sohaga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish;

turizm obhektlarini joylashtirish uchun salohiyatli hududlarda rejalashtirish va loyihalashtirish ishlarini tashkil etish, ularga investorlarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

turizm faoliyati sohasida turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standartlar hamda normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy eti shva boshqalar.[81]

Yuqorida berilayotgan imkoniyatlar va imtiyozlar o'zining samarali natijasini bermoqda.

Umuman olganda, turizm (ekoturizm) sohasining mehyoriy-huquqiy qonunchilik asoslarini yaratish va samarali faoliyat yuritishi natijasida kutilayotgan istiqbol - bu hududlarni rivojlantirish uchun tayanch nuqtaga aylanadigan O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekoturizm bozorida o'z o'rniga ega barqaror turistik kompleksini yaratishdir.

## Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishining I bobi yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Ekoturizm atrof-muhitga yumshoq munosabat va atrof-muhitda turistik xulq-atvorning umumiy madaniy normalariga rioya qilish tamoyiliga muvofiq tashkil etilgan turizmning mahlum turi hisoblanadi.

2.Ilmiy tahlillarimiz shuni ko'rsatib bermoqdaki, ekoturizmning asosiy tamoyillari quyidagilardir;

- tabiatda haqiqiy qiziqish uyg'otishi kerak;

---

[81] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6199-sonli Farmoni, Toshkent sh., 2021-yil 6 aprelь. // www.lex.uz.

- muhofaza qilishga hissa qo'shishi kerak;

- mahalliy madaniyatni hurmat qilishi va himoya qilishi kerak;

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy mezoni bo'lishi kerak;

- mahalliy aholiga imtiyozlar, iqtisodiy ko'mak berishi kerak;

- tabiatni muhofaza etishi kerak.

3. Bizning fikrimizcha, mintaqaviy ekoturizm bu- tabiiy landshaftni saqlash maqsadi ustuvor bo'lgan, mahalliy aholining, hududning sayyohlik taraqqiyotidagi manfaatlari ustuvorligini ehtirof etuvchi, mahalliy o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qiluvchi, mahalliy aholini atrof-muhitni muhofaza qilish uchun iqtisodiy rag'batlantiruvchi sayyohlik turidir.

4. Turizmning ekoturizm yo'nalishi bugungi kunda daromad olish maqsadida turizm sohasini rivojlantirishning yangi yo'nalishi emas, balki respublikada global iqlim o'zgarishlari ro'y berayotgan bir paytda hayotiy zaruriyatga aylanayotgan ekologik barqarorlikni tahminlovchi turistik yo'nalishdir.

5. Iqtisodiyotda o'ta sanoatlashishning atrof-muhitga salbiy tahsirini doimiy nazorat qilish maqsadida, ekologik sertifikatlash, samarali ekologik tadqiqotlar ustida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish orqali mamlakatda ekoturizmni rivojlantirish lozim.

6. Ekoturizmda yetakchi mamlakatlar tajribasidan mahlum bo'ladiki, ekoturizmni rivojlantirishda uning maqsadi va yo'nalishlarini to'g'ri, aniq tahlil qilish orqali muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va milliy bog'lar ekoturizm rivojida muhim o'rin tutadi.

7. Respublikaning ayrim muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari turistlarni qabul qilish uchun eng uyushtirilgan va munosib joylar hisoblanadi, chunki ushbu hududlarda belgilangan maydon va chegaralar, turistlar tashrif buyurishi uchun ajratilgan uchastkalar, keluvchilar bilan ishlash tajribasi mavjud, ayrimlarida esa— hududlar mavjud lekin infratuzilmalar talabga javob bermaydi, ushbu xolatlarda dastlabki hech bo'lmaganda, ekosayyohlarga 1 (bir

kechalik) infratuzilma imkoniyatlarini yaratib berish zarur. Bu esa kam mablag' sarf etishligi bilan ahamiyatlidir.

8. O'zbekiston ekologiya soxasidagi muhim xalqaro hujjatlarga qo'shilishi natijasida yuklatilgan majburiyatlarni bajarish bo'yicha sezilarli o'sishga erishdi. Mamlakatlararo o'zaro biologik xilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslarni muhofaza etish va foydalanish ekoturizmni rivojlantirish masalalarida muhim rolg' o'ynaydi.

9. Umuman olganda, tabiatga mashuliyatli bo'lgan turizmning o'sish surhatlari bugungi kunda ekoturizm rivojlangan mamlakatlarda umumiy turizm o'sish tendentsiyasidan bir necha barobar yuqori bo'lib, shunday xulosaga kelish mumkinki, turizmning ushbu yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha mamlakatimizda tabiiy resurs jihatidan imkoniyatlar yetarli, bu esa mamlakatimiz uchun turizmning ushbu shakli istiqbolli yo'nalish ekanligini izohlaydi. Turizm tushunchasi evolyutsiyasini tahlil qilish ekologik turizmni o'rganishning metodologik asoslari ostida tabiiy omillar tahsirida dam olishga bo'lgan talabning ortib borishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning turistik faoliyat modellarini shakllanishini yuzaga keltirdi. Bu esa asta-sekin ommaviy turizm modelini barqaror turizm modeliga aylantirish lozimligini ko'rsatib bermoqda.

# II BOB. FARG'ONA VODIYSINING EKOTURISTIK SALOHIYATI VA UNDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI

## 2.1-§. Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyatini hozirgi xolati

Farg'ona vodiysi o'ziga xos turistik salohiyatiga ega, unda jami 3 tabiat yodgorliklari, respublikadagi 7400 ta umumiy madaniy meros obhektlarining 13.9%, ya'ni 1025 ta, Farg'onada 371 ta, Namanganda 282 ta, Andijonda 422 ta madaniy meros obhektlari mavjuddir. Ulardan Farg'ona viloyati Qo'qon xonligi tarixiy obidalari, Andijon viloyati Bog'ishamol dam olish maskanida joylashgan Z.M.Bobur muzeyi, Namangan viloyatining "Axsikent yodgorliklari"ni keltirish o'rinli. Ushbu mintaqa turizmni xususan, ekoturizmni rivojlantirish uchun yuqori potentsiallar mavjud bo'lgan hudud hisoblanadi.

Ekoturizm yangi tushuncha bo'lib, turizm industriyasining alohida yo'nalishi bo'lganligi sababli, mintaqada uning xolatini tahlil qilish bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu esa avvalo, hududning umumiy turistik xolati tahlilini o'rganishni taqozo etadi.

Prezident Sh.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasining "Turizm sohasini jadal rivojlantirishni tahminlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida tahkidlaganidek, «...respublikaning barcha mintaqalarida zamonaviy jahon standartlariga, turistlarning ehtiyojlari va talablariga javob beradigan turizm industriyasi obhektlarini–mehmonxonalarni va joylashtirishning shu kabi vositalarini, umumiy ovqatlanish obhektlarini, transport-logistika tuzilmalarini, axborot markazlarini, madaniyat va sport muassasalarini jadal rivojlantirish, asosiy turizm yo'nalishlari bo'yicha yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini, yo'l-bo'yi infratuzilmasini jadal qurish va rekonstruktsiya qilish, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investorlarni

keng jalb etish;[82] kabi masalalarning qo'yilganligi respublikaning barcha viloyatlarida turizm sanoatini jadal rivojlantirishda muhim masalalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tahkidlash joizki, Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar hamda marketing tadqiqotlari nisbatan past darajada tashkil etilgan. Qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchlarining mavjudligi - Farg'ona vodiysiga qarashli viloyatlar oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Tarmoqda bir qator muammolar mavjudki, rekreatsiya va turizm bilan shug'ullanuvchi korxonalar va firmalarning sayyohlarga xizmat ko'rsatish jahon andozalari talablari darajasiga javob bermasligi, bu sohada malakali kadrlar yetishmasligi, sayyohlarning ko'ngildagidek dam olish va tomosha qilishini cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari xizmat ko'rsatish sohasida turistik ob'ekt sifatida endi kashf etilayotgan yangi mintaqa hisoblanadi.[83] Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ekoturistik hududlar soni jihatidan ham mahalliy ekoturistlarni jalb etish nuqtai nazaridan ham hududda Namangan va Farg'ona viloyatlari yetakchilik qilmoqda.

Bugungi kundagi respublikadagi amalga oshirilayotgan jadal iqtisodiy islohotlar davrida mintaqalarni barqaror rivojlantirishda turizmni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Lekin bu yo'nalishda bir qator muammolarni chuqur tahlil etib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, mintaqalarning turlicha rivojlanishiga tahsir etuvchi omillar; demografik, geografik, tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish va resurslar salohiyati hisoblanar ekan, mintaqalar o'rtasida hududiy mehnat taqsimoti bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan biridir.

---

[82] O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-4861-sonli Farmoni, Toshkent shahri, 2016-yil 2 dekabr.

[83] Якубжонова Х., Анализ зарубежного опыта в развитии экотуризма; на примере Ферганского экономического района // Региональная экономика: теория и практика. - М.: 2019. - №8 (17).1593-1606.c.)

Shu o'rinda, har bir viloyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Shuning uchun har bir mintaqa faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa hududlar bilan mahsulot ayirboshlaydi. Turistik ahamiyatga ega bo'lgan va hududlarning jozibadorligini belgilaydigan muhim omillardan biri- mintaqalar ekzotik tabiatining rang-barangligi, landshaftlari, hayvonot va o'simlik dunyosining boyligi hisoblanadi. Mamlakatni mintaqalar jihatidan olib qaraganimizda bunga Janubiy O'zbekistonning tog'lari, Qizilkum landshaftlari, Tyang'-Shang' va Pamir-Oloyning tog'li hududlari, boy ornitofaunaga ega bo'lgan tabiiy suv havzalari kiradi. Chotqol, Zomin, Nurota, Xisor, Boday-To'qay qo'riqxonalari, Ugom-Chotqol milliy parki va «Jayron» markazlari ham katta ekoturistik salohiyatga ega. Shu qatorda, Farg'ona vodiysi hududlaridan Farg'ona viloyati Vodil qishlog'idagi Shoximardon, Andijon viloyati Bog'ishamol dam olish maskanlarini, Namangan viloyati, Pop tumani Chodak qishlog'i, Yangiqo'rg'on tumani Nanay qishlog'i kabi maskanlarni keltirish o'rinlidir.

Keyingi-yillarda hududda turizm sanoatini yuksaltirish yuzasidan katta hajmda investitsiya loyihalari jalb etildi, xususan Andijon shahrida ko'ngilochar-istirohat bog'larning barpo etilishi, Namangan shahrida umumiy qiymati 171 million AQSH dollarini tashkil etgan "Afsonalar vodiysi" dam olish parki, "Angren-Pop" temir yo'li ochilishi, Farg'ona viloyatida Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Buxoro shaharlariga tezyurar poezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo'llari ochilishi soxa rivojida muhim o'rin tutmoqda. Farg'ona vodiysining turistik imkoniyatlari bugungi kunda tarkibidagi viloyatlardagi har bir mag'muriy birlik hisoblangan tumanlarni turistik obg'ektlari va ularning turlarini quyida 2.1.1-jadvalda aks ettirildi;

**Andijon viloyati** Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan mazkur viloyat shimoliy-sharqdan va janubdan

Qirg'iziston Respublikasi bilan, g'arbdan Farg'ona viloyati va shimoliy-g'arbdan Namangan viloyati bilan chegaradosh. Andijon viloyati O'zbekistonning boshqa viloyatlariga nisbatan suv resurslariga boyligi, yahni daryolardan, tog'lardan ko'p-yillik qor va muzliklardan suv olib turishi bilan ajralib turadi.[84]

**2.1.1- jadval**

**Andijon viloyatidagi turistik ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar[85]**

| № | Tumanlar nomi | Tarixiy | Diniy | Agroturizm | Ekoturizm | Etnografik | MICE turizmi | Shop turizmi | Hunarmandchilik turizm | Tog' turizmi | Gastronomik | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Andijon shahar | 4 | 12 | - | - | - | 7 | - | - | - | 3 | 26 |
| 2. | Xonobod shahri | - | - | - | 2 | 1 | 1 | - | - | - | 3 | 7 |
| 3. | Andijon tumani | 5 | 5 | - | - | - | - | - | - | - | 1 | 11 |
| 4. | Asaka tumani | 13 | 6 | 2 | - | - | 1 | - | - | - | 1 | 21 |
| 5. | Baliqchi tumani | 6 | 7 | - | - | - | 1 | - | - | - | - | 14 |
| 6. | Bo'ston tumani | 4 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 4 |
| 7. | Buloqboshi tumani | 30 | 4 | 1 | 1 | - | 2 | - | - | - | 1 | 39 |
| 8. | Izboskan tumani | 21 | 6 | 1 | - | - | 1 | - | - | - | - | 29 |
| 9. | Jalolquduq tumani | 23 | 5 | - | - | - | 1 | - | - | - | - | 29 |
| 10. | Marhamat tumani | 43 | 16 | - | 1 | 1 | 1 | - | - | - | - | 62 |
| 11. | Oltinko'l tumani | 5 | 1 | 1 | - | - | 1 | - | - | - | - | 8 |
| 12. | Paxtaobod tumani | 8 | 4 | - | - | - | 1 | - | - | - | - | 13 |
| 13. | Qo'rg'ontepa tumani | 35 | 3 | - | - | - | - | - | - | - | 1 | 39 |
| 14. | Shahrixon tumani | 14 | 6 | - | 1 | - | - | - | - | - | - | 21 |
| 15. | Ulug'nor tumani | - | 4 | - | - | - | 1 | - | - | - | - | 5 |
| 16. | Xo'jaobod tumani | 10 | 4 | 1 | 2 | - | 1 | - | - | - | 1 | 19 |
| | Jami | 221 | 83 | 6 | 7 | 2 | 19 | - | - | - | 11 | 349 |

2.1-jadval mahlumotlariga asoslanib quyida, ekoturizm ayni paytda rivojlangan va uning yangi turlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlar tasniflandi. Xususan, viloyatdagi ekoturistik yo'nalishdagi istiqbolli hududlar Xonobod shahri, Buloqboshi, Marhamat, SHahrixon va Xo'jaobod tumanlaridir.

[84] andijan.uz

[85] Muallifning shaxsiy kuzatishlari va Andijon viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**Xonobod shahri** - Andijon viloyatining 2-shahri hisoblanadi. Xonobod bugungi kunda viloyatga ko'p sayyohlarni jalb etmoqda. Hududdagi yirik suv ombori, o'rmon xo'jaligining yaqinligi shaharning o'ziga xos ekoturistik hududga aylanishida muhim ekologik tabiiy resurslardir.

**Buloqboshi tumani** - viloyatning janubida joylashgan. Tuman xududi tog' va tog' oldi tekisliklaridan iborat bo'lganligi sababli ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari yuqori. Tuman xududidan Janubiy Farg'ona kanali, Aravonsoy oqib o'tadi. Tumanda jami 39 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, tumanda MICE turizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Xususan, ekoturizm va agroturizm yo'nalishida yer maydoni 1.2 ga ekoturistik hudud markazida sharshara mavjud bo'lib, ko'plab maxalliy va xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda, shuningdek, hududda-yiliga 5 tonna miqdorida uzum intensiv usulda yetishtiriladigan yer maydoni 3 ga eko-agroturistik hudud mavjud.

**Marhamat tumani** - viloyatning janubiy qismida joylashgan. Marhamat tumani shimolda viloyatning Asaka, Xo'jaobod, Buloqboshi tumanlari, sharq va janubda Qirg'iziston Respublikasi O'sh viloyatining Aravon tumani, g'arbda Farg'ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh. Tumanning shimol va shimoliy-sharqiy tekislik, qolgan qismi tog' etaklari va yon bag'irlaridan iborat. Oloy tizmasining etaklaridagi tog'lar, Ulug'tog' (balandligi 1,5 ming metr), Tuyamo'yin adirlari (920 m) birgalikda Oyim-Marhamat-Xo'jaobod botig'ini tashkil etadi.[86] Karkidon, Janubiy Farg'ona kanallari tuman hududidan o'tadi. Tuman viloyatning turistik jihatidan eng yuqori salohiyatli hududidir. Tumanda 62 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, ekoturizmning eko-etnografik yo'nalishlarda rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududdir.

**Shahrixon tumani** - g'arbdan Bo'z, shimoldan Baliqchi, Oltinko'l, sharqdan Asaka, janubdan Farg'ona viloyatining Quva tumanlari bilan chegaradosh. Tuman xududi SHaxrixonsoyning keng

---

[86] andijan.uz

yoyilmasida, Quva-Andijon adirlari bilan Qoradaryo o'rtasidagi tekislikda joylashgan. Markaziy Farg'onaning ichki qismiga kirib boradi. Tumanda 21 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, xususan, ekoturizm yo'nalishida yer maydoni 0.20 ga hududda 60 dan ortiq dekorativ qushlar, sunhiy basseynlar barpo etilgan. Ekoturizmning yangi yo'nalishlarini barqaror rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududdir.

**Xo'jaobod tumani** - tumanda 19 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, xususan, ekoturizmning eko-agroturizm yo'nalishida, yer maydoni 10 ga hududda sayyohlar uchun dam olish maskanlari, tog' turizmi, shifobaxsh buloqlarni o'rganish, xususan, baliq ovi uchun mo'ljallangan hududlar mavjud bo'lib, yer maydoni 1,5 ga hududda-yiliga 5 xil turdagi 15 tonna baliq yetishtirilib, intensiv usulda baliq yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Ekoturizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan hududdir.

**Farg'ona viloyati** - mintaqaning o'ziga xos tabiiy iqlimli hududi hisoblanib, hududda jami 84 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, maxalliy ekoturizmni rivojlanishida sabab bo'layotgan hududlar 16 tani tashkil etadi. Xususan, viloyatning ekoturistik salohiyatini tumanlar kesimida tasniflaganda, Farg'ona shahri, Quvasoy shahri, Oltiariq tumani, Quva tumani, Uchko'prik tumanlarining ekoturistik salohiyati boshqa tumanlarga nisbatan yuqoriroqdir. Lekin hududdagi qo'shni viloyatlarga nisbatan umumiy turistik hududlar soni jihatidan nisbatan past.

**Farg'ona shahri** - O'zbekistonning nisbatan yirik sanoat markazi bo'lib, ishlab chiqarish hajmi bo'yicha Toshkentdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. SHahar hududi viloyatdagi turistik salohiyat nuqtai nazaridan yetakchi hudud hisoblanadi. Jami 10 ta turistik obhektlar mavjud bo'lib, ekoturizmni rivojlantirish uchun salohiyat va imkoniyatlar yuqori. Xususan shahar hududida 4 ta ekoturistik dam olish maskanlari mavjud. Farg'ona shahrining atrofidagi shahar va tumanlarning turistik salohiyatining yuqoriligini inobatga olgan xolda, yahni (Farg'ona tumani, Quvasoy shahri, Marg'ilon shahri,

Oltiariq tumanlarida) ekoturistik klasterlarni barpo etish imkoniyati mavjud.

**2.1.2-jadval**

**Farg'ona viloyatidagi turistik ob'ektlar to'g'risida mahlumotlar[87]**

| № | Shahar va tumanlar nomi | Tarixiy | Ziyorat | Agroturism | Ecoturism | Ekstremal | Recreation | Shop tourismi | Hunarmandchilik tourism | Tog' tourism | Gastronomic | jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Fargona shahri | 2 | - | - | 4 | - | - | 2 | 1 | - | 1 | 10 |
| 2. | Margilan shahri | 3 | 1 | - | - | - | - | 2 | 4 | - | 1 | 11 |
| 3. | Kokand shahri | 4 | 1 | - | - | - | - | 2 | 3 | - | 1 | 11 |
| 4. | Yozyavon tumani | - | 1 | 1 | 2 | - | 1 | - | - | - | - | 5 |
| 5. | Rishtan tumani | 1 | 1 | 1 | 1 | - | 1 | 1 | 5 | - | 1 | 12 |
| 6. | Quvasoy tumani | - | - | 1 | 2 | - | 2 | 2 | - | - | - | 4 |
| 7. | Uchkuprik tumani | 1 | - | - | 1 | - | 2 | - | - | - | - | 4 |
| 8. | Fergana tumani | - | 2 | 1 | - | - | 4 | - | - | 1 | - | 8 |
| 9. | Quva tumani | 1 | - | 1 | 1 | - | - | - | - | - | - | 3 |
| 10. | Altiariq tumani | - | - | 1 | 3 | - | 3 | - | 1 | - | - | 8 |
| 11. | Buvayda tumani | - | 1 | - | 1 | - | 1 | - | - | - | - | 3 |
| 12. | Besharik tumani | - | - | - | 1 | - | 2 | - | - | - | - | 3 |
| 13. | Furqat tumani | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| 14. | Toshloq tumani | - | - | 1 | - | - | - | - | - | - | - | 1 |
| 15. | Baghdad tumani | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| 16. | Uzbekistan tumani | - | - | - | 1 | - | - | - | - | - | - | 1 |
| 17. | Sokh tumani | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - |
| 18. | Qoshtepa tumani | - | - | - | - | - | - | 1 | - | - | - | 1 |
| 19. | Dangara tumani | - | - | - | - | 1 | - | - | - | - | - | 1 |
| | Jami | 12 | 7 | 6 | 16 | 1 | 15 | 8 | 14 | 1 | 4 | 84 |

**Quvasoy shahri** - hududda (Sirdaryoning irmog'i) bilan bir qatorda kanallar, jumladan Quvasoy o'tgan. Qulay tabiiy sharoitlar mavjud hududda 5 ta turistik obhektlar mavjudligi, hududdagi

[87] Muallifning shaxsiy kuzatishlari va Andijon viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

asosan meva-sabzavot (gilos, o'rik, shaftoli, olxo'ri, xurmo va b.) yetishtirishga ixtisoslashgan bog'laridan samarali foydalangan xolda ekoturizmning eko-agroturizm va rekratsion yo'nalishlarini jadal rivojlantirish imkoniyati mavjud.

**Oltiariq tumani-** viloyatning turistik jihatidan yuqori salohiyatli bo'lgan tumanlaridan biridir. Tumanda 8 ta turistik obhekt mavjud bo'lib, ekoturizmning rekratsion yo'nalishida salohiyatli hududdir. Shuningdek, eko-agroturizm yo'nalishida uzum yetishtirish faoliyatining barqarorligi ekoturistik salohiyatini yuqoriligini bildiradi. Tumanning Qiziltepa qishlog'idagi shifobaxsh mahdanli suv noyob tabiiy hududdir.

**Quva tumani** - viloyat markazi Farg'ona shahriga yondosh tuman hisoblanib, turistik namoyish obhektlari mavjudligi jihatidan boshqa tumanlarga nisbatan ustunlikka ega. Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan ushbu tumanda meva-sabzavotni qayta ishlaydigan va quritadigan 2 ta yirik tipdagi korxona mavjud. Eko-agroturizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududdir. Quva-Farg'ona-Marg'ilon yo'llari, Quva-SHahrixon-Marhamat yo'llarida Quva tumanining anorzorlarida eko-agroturizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud. Ayni paytda tumanda 150 dan ortiq fermer xo'jaligi anor yetishtirishga ixtisoslashgan.

**Uch ko'prik tumani** - viloyat markazlaridan biri Qo'qon shahriga yondosh bo'lgan ushbu kichik tumanda rekreatsion va eko-agroturizm yo'nalishlaridagi marshrutlar ishlab chiqish lozim. Tuman asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Tumanga yondosh bo'lgan Qo'qon shahri, chinnisozlik rivojlangan Rishton tumani, eko-rekratsion tuman Buvayda tumanlari salohiyatiga tayangan xolda, tumanda turistik eko-rekratsion klasterlarni barpo etish imkoniyati mavjud.

**Namangan viloyati** Farg'ona vodiysining shimoliy qismida, balandligi - dengiz sathidan 476 metr balandlikda joylashgan. Namangan viloyati respublikada hunarmandchilik, zargarlik, kashtachilik markazi sifatida tanilgan. Bog'dorchilik ham yaxshigina

rivojlangan. Xususan, ekoturistik salohiyat nuqtai nazaridan ham yuqori salohiyatga ega.Turizm sanoatini rivojlantirish sohasida keyingi-yillarda viloyatda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Hududda jami ekoturistik hududlar soni 43 ta qayd etilgan bo'lib, ushbu hududlarning barchasida ham infratuzilma talabga javob bermaydi, lekin qo'shni viloyatlar Andijon, Farg'ona viloyatlari ekosayyohlariga xizmat qilib kelmoqda.

**2.1.3 - jadval**

**Namangan viloyatidagi turistik ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar[88]**

| № | Shahar va tumanlar nomi | Tarixiy | Ziyorat | Agroturism | Ecoturism | Ekstremal | Recreation | Shop tourismi | Nozoturizm | Tog' tourism | Rafting | Jami |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Namangan shahri | 8 | 6 | - | - | - | 6 | 3 | 4 | - | 3 | 30 |
| 2. | Kosonsoy | 3 | 4 | 2 | 5 | - | 4 | 2 | 4 | 10 | 4 | 38 |
| 3. | Mingbuloq | 1 | 6 | 2 | 3 | 1 | - | - | 2 | - | 1 | 16 |
| 4. | Namangan | 1 | 2 | 1 | - | - | - | - | - | - | 1 | 5 |
| 5. | Norin | 1 | 4 | 1 | 1 | 1 | 1 | - | - | - | 1 | 10 |
| 6. | Pop | 1 | 6 | 2 | 6 | 8 | 25 | 8 | 2 | 20 | 5 | 83 |
| 7. | To'raqo'rgon | 8 | 4 | 5 | 1 | 1 | 2 | 2 | 1 | - | 1 | 25 |
| 8. | Uychi | 2 | 6 | - | 1 | - | 1 | - | - | - | 1 | 11 |
| 9. | Uchqo'rg'on | 2 | 4 | 2 | 2 | 1 | 2 | - | 1 | - | 2 | 16 |
| 10. | Chortoq | 4 | 5 | 1 | 8 | 5 | 10 | 4 | 5 | - | 1 | 40 |
| 11. | Chust | 4 | 6 | 5 | 5 | 4 | 15 | 10 | 1 | 15 | 5 | 70 |
| 12. | Yangiqo'rgon | 1 | 2 | 3 | 11 | 5 | 25 | 5 | 2 | 15 | 4 | 73 |
| | Jami | 36 | 55 | 24 | 43 | 26 | 91 | 34 | 22 | 60 | 29 | 420 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, hududda ekoturistik jihatdan salohiyati yuqori bo'lgan tuman Yangiqo'rg'on tumanidir, undan keyingi tumanlar, Chortoq, Pop, Kosonsoy, Chust tumanlari

[88] B.X.Kamolov, Namangan viloyatida ekoturizmni hududiylik, davriylik va komplekslilik xususiyatlari, 11.00.05 Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, geografiya fanlari bo'yicha falsafa (RhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishi 2018-yil. 42-bet.

hisoblanadi. Ayni kunda viloyatning ekoturistik obhektlari yoz oylarida vodiy sayyohlariga ichki turizm ko'rinishida qoniqarli darajada xizmat ko'rsatib kelmoqda. Viloyatning ayniqsa, ekoturistik salohiyati yuqori bo'lgan tumanlarida ekoturizm-yil sayin jadal rivojlanmoqda.

**Namangan shahri** - viloyat markazi hisoblanib, hududning yetakchi sanoat markazi hamdir. Shuningdek, viloyat markazi respublikada anhanaviy gullar bayrami bilan mashhur. Keyingi uch-yil ichida ushbu bayram viloyatga ko'plab xorijiy sayyohlarni ham jalb etmoqda. Shahar markazidagi Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'i 7 kun davomida qisqa muddatli ekohududga aylanadi.

**Yangiqo'rg'on tumani** - viloyatning shimolida joylashgan bo'lib, uning eng chekkasidagi Nanay qishlog'i viloyat markazidan 80 km uzoqda joylashgan. Podshootasoy vodiysida joylashgan tumanning shimoliy hududlarida tog' iqlimi ko'plab maxalliy turistlarni jalb etadi. Jadval mahlumotlaridan ko'rinadiki, viloyatdagi boshqa tumanlarga nisbatan bu hudud ekoturistik jihatdan yuqori salohiyatga egadir. Jumladan, Nanay, Mamay va Podshoota daryo havzasidagi dam olish maskanlarini keltirish o'rinlidir. Ekoturistik obhekt "Nanay kichik turistik zonasi"dagi dam olish maskanida jami 79 ta dam olish maskani mavjud bo'lib, umumiy yer maydoni 100 gektardan ziyod, shundan 15 ta dam olish maskanining yer maydoni 1 gektar va undan ortiq bo'lganligi sababli, ular yirik dam olish maskanlari hisoblanadi.

**Chortoq tumani** - viloyat markazidan 12 km sharqda Chortoqsoy, Katta Namangan va Shimoliy Farg'ona kanallari oqib o'tuvchi hudud adir, adir orti va tog'oldi hudud bo'lgani uchun ham yozi nisbatan salqin, qishi nisbatan iliq, havosi toza va musaffodir. SHu bois tuman hududida dam olish va balg'neologik davolanish maskanlari ko'p. Tumandagi o'ziga xos turistik maskanlar CHortoq (1954-yilda tashkil topgan), Gulshan (1970 y.) dam olish va davolanish maskanlaridir. Yer qahridan chiqadigan shifobaxsh mineral suv va balchiqlar davolash hususiyatiga ega. Dam olish va

davolanish maskanlari atrofida mahalliy aholi ham sayyohlarga xizmat ko'rsatish salohiyatiga ega. Tumanda 40 ta turistik ob'ektlar aniqlangan bo'lib, xususan ekoturistik ob'ektlar soni 8 tani tashkil etadi.

**Pop tumani** - hududining kattaligi jihatidan viloyat hududining 40 foizini tashkil etadi. Tuman hududini deyarli 70 foizi Qurama tog' tizmasi, tog' oraliq vodiylari va yonbag'irlardagi tog'lardan iborat. Bu tuman tabiiy sharoiti turli-tuman ekoturistik obhektlarni ajratish imkoniyatini beradi. Hududda 2016-yilda faoliyat boshlagan Toshkent bilan Farg'ona vodiysini bog'lovchi 121,3 km teng bo'lgan Angren-Pop elektrlashtirilgan tezyurar poezdi va 19,1 km tog' tuneli hududga katta turistik resursdir. 50 kmga yaqin uzunlikdagi Ohangaron daryosi va unga quyuluvchi 20 ga yaqin soy irmoqlarida o'ziga xos rekreatsion, ekstremal va ekoturistik ob'ektlarini o'zida hosil qilgan.

**Kosonsoy tumani** - viloyatning shimoliy qismida Kosonsoy vodiysida joylashgan. Tuman tog' va tog' oldi hududlardan iborat bo'lgani bois ekoturistik yo'nalishlarni amalga oshirishda bir qator imkoniyatlar mavjud. Kosonsoy hududida istiqbolda turistik maskanlarni tashkil etish, shifobaxsh mineral buloqlar, madaniyat va istirohat bog'lari, rekreatsion, oromgohlarida turizmning ekologik yo'nalishida istiqbolli shakllarini rivojlantirish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda bunday turistik maskanlar soni 38 tani tashkil etib, xususan ekoturistik obhektlar 5 tani tashkil etadi. Ular orasida "Kosonsoy" davolanish va dam olish maskani alohida ahamiyat kasb etadi.

**Chust tumani** - viloyat markazidan 42 km g'arbda joylashgan bu hududda qadimdan tarixiy va diniy turizm rivojlangan. Birgina Bibiona hududidagi shifobaxsh buloq tabiiy talab mavjud bo'lgan ekoturistik hududdir. Bizning fikrimizcha, Chust tumanining shimolidan oqib o'tuvchi G'ovasoy daryo havzasining shimolida, tog'

oralig'idagi tabiat manzaralaridan keng foydalangan holda ekoturizmni tashkil etish mumkin.

Tumanga tashrif buyuruvchi asosiy turistlar oqimi Namangan va qo'shni Andijon, Farg'ona viloyatlaridan keluvchi sayyohlardan iborat. Mazkur ekoturistik maskanda sayohat davomida ekoturistlar hududda tarqalgan dorivor giyohlarni terishi, o'simlik va hayvonot dunyosini tomosha qilish, madaniy hordiq chiqarish maqsadida ko'ngil ochar tadbirlarda ishtirok etishlari mumkin. Tumandagi "Mavlono Lutfillo" nomi bilan ataladigan madaniyat va istrohat bog'i majmuasi hududga respublika bo'yicha sayyohlarni jalb etadi. Chust tumani jami 70 ta turistik obhektlarga ega bo'lib, shundan 5 tasi ekoturistik yo'nalishga tegishlidir.

Bizning fikrimizcha, mag'muriy birlik hisoblangan mazkur tumanni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan istiqbolini rivojlantirishda ekoturizmning bir qator turlarini shakllantirish lozim.

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda Farg'ona vodiysida istiqbolda ekoturizmga ixtisoslashtirish nuqtai nazaridan viloyatlar kesimida 2.1.1-rasm ma'lumotlariga ko'ra quyidagicha guruhlashtirishni taklif etamiz;

Farg'ona vodiysining iqlimi, ijtimoiy-iqtisodiy xolati ushbu ekoturizm yo'nalishlarida har birini rivojlantirish imkoniyatini beradi, bu o'z o'rnida ushbu yo'nalishlarga dahldor har bir soxani rivojlantirishga hissa qo'shadi. Lekin ekoturizmning turlari jihatidan olib qaraganimizda, kognitiv va rekratsion turi ko'p xollarda uyg'unlashib ketishi kuzatiladi. Masalan, uning viloyatlar kesimida ustunlik jihatlarini inobatga olgan holda quyidagicha guruxlashtirish mumkin; (2.1.2-rasm) Farg'ona viloyatining Quva, Oltiariq tumani, Buvayda tumanlari imkoniyatlarini tadqiq etgan xolda, ekologik sof meva-sabzavotlar sayli, Andijon viloyatida o'rmonda sayr, baliq ovi, suv omborlarida sayohat, Namangan viloyatida ekologik sof havoda sayr, shifobaxsh buloqlarni o'rganish kabi ekoturistik yo'nalishlarini barqaror rivojlantirish mumkin.

**Farg'ona viloyati**

- ekologik sof meva-sabzavotlar;
- fototurizm, uyg'unlashgan turizm
- (Quva, Oltiariq tumani, Buvayda)

**Andijon viloyati**

- o'rmonda sayr
- suv omborlarida sayohat
- (Xonobod shahri)
- Baliq ovi
- (Ulug'nor tumani)

**Namangan viloyati**

- ekologik sof havoda sayr;
- (Yangiqo'rg'on, Pop tumani)
- mineral buloqlarda davolanish
- (Chortoq, Kosonsoy tumani)

**2.1.2-rasm. Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyati [89]**

Shunday qilib, Farg'ona vodiysidagi turistik imkoniyatlar va unga xizmat ko'rsatish imkoniyati mavjud ekoturistik ob'ektlar yuqorida jadvallarda jamlandi, lekin hozirgi kunda ular to'lig'icha turizm soxasiga xizmat qilmayapti. Ularning sayyohlik imkoniyatlarini tadqiq qilish va har bir tumanlar kesimida istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash shu kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

## 2.2-§. Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyatini ekoturizm imkoniyatlari spektri (EIS) usulida baholash

Respublikada 2010-2017-yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017-yilda 546,9 million AQSH dollari, 2018-yilda esa – 1 041 million AQSH dollarini tashkil etdi. 2016-yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish surhati o'rtacha-yillik 8 foizni, 2017-yilda - 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif[90] buyurgan bo'lsa, 79 500 nafari Farg'ona vodiysiga to'g'ri keladi. Soxa faoliyatining statistikasi 2016-yildan buyon rasman yuritilayotganligi sababli Farg'ona vodiysiga tashrif buyuruvchi maxalliy va xorijiy turistlar sonining mahlumotlarini 2.2.1-jadval mahlumotlarida keltirildi. (3-yillik)

[89] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

[90] O'zbekiston Respublikasi Prezidentiinng 2019-yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 5611-son Farmoni.

**2.2.1-jadval**[91]

**Farg'ona vodiysida umumiy turistlar sonining o'sish tendentsiyalari**

| № | Viloyatlar | umumiy turistlar soni | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2018 | | 2019 | | 2020 | |
| | | maxalliy | xorijiy | maxalliy | xorijiy | maxalliy | xorijiy |
| 1. | Andijon | 540 000 | 12 500 | 615 800 | 18 500 | 624 600 | 11 939 |
| 2. | Farg'ona | 615 000 | 9 200 | 701 800 | 13 600 | 556 400 | 24 404 |
| 3. | Namangan | 624 000 | 14 000 | 544 900 | 21 463 | 717 900 | 11 966 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mahalliy turistlar soni 2018-yilga nisbatan 2019-yilda 4.7% ga ortgan, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan esa 2 %ga ortgan, lekin 2018-yil ko'rsatkichiga nisbatan pasayganligini kuzatiladi. Xorijiy turistlar soni esa 2018-yilga nisbatan 2019-yilda 50.3%ga ortgan, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan 48.4% ga ortgan.




**2.2.1-diagramma. Farg'ona vodiysining mahalliy turistlarni o'sish tendentsiyalari**[92]

[91] O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining statistik to'plami ma'lumotlari asosida.

[92] Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlari hududiy turizmni rivojlantirish boshqamasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Farg'ona vodiysiga 2020-yil yakuniga ko'ra, 1mln 309 ming 781 nafar mahalliy hamda 79 500 ga yaqin xorijiy sayyohlar tashrifi kuzatildi. Sayyohlarning asosiy qismi Osiyo (74%-Xitoy, Turkiya, Hindiston, Afg'oniston, Yaponiya, Janubiy Koreya) davlatlari, 12% MDH davlatlari, 11 %, Yevropa (Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya) davlatlari va 3% boshqa davlat sayyohlaridir.

Diagramma mahlumotlaridan ko'rinadiki, maxalliy turistlarni o'sish tendentsiyalari Farg'ona viloyatida boshqa viloyatlarga nisbatan oshib ketganligi kuzatiladi. Bunga asosiy sabab, diqqatga sazovor joylari, yahni shifobaxsh buloqlari, SHohirmardon kabi dam olish maskanlaridir.

Xorijiy turistlarni o'sish tendentsiyalari ko'rsatkichlarida viloyatda maxalliy turistlar soni kabi sezilarli darajada farq deyarli mavjud emas.




**2.2.2-diagramma. Farg'ona vodiysining xorijiy turistlarni o'sish tendentsiyalari**[93]

Rossiyadan Namangan va Farg'onaga yo'lovchilarga bo'lgan talab ikki baravarga oshgan, parvozning ikki tomonga o'rtacha narxi esa 12 000 rublni (1 845 000 so'm) tashkil etgan, bu 2018-yilga nisbatan 10 % ga arzon bo'lib, bu boshqa yo'nalishlarga–yahni, Yevropa yoki Gruziyaga nisbatan ancha tejamlidir.[94]

[93] O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining statistik to'plami ma'lumotlari asosida.

[94] https://uzbektourism.uz/cyrl/newnews/view?id=953




**2.2.1-rasm. Farg'ona vodiysida xorijiy turistlarni viloyatlar bo'yicha ulushi[95]**

2.2.1-rasm mahlumotlariga ko'ra, Farg'ona vodiysiga 2017-2019-yillar davomida Namangan viloyati (64 963 nafar) xorijiy sayyohlar soni bo'yicha ustunlik qildi. Vodiyning tarkibiga kiruvchi uchta viloyat ichida nisbatan past ko'rsatkich Farg'ona viloyatiga (47 800 nafar)to'g'ri keladi. Oxirgi 3-yillikda sezilarli darajada o'sish tendentsiyalari kuzatildi, shu o'rinda hududdagi YaIM tarkibida turistik xizmatlar xajmi tahlili;

**2.2.2-jadval**

**Andijon viloyatida turizm xizmatining rivojlanishi[96]**

| Viloyat | 2017-yil | | 2018-yil | | 2019-yil | | 2020-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % |
| Jami turizm xizmati | 0 | 0 | 2971,4 | 217,0 | 3255,4 | 99,0 | 1292,6 | 33,9 |
| YaHMdagi turizm ulushi | 255,5 | 2,3 | 390,9 | 2,7 | 732,3 | 2,7 | - | - |
| YaXM | 11108,7 | | 14477,8 | | 27122,2 | | 32 897,20 | |

[95] Hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmalari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
[96] O'sha manba.

2.2.2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda YaHMda jami turizm xizmatlari ulushi 2,7%ni tashkil etgan, 2018-yilda 2017-yilga nisbatan YaHM ulushi 341,4 mln.so'mga ortganligi kuzatiladi.

**2.2.3-jadval**

**Farg'ona viloyatida turizm xizmatining rivojlanishi[97]**

| Viloyat | 2017-yil | | 2018-yil | | 2019-yil | | 2020-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % |
| Jami turizm xizmati | 0 | 0 | 580,0 | 114,3 | 3290,0 | 122,0 | 5720,0 | 107,2 |
| YaXMdagi turizm ulushi | 484,1 | 2,8 | 595,1 | 3,0 | 825,0 | 3,1 | - | - |
| YaXM | 17289,3 | | 19836,7 | | 26612,9 | | 32 943,30 | |

2.2.3-jadval mahlumotlariga ko'ra, 2017-yilda viloyatdagi jami turizm xizmatlari YaHM dagi ulushi 484,1 mln.so'm, yahni 2,8%ni tashkil etgan. 2018-yilda 2017-yilga nisbatan YaHM tarkibida 595,1 mln.so'mni tashkil etib, 0,2% ga ortganligi kuzatiladi. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan YaHM tarbida 0,1% ga ortgan.

**2.2.4-jadval**

**Namangan viloyatida turizm xizmatining rivojlanishi[98]**

| Viloyat | 2017-yil | | 2018-yil | | 2019-yil | | 2020-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % | mln. so'm | % |
| Jami turizm xizmati | 0 | 0 | 264,8 | 85,1 | 311,3 | 237,9 | 1266,9 | 189,5 |
| YaHMdagi turizm ulushi | 186,2 | 2,1 | 263,8 | 2,5 | 453,5 | 2,5 | - | - |
| YaHM | 8866,7 | | 10552 | | 18140 | | 23 239,00 | |

2.2.4-jadval mahlumotlariga ko'ra, Namangan viloyatida 2017-yilga nisbatan 2018-yilda 85,1%ga ortgan, YaHM ulushi

[97] O'sha manba.
[98] O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining-yillik statistik to'plami ma'lumotlari asosida.

2017-yilda 2,1%ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich, 2018-yilda 0,4%ga ortganligi kuzatiladi, 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 189,7 % ga ortgan, YaHMda ulushi 2,5% ni tashkil etgan.

**2.2.5-jadval**

**Farg'ona vodiysi turistik xizmatlar hajmi mln. so'm[99]**

| | Farg'ona vodiysi turistik xizmatlar hajmi, mln. so'm | Andijon | Namangan | Farg'ona |
|---|---|---|---|---|
| 2018 | 3816,2 | 2971,4 | 264,8 | 580,0 |
| 2019 | 6856,7 | 3255,4 | 311,3 | 3290,0 |
| 2020 | 8279,5 | 1292,6 | 1266,9 | 5720,0 |

2.2.5-jadval mahlumotlariga ko'ra, hududda jami turistik xizmatlar hajmi 2017-yilda 3816,2 mln.ni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda 79,7% ga ortgan, 2019-yilda esa 20,8 % ga ortganligi kuzatiladi.

Tadqiqot jarayonida Farg'ona. vodiysi va unga tegishli viloyatlar o'rtasidagi turizm xizmatlarining o'zaro bog'liqlik holatini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, shu yo'l bilan hududlarning mintaqaviy turizm sohasiga tahsir darajasini aniqlash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish mumkin.

Farg'ona vodiysi va unga tegishli viloyatlarning turizm xizmatlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanish quyidagicha:

**2.2.6-jadval**

**Farg'ona vodiysi va uning hududlarining turizm xizmatlari o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi korrelyatsion matritsa[100]**

| | Farg'ona vodiysi | Andijon | Namangan | Farg'ona |
|---|---|---|---|---|
| **Farg'ona vodiysi** | 1 | | | |
| **Andijon** | -0,649289997 | 1 | | |
| **Namangan** | 0,771995756 | -0,984669989 | 1 | |
| **Farg'ona** | 0,984754307 | -0,771687985 | 0,870794225 | 1 |

[99] Tadqiqotchi hisob-kitobi.

[100] O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan Microsoft Excel dasturida ishlab chiqilgan.

2.2.6-jadval mahlumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki,

Andijon – $0,2< r_{xy}<0,4$ yahni, o'rtachadan past;

Namangan –$0,6< r_{xy}<0,8$ yahni, o'rtachadan yuqori;

Farg'ona –$0,8< r_{xy}<0,99$ o'ta kuchli.

$X_1$; $X_2$; $X_3$........$X_n$ determinatsiya koeffitsienti $R^2=(r_{xy})^2$; $r_{xy}=0,9$ $R^2=(0,9)^2=0,8$ y ni o'zgaruvchisi x=81% tahsir qiladi.

2.2.6-jadvalga asosan, Farg'ona vodiysi bilan Namangan viloyati o'rtasidagi bog'lanish o'rtachadan yuqori, Farg'ona viloyati bilan esa juda yuqori va Andijon viloyati bilan bog'lanish mavjud emas, lekin shu o'rinda hududdagi ekoturistlar sonini, uning turistik xizmatlar xajmidagi ulushi tahlilini aniq raqamlarda aks ettirish imkoniyati mavjud emas. SHu sababli dastlab ekoturistik salohiyatini tahlil qilgan holda, tanlangan tadqiqot maydonining ekoturistik resurslariga umumiy tavsif berishda uning quyidagi jihatlariga ehtibor qaratish muhimdir, yahni shifobaxsh mahdanli suvlarga boy, suv resurslariga mo'lligi, yovvoyi hayvonlarni saqlab qolish imkoniyati mavjud o'rmonlar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yovvoyi hayotni rivojlantirish imkoniyati va boshqa ko'plab xususiyatlarga ega ekanligi uning ekoturizmni rivojlantirishdagi muhim jihatlaridir. Tadqiqot maydoni bioxilma-xillik jihatidan juda boydir. Shuningdek, endemik o'simliklar, ko'p-yillik monumental daraxtlar va arxeologik qo'riqlanadigan tabiiy hududlarni o'z ichiga olgan holda hudud o'z resurslari bilan ekoturizm uchun katta imkoniyatlarga ega. SHu sababli, tadqiqot ishidagi ushbu paragrafning maqsadi, Farg'ona vodiysidagi ekoturistik faoliyatni tashkil etishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan eng maqbul joylarni va yo'nalishlarini aniqlashdir. Shu munosabat bilan ekoturizm imkoniyatlari salohiyat darajasni aniqlash usulidan foydalanildi. Tadqiqot maydoni Farg'ona vodiysi boshqa mintaqalarga nisbatan aholisi zich hisoblanib, O'zbekistonning Sharqiy nuqtasida joylashgan (2.2.2-rasm).




**2.2.2-rasm. Tadqiqot ob'ekti joylashgan hudud**

2.2.2-rasm. mahlumotlariga ko'ra, maydoni taxminan 22 ming km$^2$. U deyarli tog' tizmalari bilan o'ralgan: shimoliy-g'arbda – Qurama va Chotqol, shimoliy-sharqda - Farg'ona, janubda–Turkiston va Oloy tog' tizmalari bilan o'ralgan. Faqatgina g'arbiy tomonida, hozirda Qayroqqum suv ombori oz hududni egallaydi. Bu mintaqadan oqib o'tadigan Norin va Qoradaryoning birlashishi natijasida hosil bo'lgan eng yirik daryo – Sirdaryo keng qorli tog'lar va ko'plab tog' muzliklari (ayniqsa Oloy tizmasida) vodiyni sug'oradigan daryolarning ko'pini keltirib chiqaradi (Isfara, So'x). Tadqiqot maydoni bioxilma-xillik jihatidan juda boydir.

Yuqoridagi tavsiflar hududning umumiy ekoturistik xususiyatlarining bir qismi hisoblanib, har bir tumanlar kesimida aniqlash uchun yechim bo'la olmaydi. Ushbu xolat hududdagi bunday ekoturistik salohiyat nuqtai nazaridan yuzaga kelgan noaniqliklarni aniq bir mezonlar bo'yicha baholash zaruriyatini taqozo etadi.

Shu maqsadda tadqiqot jarayonida aniqlangan diqqatga sazovor hududlarning ekoturistik salohiyatini baholash uchun

ekoturizm imkoniyatlari spektri (EIS) usuli qo'llanildi. Tadqiqot sohasi ekoturizm yo'nalishida nisbatan endigina rivojlana boshlagan hududlarni o'z ichiga olganligi sababli, EIS usulida qo'llaniladigan mezonlar shunga muvofiq o'zgartirildi. SHu munosabat bilan ushbu mezon Hvenegaard,G.T(1994)[101], Butler.R.W., Boyd,S.W., (1996)[102], Fennell,D., Weaver,D. (2005)[103], Lin,Y.C., Tsaur,S.H., (2006)[104] va boshqalarning izlanishlariga asoslanib aniqlandi. SHuningdek, Bender, M. Y. (2008)[105], Maria'an, M., Aziz, A., Barzekar, G., (2011)[106],-yilmaz, O., Mansuroglu,S.(2013)[107]., Ashok, S., Tewari, H. R., (2017)[108]., Dhami, I., Deng, J., (2017)[109], Nino,K.,Mamo,Y.,(2017)[110]kabi tadqiqotchilar ushbu mezonlardan o'z tadqiqotlarida foydalanganliklari o'rganildi. Mezonlar 2.2.7-jadvalda keltirilgan. Ushbu mezonlar ekoturistik hududlarni aniqlash uchun mavjud salohiyat darajasini belgilaydigan nisbiy qiymatlarni taklif qilish uchun kichik mezonlarga bo'lingan (2.2.7-jadval). Xalqaro tajribada hududlarning ekoturizm salohiyatini o'rganadigan tadqiqotchilar pastki mezonlarga nisbatan 1-3, 1-5, -3-+ 3, 1-10, 1-100 oralig'idagi nisbiy qiymatlarni belgilaganliklari

[101] Hvenegaard, G. T. (1994): Ecotourism: a status report and conceptual framework. - Journal of Tourism Studies 5(2): 24-35.
[102]Boyd, S. W., Butler, R. W. (1996): Managing ecotourism: an opportunity spectrum approach. - Tourism Management 17(8): 557-566.
[103]Fennell, D., Weaver, D. (2005): The ecotourism concept and tourism-conservation symbiosis. - Journal of Sustainable Tourism 13(4): 373-390.
[104] Tsaur, S. H., Lin, Y. C., Lin, J. H. (2006): Evaluating ecotourism sustainability from the integrated perspective of the resource, community and tourism. - Tourism Management 27(4): 640-653.
[105] Bender, M. Y. (2008): Development of criteria and indicators for evaluating forest-based ecotourism destinations: A Delphi study. - M. S. Thesis, West Virginia University.
[106] Barzekar, G., Aziz, A., Mariapan, M., Ismail, M. H. (2011): Delphi technique for generating criteria and indicators in monitoring ecotourism sustainability in Northern forests of Iran: Case study on Dohezar and Sehezar Watersheds. - Folia Forestalia Polonica, Series A 53(2): 130-141.
[107]-yilmaz, O., Mansuroglu, S.,-yilmaz, R. (2013): SWOT Analysis of Ecotourism as a Tool for Sustainable Development: A Case Research in North-west Black Sea Coastal Zone of Turkey. - Journal of Environmental Protection and Ecology 14(2): 786.
[108] Ashok, S., Tewari, H. R., Behera, M. D., Majumdar, A. (2017): Development of ecotourism sustainability assessment framework employing Delphi, C&I and participatory methods: A case study of KBR, West Sikkim, India. - Tourism Management Perspectives 21: 24-41.
[109] Dhami, I., Deng, J., Strager, M., Conley, J. (2017): Suitability-sensitivity analysis of nature-based tourism using geographic information systems and analytic hierarchy process. - Journal of Ecotourism 16(1): 41-68.
[110] Nino, K., Mamo, Y., Mengesha, G., Kibret, K. S. (2017): GIS based ecotourism potential assessment in Munessa Shashemene Concession Forest and its surrounding area, Ethiopia. - Applied Geography 82: 48-58.

kuzatiladi. Giles-Corti, B.,Broomhall,M.H.,(2005)[111] tahkidlashicha, agar tahlil qilinayotgan mezonlar mazmunan o'xshash bo'lsa, nisbiy qiymatlar shunga mos kichik bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot uchun mahlumot sifatida foydalanilgan adabiyotlar va ushbu mavzu bo'yicha mutaxassislar va olimlarning fikrlari ehtiborga olingan. Natijada, har bir kichik mezonlarga ekoturizm yo'nalishlarini aniqlash uchun yaroqliligiga qarab 1-4 gacha nisbiy qiymatlar berildi. 1-4 orasidagi yuqori qiymatlar ekoturizmning diqqat markazida bo'lish imkoniyatini va tabiiylikning yuqori barqarorligini anglatadi. Kam qiymatlarda esa bu vaziyat aksincha bo'ladi (4-juda muhim, 3-muhim, 2-ahamiyatsiz, 1-juda ahamiyatsiz).

Ekoturizmning potentsialini aniqlash uchun 9 ta hudud joylashgan
tadqiqot maydoni sifatida Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlaridan har biridan 3 tadan nisbatan salohiyatli hududlar tanlandi. Ushbu tadqiqotda qo'yilgan eng muhim qadam mintaqada aniqlangan 192 ta umumiy ekoturistik hududlarda ekoturizmning rivojlanishida duch keladigan muammolarga yechim topishdir. Ajoyib sayyohlik resurslariga ega bo'lishgina, sayyohlar boradigan hududga sayyohlarni bardavom va barqaror jalb etish uchun yetarli emas.[112] Hududni tadqiq etish jarayonida quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi;

-hududlardagi ekoturistik infratuzilmaning aniqlanmaganligi;

-zamonaviy qulaylik darajasida turistik guruxlarni joylashtirish uchun kam sonli mehmonxonalar;

-turistik turar joy obhektlarini qurish va rekonstruktsiya qilish uchun investitsiyalarning yetarli emasligi;

[111] Giles-Corti, B., Broomhall, M. H., Knuiman, M., Collins, C., Douglas, K., Ng, K., Lange, A., Donovan, R. J. (2005): Increasing walking: How important is distance to, attractiveness and size of public open space? - American Journal of Preventive Medicine 28: 169-176. DOI: http://dx.doi.org/10.1016/j.amepre.2004.10.018.

[112] B Navruzzoda and N.Ibragimov. The measures for improving virtual activity of incoming urban tourism in Uzbekistan.In: World Journal of tourism small business management. Volume 1. Issue 3. 2007. World Research Organization. Isis Press. Cape Town. South Africa. 43-49 pp.

-turistik xizmat ko'rsatishning past darajasi, ko'rsatilayotgan turistik xizmatlarning sifati va ularning narxi o'rtasidagi tafovut;

-shahar markazlaridagi ekoturistik hududlarda turistlarga taklif etiladigan mehmonxonalar, ovqatlanish, transport va boshqa xizmatlarning yuqori narxi;

-transportni yuqori darajada tashkil etishning yetishmasligi;

-notijorat reklamalarining mavjud emasligi;

-hududlarda anhanaviy aholi hududlarining yo'q bo'lib ketishi va natijada tubjoy xalqlarning anhanaviy turmush tarzi, ularning hunarmandchiliklari zamonaviylashib borayotganligi;

-ko'plab noyob tabiiy hududlarning yirik markazlar va aeroportlardan uzoqligi, sayyohlarni hududga yetkazib berishning murakkabligi, yo'llarning yomonligi, sayohat paytida mavsumiy qiyinchiliklarning mavjudligi;

-qishqi sovuq iqlim sharoiti va cheklangan sayyohlik mavsumi. Ko'pgina hududlarda faol sayyohlik mavsumi-yiliga atigi 3 oyni tashkil qiladi.

-bir qator ekoturistik hududlarda transport vositalari, aloqa vositalari, zarur sayyohlik uskunalari va sharoit yo'qligi, hatto ijaraga olish tashkillashtirilmagan.

-bir qator tumanlarda muhandislik infratuzilmasi (elektr tahminoti, suv tahminoti tarmoqlari, transport tarmoqlari, ko'priklar, tozalash inshootlari va boshqalar) talab darajasida emasligi;

-turistik avtobuslarning yetishmasligi;

-ekoturizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan hududlarda aynan ekoturizmni rivojlantirish uchun mehyoriy-huquqiy bazaning yo'qligi;

-ekoturizmni va uning kichik hajmini dastlabki bosqichini muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo'lgan hududlarda mahalliy aholi tajribasi va bilimlarining yetarli darajada emasligi;

-ekoturizm bo'yicha ekskursiyalar uchun professional qo'llanmalarning yetishmasligi;

-marketing muammolari O'zbekistonda elektron turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi jiddiy omil hisoblanadi.

-hozirgi kunga qadar xalqaro hamjamiyat respublikaning ekoturistik dam olish maskanlari, ularning ahamiyati va tashrif buyurish imkoniyatlari to'g'risida yetarlicha mahlumotga ega emas.

-ekologik turizmni rivojlantirish obhektlarini to'liq aniqlanmaganligi;

-obhektlar sifatida qayd etilayotgan hudud mutasaddilarining beparvoligi;

Tadqiqot natijasi, o'rganilayotgan hududda ekoturizmda barqaror biznes imkoniyatlarini taqdim etish bilan birga mintaqada tabiatni muhofaza qilish siyosatini olib borish uchun asos yaratadi. Ushbu tadqiqot maqsadi hududning ekoturistik salohiyatini aniqlashdir. 2.2-jadvalda belgilangan mezonlardan foydalanib, hududning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganildi. Belgilangan hududning xususiyatlariga qarab mezonlarda bahzi qo'shimcha qismlar o'zgartirildi, takomillashtirildi. O'rganiladigan hududda ekoturizmning potentsialini o'rganish uchun EIS usulidan foydalanib, mahlumotlar 7 (etti) tarkibiy qismlarga ehtibor qaratish orqali ekoturizmda foydalanish imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholandi va tahlil qilindi. Asosiy mezonlar sifatida ehtibor asosan diqqatga sazovor joylar, infratuzilma, foydalanish imkoniyati, mahorat darajasi va bilimlar, o'zaro ijtimoiy munosabatlar, boshqaruv sohasidagi munosabatlarga qaratilgan. Ushbu omillarning har birining ahamiyati ekoturizm mintaqasi va hududining mahalliy sharoitlariga bog'liq bo'ladi, yahni ushbu xolatda taklif etilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bevosita bog'liqdir.

O'rganish hududida nisbatan salohiyatli diqqatga sazovor joylar aniqlanib, shundan so'ng yettita asosiy mezonlar va 30 ta quyi mezonlar asosida va 9 ta aniqlangan ekoturizm joylaridagi ballar asosida tahlil qilindi.

EIS usuli yordamida ekoturizm potentsialini baholash maqsadida ushbu tadqiqotda belgilangan ekohududlarni 7 ta mezonlar bo'yicha EIS jadvali asosida xaritasi yaratildi. (2.2-rasmga qarang) Tanlangan asosiy va boshqa kichik tarkibiy mezonlarga nisbatan juda yuqori = 4, yuqori = 3, past = 2, juda past = 1 bo'lgan ballar berilgan. SHundan so'ng barcha EIS ballarining kichik yig'indisi hisoblandi va jadval shaklida tasniflandi. (2.2.7-jadvalga qarang)

**2.2.7-jadval**

**EIS usuli orqali hududlarning ekoturizm salohiyatini baholash natijalari[113]**

| № | ASOSIY MEZONLAR | QUYI MEZONLAR | Farg'ona sh. | Quvasoy sh. | Oltiariq .et. | Xonobod sh. | Buloq b.t. | Xo'jaobod .tt. | Yangiqo'r.t tt. | CHortoq t. | Pop t. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Farg'ona | | | Andijon | | | Namangan | | |
| 1. | Foydalanish imkoniyatlari | Hududga asosiy kirish yo'lining xolati (Xizmat ko'rsatish qulayligi) | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 |
| | | Transportda kirish imkoniyatining mavjudligi | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 |
| 2. | O'zaro munosabat | Tashkilot qobiliyati | 4 | 4 | 2 | 3 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| | | Maxalliy aholining madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatlari | 4 | 4 | 3 | 4 | 3 | 3 | 3 | 3 | 2 |
| | | Hududda turizmning o'rni va ahamiyati | 3 | 3 | 2 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Ekoturizm to'g'risidagi bilim darajasi, ekoturizm faoliyatining mohiyatiga munosabat va xulq-atvor | 3 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Ekoturisik faoliyatida anhanaviy tajribaga ega bo'lish imkoniyati | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 3. | Diqqatga sazovor joylari | Ob-havo sharoiti (yilning faqat mahlum fasllarida) | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Ekoturistik hududdagi tabiiy manzara ko'rinishi | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 |
| | | Yovvoyi tabiatning imkoniyatlari (Hayvonot bog'i, o'rmon hududi ) | 4 | 2 | 2 | 4 | 2 | 2 | 2 | 2 | 4 |
| | | Ekoturistik hudud atrofi tabiiy manzarasi | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 |
| | | Tarixiy-madaniy ahamiyati(tarixiy obhektlar) | 2 | 1 | 1 | 1 | 4 | 3 | 1 | 2 | 1 |

[113] Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida shakllantirilgan.

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 4. | Infratuzilma | Ekoturistlar uchun turar joy | 4 | 4 | 3 | 4 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Inson resurslarining mavjudligi (maxalliy aholi) | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 | 4 |
| | | Ekoturistik qutqaruv xizmatining yo'lga qo'yilganligi | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| | | Sog'liqni saqlash muassasasi | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Mavjud xordiq chiqarish tadbirlari (sayllar) | 3 | 3 | 2 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Talab darajasidagi oshxonaning mavjudligi | 4 | 4 | 3 | 4 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | (kanalizatsiya, elektr energiyasi,ichimlik suvi) | 4 | 4 | 2 | 4 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Tashkil etilgan turning sifat darajasi | 4 | 4 | 3 | 4 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| 5. | Mahorat darajasi | Maxalliy aholining chet tillarini bilish darajasi (rus,ingliz va boshq.) | 4 | 3 | 2 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Maxsus tayyorlangan ekoturistik qo'llanmalarning mavjudligi | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 |
| | | Ekoturistik obhektlar to'g'risidagi axborot markazlari | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 6. | O'zaro ijtimoiy aloqalar | Sayyohlar bilan o'zaro munosabatlar chastotasi | 4 | 4 | 2 | 4 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Sayyohlarning maxalliy aholiga munosabati | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Maxalliy aholining sayyohlarga munosabati | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Mahalliy aholi va ekosayyohlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasi | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Boshqaruv faoliyati | Ekoturizm va tabiiy resurslarni himoya qilish o'rtasidagi bog'liqlik | 4 | 3 | 2 | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Tabiatni muhofaza qilish bilan shug'ullanadigan jamoalar xatti-harakati | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| | | Hududning tabiiy resurslarni himoya qilishdan ko'rgan foydasi | 3 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| | | Jami | **96** | **90** | **76** | **91** | **77** | **77** | **75** | **76** | **76** |

80 balldan past bo'lgan joylar ekoturizmning zaif markazlari sifatida tasniflandi. 80-100 ball to'plagan hududlar ekoturizm potentsialining o'rta markazlari, 100 balldan yuqori ballar esa ekoturizm potentsialining yuqori markazlari sifatida tasniflanishi kerak edi, lekin hududdagi eng saralangan salohiyatli hududlar ham EISning yuqori nuqtasini ola olmadi.

Quyida tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, eng salohiyatli hududlar ham EIS usuli tomonidan belgilangan yuqori mezonlarga javob bera olmaydi. SHunga ko'ra, barcha 9 ta ekoturizm obhekti har bir olingan ballar bo'yicha reytingga kiritildi.

**2.2.8-jadval**

**Hududlarning ekoturizm potentsiallari[114]**

| | Sayyohlik hududlari nomi | EIS ballari | Egallagan o'rni |
|---|---|---|---|
| 1. | Farg'ona sh. | 96 | 1 |
| 2. | Quvasoy sh. | 90 | 2 |
| 3. | Oltiariq t.Qizil tepa q. | 76 | 4 |
| 4. | Xonobod sh. | 91 | 3 |
| 5. | Buloq boshi t.Shirmonbuloq q. | 77 | 6 |
| 6. | Xo'jaobod t. Tosh ota q. | 77 | 5 |
| 7. | Yangiqo'rg'on t. Nanay q. | 75 | 5 |
| 8. | CHortoq t. Bog'iston q. | 76 | 5 |
| 9. | Pop t. CHodak qishlog'i | 76 | 6 |

**2.2.9-jadval**

**EIS ballarini aniqlash nuqtalari[115]**

| № | XUDUD SALOHIYaTI | EIS BALLARI | EKOTURIZM HUDUDLARI |
|---|---|---|---|
| 1. | Yuqori I-darajali | 100 dan ortiq | Hududda EISning yuqori nuqtasiga hududlar salohiyatini yetkazish uchun aniqlangan muammolarni bartaraf etish zarur. |
| 2. | O'rtacha II - darajali | 80-100 | Farg'ona, Quvasoy, Xonobod shaharlari |
| 3. | Nisbatan salohiyati past | 80 dan kam | Qiziltepa, Tosh ota, Nanay, Bog'iston, SHirmonbuloq, CHodak qishloqlari |

Hududlarning ekoturizm salohiyat darajalari nuqtasini aniqlash nuqtai nazaridan har bir mezonning ahamiyat darajasi bir xil emasligidan kelib chiqadi. Har bir mezonlar bo'yicha baholash

[114] Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida shakllantirilgan.
[115] Muallif ilmiy tadqiqotlari asosida shakllantirilgan.

jarayonida Farg'ona viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi (8 kishi), Farg'ona viloyati hokimligi (5 kishi), Namangan viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi (8 kishi), Namangan viloyati hokimligi (5 kishi), Andijon viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi (8 kishi), Andijon viloyati hokimligi (5 kishi), dan jami 39 nafar mutaxassis shaxslar tomonidan so'rovnomalar o'tkazildi. Tadqiqot davomida jami 39 ta mutaxassisga savolnomalar berildi va anketada har bir mezon uchun 1-4 ball to'plandi. Har bir mezon uchun olingan barcha ballar qo'shildi va ularning o'rtacha arifmetik ballari hisoblandi. Olingan o'rtacha arifmetik ballar 1 dan 4 gacha bo'lgan har bir mezonning vaznli ballarini belgilab berdi. Har bir mezonning ekoturizm imkoniyatlari spektri qiymatining eng yuqori umumiy qiymati 120 ball. Tadqiqotda ushbu qiymatga yaqin bo'lgan ehtibor rejalashtirish mezonlariga muvofiq ekoturizm yo'nalishlarini aniqlash uchun eng mos deb hisoblanadi, tegishli ekoturizm yo'nalishini aniqlash maqsadida ekoturizm hududlari sifatida foydalanish imkoniyati darajasi va eng yaxshi ekoturizm yo'nalishlarini tashkil etadigan joylar hisobga olingan.




**2.2.3-rasm. Farg'ona vodiysida ekoturizm salohiyati xaritasi[116]**

---

[116] Tadqiqotchi ishlanmasi.

EISni boshqa usullar orasidan tanlanishiga sabab, chunki bu usul orqali Farg'ona vodiysidagi 208 ta hudud uchun ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash va o'rganish osonlashadi.

Tadqiqotda EIS usuli orqali boshqa muhim omillar, masalan, inson resurslari sifatida mahalliy aholi, infratuzilma va xizmatlarning mavjudligi, o'rganilayotgan hududni ekoturizm potentsialiga ega bo'lgan hudud sifatida belgilashni taklif qilishini ko'rsatdi. Hududdagi zaif markazlar kuchli markazga aylantirilishi mumkin, agar faqat transport, sog'liqni saqlash, ichimlik suvi, kanalizatsiya tizimlari, shuningdek dam olish faoliyati, mahalliy oziq-ovqat va oshxonalar, turar joy binolari va ekoturizm uchun ekologik madaniyatga katta ehtibor berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Farg'ona vodiysining ekoturistik potentsialini aniqlashda, rivojlantirishda tadqiqot natijasi katta ahamiyatga egadir. (2.2.7-jadval mahlumotlari)

***O'rta salohiyatli hududlar:***

Farg'ona, Quvasoy va Xonobod kabi hududlar EIS balini 80-100 ball oralig'ida to'pladi. Farg'ona, Quvasoy va Xonobod kabi hududlar o'rta markazlar deb atalishiga sabab, chunki infratuzilma obhektlari boshqa hududlarga nisbatan talabga javob beradi, tashrif buyuruvchilar uchun shahar hududlari bo'lganligi sababli asosiy qulayliklar mavjud, lekin, maxsus qo'llanmalar, tegishli belgi taxtasi va tashrif buyuruvchilarni boshqarish uchun mahlumot markazlari mavjud emas. Hududga tashrif buyurmoqchi bo'lganlar maskanga tashrif buyurish uchun qulay transport tizimi mavjud. Yo'llar tarmog'i yaxshi, osonlik bilan kirish mumkin. Hududda milliy taomlar bilan sifatli ovqatlanish imkoniyati mavjud. Ko'plab tashrif buyuruvchilar zavqli muhitda bo'lishni va tabiatni asl holatida ko'rishni xohlashadi. Turizm bu hududlarda keyingi 3-yillikda sezilarli darajada rivojlanmoqda va sayyohlik mavsumidagi eng yaxshi ob-havo sharoitida tashrif buyuruvchilar soni keskin ko'payadi. Farg'ona shahridagi ekohududlarga sayyohlarni ko'proq jalb etayotgan narsa, gastronomik turizm ham yaxshigina

rivojlangan. Hudud turli xil turistik tadbirlarni amalga oshiradi. Farg'ona shahri ekoturizm potentsialining nisbatan kuchli markazi bo'lib xizmat qiladi va eng yuqori ball yig'ishining asosiy sababi 7-mezonda berilgan (ekoturizm va tabiiy resurslarni himoya qilish o'rtasidagi bog'liqlik) Milliy Hayvonot bog'i mavjudligi sababli ham ushbu quyi mezon uchun ajratilgan ballni ham yuqorisini olganligidir.

***Zaif hududlar:***

Qiziltepa, Tosh ota, Nanay, Bog'iston, Shirmonbuloq, Chodak qishloqlaridagi ekoturistik hududlar EIS balini 80 dan past to'pladilar.

Qiziltepa, Tosh ota, Nanay, Bog'iston, SHirmonbuloq, Chodak qishloqlaridagi ekoturistik hududlar zaif markazlardir, chunki hududlarga yetib borish uchun doimiy transport yo'q. Hududlarda turar joy va ovqatlanish joylari hali ishlab chiqilmagan. Maxsus qo'llanmalar yetishmaydi va mahlumot markazlari faoliyati yo'lga qo'yilmagan. Eko oromgohlarni tashkil qilish yuzasidan, Nanay qishlog'ida loyihalashtirish ishlari olib borilmoqda. Chodak, Bog'iston asosan, uzoq joylashganligi va transport xizmati juda past bo'lganligi sababli zaif markazdir, chunki tashrif buyuruvchilarga yo'nalishni ko'rsatadigan tegishli mahlumot markazlari va yo'l belgilari mavjud emas. Hududdagi infratuzilma yaxshi rivojlanmagan, agar ularga tegishli xavfsizlik tahminlanmasa, (qutqaruv xizmati) u yerga borishni istashmaydi. Ushbu zaif markazlarda hudud asosiy shahardan uzoqda joylashgan, infratuzilma yaxshi rivojlanmagan va hatto hudud sayyohlarni ularning talabiga javob bera oladigan ovqat bilan tahminlay olmaydi. Ekohududlar asosiy yo'ldan uzoqda joylashgan va hatto yo'llar yaxshi rivojlanmagan. Yo'llarning yomonligi sababli pullik transport vositalari ushbu hududlarga borishni yoqtirmaydilar va u hududga yuradigan haydovchilar sayyohlar uchun katta miqdordagi to'lov oladi.

EIS tomonidan to'plangan ballar salohiyatni baholash uchun hududning mavjud tuzilmalari va xususiyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. 2.2-jadval mahlumotlariga ko'ra, tadqiqot o'tkazilgan hududlarning deyarli barchasi belgilangan mezonlarning 1.3 da 3 balldan, 3.1 da 3 balldan, 3.5da 2 balldan, 4.5 da 3 balldan, 5.3 da 3 balldan, 6.4 da 2 balldan, 7.3 da 2 balldan ballarni yo'qotdi. Ushbu tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, hududlarning EISni baholashda juda yuqori ballarga erishilmagan bo'lsa-da, hududlar ballar bo'yicha joylashtirilishi mumkin va uchta hudud (Farg'ona, Quvasoy, Xonobod) ekoturizmning o'rta markazlari sifatida tanlab olinishi mumkin. Ushbu tadqiqot quyidagi natijalarni berdi, sayyohlarning ehtiborini kuchli markazlar jalb qiladi.

Shunday qilib, o'rta markazlar, kuchsiz markazlarga, ularning zaif tomonlariga ishlash bo'yicha ko'rsatma bera oladilar. O'rta markazlarni, yuqori salohiyatli hududlarga aylantirish lozim va zaif markazlarni esa ustida ishlash kerak. Ushbu tadqiqotda olingan natijalar, ekoturizmni aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar uchun ko'rsatma berish xususiyatiga ega bo'lib, ayniqsa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar uchun potentsial hisoblanib, ushbu potentsialdan turizmning barqaror shaklini rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin.

1.1.paragrafda tahlil qilingan ekoturizmning istiqbolli yo'nalishlarini EIS usulida baholangan ekoturistik jihatdan yuqori salohiyatga ega 9 ta hududlarda ekologik yo'nalish doirasida turistik klasterlarni yaratish imkoniyati mavjud; Xususan, 2.2.10-jadval mahlumotlariga ko'ra, EH (Ekoturistik hududlar): 1.Farg'ona shahri, 2. Quvasoy shahri, 3.Qiziltepa qishlog'i, 4. Xonobod shahri, 5. SHirmonbuloq qishlog'i, 6. Tosh ota qishlog'i,7. Nanay qishlog'i, 8. Bog'iston qishlog'i, 9. CHodak qishlog'i.

**EF (Ekoturizm faoliyati) *Ilmiy turizm:* A-animalwathing-Hayvonlarni kuzatish, o'rganish,EE-eko-etnoturizm, B-Botanik

turizm, (o'simliklar bilan bog'liq ekskursiyalar), IT-Ixtiologik turizm(Baliq ilmini o'rganish), GT- Geologik turizm:

*Kognitiv turizm:* EA-Eko-agroturizm, SHB-SHifobaxsh buloqlarni o'rganish turizmi, MT-Marosim va voqealar turizmi, FT-Fototurizm, UT-Uyg'unlashgan turizm, G'T-G'or turizmi, B-Birdwatching-qushlarni tomosha qilish:

*Rekratsion turizm:* QT-Qishloq turizmi, MGT-Meva va giyohlar turizmi, $B_1$-Baliq ovi, $B_2$-Havaskorlarning qo'l ovi, ET-Ekovolonturizm, R-Rafting(suv turizmi), T-Treking(tog' turizmi), K-Karving(mevalar, gullar, sabzavotlar guldastasi), O'-O'rmon turizmi, O-Otda sayohat qilish, V-Velosipedda sayohat.

**2.2.10-jadval**

**Farg'ona vodiysining ekologik yo'nalishidaturistik klasterlar barpo etish imkoniyatlari[117]**

| EH* | EF** | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ILMIY | | | | | KOGNITIV | | | | | | | REKREATSION | | | | | | | | | |
| | A | E | B | I | G | EA | SH | M | F | U | G' | B | Q | MG | $B_1$ | $B_2$ | ET | R | T | K | O' | OV |
| | EKOTURIZM | | | | | EKOTURIZM | | | | | | | EKOTURIZM | | | | | | | | | |
| 1. | X | | | | | | | X | X | X | | | X | | | | | | | X | | |
| 2 | | | | | | | | X | X | X | | | | X | | | | | | X | | |
| 3. | | | | | | X | X | X | X | X | | | | X | | | | | | X | | |
| 4. | | | | | | | | X | X | X | | X | | | X | X | | | | X | X | X |
| 5. | | | | | | X | | X | X | X | | | X | X | | | | | | X | | |
| 6. | | | | | | X | | X | X | X | | | X | X | | | | | | X | | |
| 7. | | X | | | | X | | X | X | X | | | X | X | | | | X | X | X | | X |
| 8. | | | | | | X | | X | X | X | | | X | X | | | | | | X | | |
| 9. | | X | | | | X | | X | X | X | | X | X | X | | | | | X | X | X | |

Yuqoridagi tadqiqot jarayonlarida hududning ekoturistik salohiyatini yuksaltirish maqsadida Farg'ona-Andijon-Namangan yo'nalishida ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish, (to'liq tasnifi №4-ilovada keltirildi) ekoturizm bo'yicha qo'llanmalarni tayyorlash va transport, sog'liqni saqlash, ichimlik suvi inshootlari va kanalizatsiya tizimlari, shuningdek dam olish uchun infratuzilmani barpo etish va eng muhimi ekoturizm faoliyatini rivojlantirishda

[117] Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlarining hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmalari ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

muhim sub'ekt hisoblangan mahalliy aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bu doirada ustuvor ahamiyat kasb etadigan muammolardandir.

## 2.3-§. Ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy aholi salohiyatidan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish.

Xalqaro ekologik markazlarning (YuNESKO, YuNEP, MSOP, VOZ, FAO, MAGATE, BTT, EKOSAN) xulosalariga ko'ra, global ekologik muammolarni hal qilishda insonni ekologik madaniyatli qilib tarbiyalash eng muhim amalga oshiriladigan tadbirdir. SHu jumladan, ekoturizm rivojidagi muhim subhektlardan biri hisoblangan mahalliy aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish ham muhim o'rin tutadi.

Rivojlangan mamlakatlarda 1960-yildan buyon turizmning keskin rivojlanishi insonlar yashash tarzining yuqori darajaga o'zgartirishni tahminlab beruvchi iqtisodiy potentsialga aylandi[118]..

1960-1970-yillarda sayyohlik sanoatidagi yetakchi mamlakatlarning nisbiy muvaffaqiyati, yahni, iqtisodiy jihatdan rivojlanib borishi siyosatchilar va soxa rejalashtiruvchilarini hayratda qoldirdi.[119] Ular ushbu sanoatning asosan iqtisodiy jihatlariga ehtiborni qaratdilar, lekin, uning ijtimoiy-ekologik tahsir darajasi u qadar o'rganilmadi.[120] Turizm sanoatida ekologik turizm yo'nalishining asosiy vazifasi mahalliy aholining o'z ijtimoiy hayotini yaxshilash orqali sayyohlarga xizmat ko'rcatish va atrof-muhitni muhofaza etish bo'lishi lozim[121].

1980-yillaridan boshlab esa ekologik muammolarning kuchayib borishi, ekologik harakatlar shaklidagi turizmni yuzaga

---

[118] Balkaran, R., & Maharaj, S. (2014).A comparative analysis of the South African and global tourism competitiveness models with the aim of enhancing a sustainable model for south Africa.Journal of Economic and Behavioural Studies, 6(4), 273-278.
[119] Getz, D. (1987).Tourism planning and research: Traditions, models and futures. Australian Travel research workshop, Bunbury, Western Australia, Vol. 5, No. 6,
[120] Mowforth, M., & Munt, I. (2008).Tourism and sustainability: Development, globalization and new tourism in the third world.Routledge.
[121] Weaver, D. (1998).Ecotourism in the less developed world.Cab International, 64-78.

keltirgandi. Ushbu xolatga nisbatan, chora-tadbirlar va muqobil aniq yondashuvlar sifatida iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik maqsadlarning paydo bo'lishi ekoturizm nomini olgandi.[122] So'nggi bir necha o'n-yilliklarda turizmning yangi shakli sifatida "ekologik turizm" siyosatchilar tomonidan mahalliy aholining turmush darajasini oshirish[123] va atrof-muhitni qo'llab-quvvatlashning samarali vositasi sifatida keng tan olingandi.[124] Shu bilan birgalikda, qo'shimcha tarzda turizm sanoatini barqaror rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan turistik yo'nalishdir deya baholandi.

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlangan 2.2-paragrafdagi umumiy muammolarni 2 muhim jihatga ega bo'lgan muammolarga guruhlaymiz; yahni

1.Boshqaruv sohasidagi muammolar

- boshqaruvning sustligi tufayli murakkabliklar;
- samarasiz tartibga solish tizimi;
- ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi cheklangan bilimlar;

2.Iqtisodiy muammolar

- mablag' yetishmasligi;
- cheklangan institutsional imkoniyatlar;
- iqtisodiy potentsialning yetishmasligi

yuqoridagilar tarmoq rivojidagi muhim to'siqlardir.

Bundan tashqari, ekoturizm barqarorlikni talab qilib, tubjoy aholisi va sayyohlar o'rtasidagi adolatli munosabatlarni yo'lga qo'yilishi lozim. Rejalashtirish jarayonida quyidagi asosiy printsiplarni hisobga olish lozim bo'ladi:

-rejalashtirish jarayonini to'g'ri baholay bilish;

-ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarish;

-ekoturizmda marketing siyosatini to'g'ri yuritish;

---

[122] Wearing, S., & Neil, J. (2008).Ecotourism: Impacts, potentials and possibilities.UK: Elsevier Science.

[123] Brooks, J., Franzen, M., Holmes, C., Grote, M., & Borgerhoff, M. (2006).Testing hypotheses for the success of different conservation strategies. Conservation Biology, 20(5), 1528–1538.

[124] Kiper, T. (2013).Role of ecotourism in sustainable development.

Yuqoridagilarga ahamiyat bermaslik va noo'rin yondoshuvlarni qabul qilish, shuningdek, ekoturizm tushunchasini maxalliy aholining noto'g'ri tushunish kabi muammolar sohaning barqaror rivojidagi to'siqlardir. Eng katta muammo esa, mahalliy aholining sayyohlikni rejalashtirish va qarorlar qabul qilishdagi roliga ahamiyat bermaslikdir.[125] Ushbu jarayonda pastdan-yuqoriga yondoshib turizmni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, rejalashtirish jarayonida va daromadlarni teng taqsimlashda mahalliy aholining faol guruhlarning ishtiroki muhim rolg' o'ynaydi.[126]




**2.3.1-rasm.Ekoturizm rivojida mahalliy aholi bilan bog'liq bo'lgan muhim vazifalar[127]**

Mahalliy aholi qanchalik tez ekoturizmdan iqtisodiy manfaat ko'ra boshlasa, shunchalik bu soha yo'nalishida faol ishtirokchiga aylanadi. Buning uchun turistik xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini barpo etayotgan mahalliy aholiga mol-mulk soliqlaridan yengilliklar yaratib berish lozim bo'ladi. Shuningdek, dastavval, ekoturistik hududlarda mahalliy aholi sayyohlarga necha xil turdagi xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini taqdim eta olishini aniqlash ishning muhim qismidir.

[125] Hall,C.M.(2008).Tourism planning: Policies, processes and relationships.Pearson Education.
[126]Hall, C.M., & Page, S. J. (2014).The geography of tourism and recreation: Environment, place and space.Routledge.
[127] Tadqiqotchi ishlanmasi.

Bizning fikrimizcha, ekoturistik hududlarda ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida maxalliy aholi bilan bog'liq bo'lgan quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish lozim. 2.3.1-rasmda aks ettirildi;

Ekoturizmni muvaffaqiyatli boshqarish uchun to'g'ri siyosatni amalga oshirish,[128] hududdagi mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash[129] ularga imkoniyatlar berish[130], [131], [132] muvaffaqiyatga erishishga yetaklaydi, natijada mintaqaviy ekoturizm barqaror rivojlanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlarimizdan mahlum bo'ldiki, ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun rejalashtirish jarayonlarini pastdan yuqoriga qarab rejalashtirish ko'proq samarali natija berishligi kuzatiladi. Yahni, maxalla, qishloq, tuman, viloyat va mintaqalar kesimida. (2.3.2-rasmga qarang)Ushbu yondashuvda davlat rejalashtirish va rivojlanish jarayonining yordamchisi va ishtirokchisi sifatida ko'riladi.

Tahliliy mahlumotlariga ko'rá, ekoturizm sohasidagi salohiyatning pastligi va manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirishning yo'qligi istalgan maqsadlarga erishishda asosiy to'siqlar ekanligi kuzatiladi.[133] Xitoylik tadqiqotchi Fangning Sichuan shahrida ekoturizmni o'rganish bo'yicha olib borgan tadqiqotida (2002) mahalliy hokimiyatning rejalari va chora-tadbirlari, masalan, energiyadan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va tashrif buyuruvchilarning mehyorlash siyosatini amalga oshirish atrof-muhitni muhofaza qilishga ijobiy tahsir ko'rsatishini taxmin qilingan. Xuddi shunday, bu tartibga solishning muhim ahamiyati ekologik barqarorlikni tahminlashda[134] [135] va

128 Orams, M. B. (1995).Towards a more desirable form of ecotourism.Tourism Management,16(1), 3-8.
129 Scheyvens, R. (1999).Ecotourism and the empowerment of local communities.Tourism Management, 20(2), 245-249.
130 Sharpley, R. (2006).Ecotourism: A consumption perspective.Journal of Ecotourism, 5(1&2), 7-22.
131 Sofield, T. H. (2003).Emerald Group Publishing.Empowerment for sustainable tourism development (vol. 7).
132 Stone, M., & Wall, G. (2003).Ecotourism and community development: Case studies from Hainan, China.Environmental Management, 33(1), 12-24.
133 Björk, P. (2007). Definition paradoxes: From concept to definition. Critical issues in ecotourism: Understanding a complex tourism phenomenon (pp. 23–46). Oxford: Elsevier.
134 Dombroski, K. (2005). Exploring the potential of mass tourism in the facilitation of community development. Unpublished master's thesis, Massey University, Palmerston Norteh, New Zealand.
135 Weaver, D. B. (2000).A broad context model of destination development scenarios. Tourism Management, 21(3), 217-224.

mahalliy aholini himoya qilishda mahalliy aholining madaniyati va qarashlari orqali biz ekoturistlar muhim ishtirokchi[136] [137] ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ekoturizmning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligiga yuqoridagilar bevosita tahsir qiladi. Bizning fikrimizcha, turizm operatorlari va Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari ekoturistik hududlarda mahalliy aholini doimiy o'qitishlari lozim. SHuni alohida tahkidlash kerakki, har qanday ekoturizm rejalari va loyihalari uzoq muddatga asoslangan avlodlararo tenglik, rejalashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Tadqiqotning ushbu qismi Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishda maxalliy aholi salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning barchasi odatda milliy boylik hisoblanadi, agar bunday hududlarda ekoturizmni rejalashtirish jarayonini to'g'ri boshqarilsa, muhofaza etish uchun xarajatlar mahalliy aholi tomonidan to'lanadi. SHu sababli tabiatni muhofaza qilish va ekoturizmni birlashtirish ahamiyatlidir. Tabiatni muhofaza qilish loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy jamoalarni rag'batlantirish kutilgan natijani beradi. Ko'pincha mahalliy aholiga iqtisodiy imtiyozlar berilsa, ekoturizm muhofazalangan hududlarda barqaror rivojlanadi. Mahalliy aholining ekoturizmdan foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim iqtisodiy jihatlari–bu yangi ish o'rinlari, infrastruktura bilan bog'liq rivojlanishdir.( masalan, yaxshi yo'l tarmog'i va ichimlik suvi va boshqalar).

Ekoturizm taraqqiyotida mahalliy aholining o'rni kamdan-kam hollarda o'rganiladi, lekin, ushbu yo'nalishda mahalliy aholi alohida o'rin tutib, uning rivojlanishiga sezilarli darajada yordam beradi. Bundan tashqari, ekoturistik hudud atrofida yashovchi aholi ko'pincha ekoturizmdan daromad olishga harakat qilishadi. Lekin ekoturizm barqaror rivojlangandagina, mahalliy aholining hayotiy ehtiyojlarini to'liq qoplaydi. Shuning uchun mahalliy aholi ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy qiymati haqida bilimga ega bo'lishi

---

[136] Whelan, T. (1991).Nature tourism: Managing for the environment.Washington, DC: Island Press
[137] Boo, E. (1990).Ecotourism: The potentials and pitfalls.Washington, DC: World Wildlife Fund

muhimdir. Qachonki, maxalliy aholi ekoturizmni rivojlantirish loyihalariga qo'shiladi, tadqiqot loyihasi samarali bo'ladi. Ekoturizm loyihasini amalga oshirish jarayonida mahalliy aholiga ko'proq foyda berishga qaratilgan qarorlar qabul qilish lozim.

Shu bilan birga, chekka qishloqlarda mazkur tarmoqni bugungi kunda rivojlantirishdagi jiddiy kamchiliklarni tahkidlash joiz, xususan, bandlikni oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish hamda mahalliy byudjetlarni to'ldirishning istiqbolli manbai sifatida xizmat ko'rsatish va servis imkoniyatlaridan kam foydalanilmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi, ayniqsa, qishloq joylarida sust rivojlanmoqda, bu yerda katta kapital mablag' talab qilmaydigan va xususiy tadbirkorlik uchun jozibador bo'lgan ko'pgina anhanaviy xizmat turlari yetarli darajada rivojlanmayapti va qishloq aholisining ulardan foydalanish imkoniyatlari pastligicha qolmoqda.[138] Shu bilan birga ko'rsatilayotgan xizmatlarning erishilgan darajasi va sifati, ayniqsa qishloq joylarda, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar darajasiga, respublika aholisining real talablariga, mavjud resurslar hamda imkoniyatlarga hali mos kelmayapti. Xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, avvalambor qishloq joylarda ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash va buning asnosida mamlakat iqtisodiyotini barqaror va shiddatli rivojlantirishda, aholining bandligini tahminlash, daromadini ko'paytirish va farovonligini yuksaltirishda xizmat ko'rsatish sohasining roli hamda ahamiyatini oshirish maqsadida[139] qishloq hududlarida "...ekologik, tibbiy-sog'lomlashtirish, sport turizmi, shuningdek yakka tartibdagi qishloq mehmonxona uylari negizida agroturizmni o'z ichiga olgan zamonaviy turistik xizmatlar turlarini ustuvor rivojlantirish zonalarini belgilash.."[140] vazifalari qo'yilganligi turizm soxasiga qishloq joylarda ham katta ehtibor qaratish zaruriyatini taqozo

---

[138] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 17.04.2006. PQ 325-sonli Qarori.

[139] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori "2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida" 2012-yil 10 maydagi 1754- sonli Qarori.

[140] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasini qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1957- son Qarori, 2013-yil 17 aprel.

etmoqda. Shu maqsadda ekoturistik hududlarda ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqot ishi Namangan viloyatining Pop tumani Chodak qishlog'ida o'tkazildi.

Shu o'rinda tahkidlash lozimki, respublikamizning yuqori darajada o'zlashtirilgan va hududi kichik bo'lgan 5 ta viloyati tarkibida Andijon(1%), Namangan (1.7%), Farg'ona(1,5) viloyatlarining borligi, ularning aholi soni bo'yicha mamlakatdagi ulushi 36,8%(hudud bo'yicha ulushidan 5,8 marta ko'p), yalpi ichki mahsulot bo'yicha 22,2% (hududdagi ulushidan 4,4 marta ko'p), qishloq xo'jaligi-36,4%(hududdagi ulushidan 5,7 marta ko'p),meliorativ holati yomon bo'lgan yerlar - 28,4%(hududdagi ulushidan 4,4 marta ko'p), viloyatlar hududidagi METHlar maydoni ulushi atigi -1,2%(respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (5,1%)4,3 marta kam), sho'rlanish darajasi 33,3%ga(respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (50,5%) 17,2% kam) teng. Mazkur viloyatlarda aholi zichligi 395,7 kishi/km$^2$ bo'lib, bu respublika o'rtacha ko'rsatkichidan (69,1 kishi) 5,7 marta ko'p. Bu ko'rsatkichlar mazkur viloyatlarda tabiatga antropogen bosimining ancha yuqoriligini va bu holat, o'z navbatida, tabiatni asrash va muhofaza qilish bo'yicha ko'plab tadbirlarni amalga oshirishni obhektiv zaruratga aylantiradi.[141]

Tadqiqotning maqsadi, ekoturizmni rivojlantirish loyihasini qo'llab-quvvatlovchi o'z hissasini qo'shishga tayyor aholining taxminiy miqdorini aniqlab topishdir. Tadqiqot obhekti sifatida Namangan viloyati Pop tumanining Chodak qishlog'i tanlab olindi. Chodak ekoturizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan qishloqdir. Hududi 80 gektar, aholisi 29 000 kishini tashkil etadi. O'rmon xo'jaligi va past tekisliklardan iborat. O'rmon hududida turli giyohlarni yig'ish va qushlarni ko'rishdan tashqari eko sayyohlar uchun yurib sayohat qilish, sport bilan shug'ullanish, qayiqda tomosha qilish uchun imkoniyatlar mavjud. Bahzi tarixiy

---

[141] O.X.Xamidov., O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar., T; Iqtisodiyot 2016-yil.,Monografiya, 83-bet.

manbalarda qayd etilishicha, milodiy 529-yillarda ushbu ekoturistik hududda maxsus ovchilik sir-asrorlarini o'rgatadigan maktab ochilgan. Angor(Anqara) oq echkisining zoti aynan shu yerda yaratilgan.[142] Ushbu qishloq aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligi soxasi hisobiga kun ko'radi. Chorvachilik, qoramolchilik, qo'ychilik va echkichilik yaxshigina rivojlangan. Xonobod deb nomlanuvchi alohida hududi echki yetishtirish, parvarishlash, undan qo'l mehnatiga asoslanib, maxalliy mahsulotlar tayyorlab, uzoq xorijiy mamlakatlarga yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Lekin tabiatdan turistik jihatdan foydalanish umuman yo'lga qo'yilmagan. Iqtisodiyotning ekoturizm soxasida xizmat ko'rsatish sifati yaxshilansagina, mahalliy aholi ko'proq ekoturizmda ishtirok etish va undan foydalanishi mumkin.

Ushbu hududda Abu Ali ibn Sino nomli davlat ixtisoslashtirilgan o'rmon xo'jaligi (hududda ekoturizmning tog' turizmi, dorivor giyohlarni terish, o'rmon turizmi, uyg'unlashgan turizm yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud) atrofida yashovchi maxalliy aholining 500 tasidan shaxsiy interg'vyular o'tkazildi. Hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun har bir oila o'rtacha-yillik daromadining 1%ini berishga tayyor.

Yuqoridagilarni inobatga olgan xolda, mahlumotlar to'plashda standartlashtirilgan yuzma-yuz suhbatlar sinovdan o'tkazildi. O'rganish maydonida senyabrg' oyida 100 ta tasodifiy tanlangan shaxslarni qamrab olgan edi. Katta miqdordagi so'rov oktyabrg' oyida o'tkazildi. Ko'chalarning har biridagi uylar har bir qishloq ziyorat qilindi. Har bir tanlangan uyda eng katta erkak va ayoldan interg'vyu olindi. Suhbatlar tojik va o'zbek tilidan o'tkazildi.Tadqiqot soxasidagi respondentlar (har bir mahalladan 100 nafar respondent)dan jami 500 ta respondentdan interg'vyu olindi. Tadqiqot ishtirokchilarga demografik savollar berildi.

---

[142] "Путешестие Чжан Цзянь-Циян по Даванцы II-I в.в. до нашей эры" Chjan Szyanь-Tsiyanning eramizdan avvalgi II-I asrlarda Dovonli davlatiga sayohati nomli kitobidan.

Ushbu tadqiqot loyihasi ekoturizm xizmatlarining sifatini yaxshilash va Chodakka ko'proq ekosayyohlarni jalb etish uchun ishlab chiqilgan. Bu mahalliy aholiga ekoturizmdan daromad olishga ko'proq imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, yaxshi yo'l tarmog'i kabi infratuzilmani yaxshilashga yordam beradi. Aholi o'rtasida so'rov o'tkazish orqali hududda ekoturizmni qanday qilib rivojlantirish mumkinligi haqida anketa so'rovidan foydalanildi. Ulardan olingan tarqatmalarga ko'ra, hududda ekoturizm xizmatlarining sifatini yaxshilash uchun mahalliy aholi har qanday yordamni berishga tayyor. Qachonki, mahalliy jamoalar ekoturizmni rivojlantirish loyihalariga faol ravishda qo'shilishadi, mahalliy jamoalarda ko'proq odamlarga foyda berishga qaratilgan qarorlar qabul qilinadi, hududlarda ekoturizm barqaror rivojlanadi.

Barqaror ekoturizmni rivojlantirish kontseptsiyalaridan biri bu- manfaatdorlik va manfaatlarni mahalliy jamoalarga tahminlashdir. Biroq, mahalliy jamoalarning hududda ekoturizm rivojlanishidan qanday foyda olishlarini isbotlash uchun ularda ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining yetarli emasligi kuzatiladi. Pop tumanining ekohududlaridan biri bo'lgan CHodak qishlog'ida ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy aholining iqtisodiy salohiyati o'rganildi. Ekoturizm taraqqiyotining iqtisodiy tahsirini o'rganish jarayonida ekoturizmning ijobiy foydalari mahalliy aholi odatda daromad olish, ish bilan tahminlanish nuqtai nazaridan qarashlari mumkin bo'lgan imkoniyatlar, biznes imkoniyatlari va boshqalar bo'lishi mumkin. Biz olib borayotgan tadqiqotning maqsadi, ekoturistik hududlarni kengaytirish, asrab-avaylash, infratuzilmalarni takomillashtirish orqali bir-biriga chambarchas uyg'unlikda, jamoaviy tarzda moliyaviy qo'llab-quvvatlab yaxlit rivojlantirishdan iboratdir. Tadqiqot jarayoni 5 bosqichda amalga oshirildi. Bular quyidagilar;

**1-bosqich. Tajriba-eksperimentning maqsadini belgilash.**

Farg'ona vodiysida ekologik muammolarni xal etish va bioxilma-xillikni saqlash maqsadida byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi[143] faoliyatini tashkil etishni nazarda tutgan xolda moliyalashtirish hisoblanadi. Ekoturizmni rivojlantirishda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish masalalariga jiddiy yondoshish, seminar-trening, yakka tartibda targ'ibot-tashviqot qanchalik muhimligiga aniqlik kiritib, uning ijobiy natijalarini ilmiy asoslashdan iboratdir. Hududda Namangan viloyatining ekoturistik qishlog'i bo'lgan Chodak qishlog'ida tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bevosita moliyaviy mablag'larga tegishli bo'lgan empirik tadqiqot o'tkazildi. Chodak qishlog'iga qarashli bo'lgan 5 ta maxalla Bayon, SHayxon, Maydon, Istiqlol, Bog'ishamol kabi maxallalarda har bir maxalladan 100 tadan oilalarga tashrif buyurildi. Obhektda respondentlar soni 500 tani tashkil etdi; respondentlardan yuzma-yuz so'rovlar o'tkazildi.

**2 - bosqich. Eksperiment shartlarini aniqlashtirish.**

Tadqiqotni xolis, adolatli o'tkazish maqsadida respondentlar fikr-mulohazalari va takliflariga tayangan xolda istiqbolda soxani rivojlantirish prognozlarini belgilash hisoblanadi. So'rovnomani har bir ixtiyoriy kirib borilgan oila xonadonida eng katta yoshlilar to'ldirib berdilar. (ayol va erkak) Ayni kunda hududda Bayon - 1172 nafar oila, SHayxon - 998 nafar oila, Maydon - 601 nafar oila, Istiqlol - 916 nafar oila, Bog'ishamol maxallasida - 710 nafar, jami - 4397 nafar oilalar istiqomat qiladi. Siz "Atrof-muhit muhofazasi uchun ekoturizmni rivojlantirish loyihasi" da qatnashishga rozimisiz? degan taklif berilib respondentlar qo'llariga tarqatildi;

Hududdagi maxalliy aholini ekologik madaniyatini yuksaltirish, dahldorlik hissini jonlantirish, ona tabiatga nisbatan birdek mashullikni oshirish orqali ekoturistik hududlarni jamoaviy tarzda moliyalashtirishni tashkil etishni tajriba-sinovdan o'tkazishdan iboratdir.

---

143 O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Turizm to'g'risidagi Qonunining yangi taxriri. Toshkent shahri, 2019-yil 18 iyulь № ORQ- 549.

2.3.1-jadval

**"Atrof-muhit muhofazasi uchun ekoturizmni rivojlantirish" loyihasi anketa-so'rovnomalari**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | mahlumotingiz | o'rta, maxsus, oliy, undan keyingi(tagiga chizing) | | | |
| 2. | kasbingiz | | | | |
| 3. | respondent jinsi | erkak | | ayol | |
| 4. | Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi deganda nimani tushunasiz? | | | | |
| 5. | Hududda sizningcha ekoturizmni xalqaro darajada qanday rivojlantirish mumkin? | | | | |
| 6. | Ekoturizm xizmatlarining sifatini yaxshilash uchun qanday yordam berishga tayyorsiz? | | | | |
| 7. | O'rtacha-yillik daromadingiz | | | | |
| 8. | Yillik daromadingizni qancha qismini hududda ekoturizmni rivojlantirishga qo'shishga rozisiz? | 0% | 1% | 3% | ixtiyoriy |

**3 - bosqich. Hisob-kitob natijalarini aniqligini hisoblash**

3 kunlik seminar-treningdan so'ng 500 ta respondentlardan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, umumiy respondentlar sonining 4%izi, yahni 20 kishi hech qanday yordam bermasligini aytib bosh tortdi. 6% respondent, yahni 30 kishi-yillik daromadining 1% hissa qo'shishga, 9 foizi, yahni 45 kishi qo'ldan keladigan har qanday yordamni va 30%gacha daromad qo'shishga tayyor ekanligi aniqlandi. 69% respodentlar, yahni 345 ta respondent 3%gacha-yillik daromadini qo'shishga tayyorlar.

**4 - bosqich. Tajriba natijalarini statistik qayta ishlash.**

3 kun davomida qishloq hududida aholidan yuzma-yuz suhbat o'tkazildi.

Respondentlardan olingan natijalarga ko'ra, Chodakda istiqomat qiluvchilarning o'rtacha-yillik daromadi 12 mln. so'mni tashkil etadi.

**5 - bosqich. Natijalarning izohi.**

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra so'rovnomaning takliflaringiz va sizning imkoniyatlaringiz degan bandini respondentlar to'ldirib berdilar. (2.3.2-jadvalga qarang). 69% eng yuqori natijaga ega bo'gan respondentlarning o'rtacha-yillik daromadini aniqlaymiz, yahni 12 mln. co'mni tashkil etadi. 345 ta respondentlar soniga faraziy mahlumotlarimizdan ko'rinadiki, 345 ta respondent,-yiliga 330 000 ming so'mdan ekoturizm xizmatlarini yaxshilash uchun hissa qo'shishi mumkin. 345X330 000=113 mln.850 ming so'm bu-yillik ekoturizm xizmatlarini yaxshilash uchun mahalliy aholining qo'shishi mumkin bo'lgan daromad. 2.3.2-jadvalga asoslanib, qishloqda istiqomat qiluvchi jami oilalar sonini keltirib chiqaramiz, aholining ekoturizmni rivojlantirish uchun qo'shishi mumkin bo'lgan summani aniqlaymiz.

Istiqomat qiluvchi oilalar soni 4397 ta – 100%

X - 69 %, X=4397X69: 100=3030 ta oila

**2.3.2-jadval**

**Chodak qishlog'ida o'tkazilgan tadqiqot natijalari[144]**

| № | Respondentlarning imkoniyatlari | jinsi | o'tkazilgan so'rov natijalari | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 0% | | 1% | | 3% | | ixtiyoriy% | |
| | | | soni | % da | soni | % da | soni | % da | soni | % da |
| 1 | Xech qanday yordam berishni xohlamaydi | jami | 35 | *7* | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| | | erkak | 4 | *0,8* | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| | | ayol | 31 | *6,2* | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| 2 | Yillik daromadining 1%i | jami | 0 | *0* | 45 | *9* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| | | erkak | 0 | *0* | 12 | *2,4* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| | | ayol | 0 | *0* | 33 | *6,6* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| 3 | Yillik daromadining 3%i | jami | 0 | *0* | 0 | *0* | 360 | *72* | 0 | *0* |
| | | erkak | 0 | *0* | 0 | *0* | 324 | *65* | 0 | *0* |
| | | ayol | 0 | *0* | 0 | *0* | 36 | *7,2* | 0 | *0* |
| 4 | Yillik daromadning 30%gacha | jami | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* | 60 | *12* |
| | | erkak | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* | 60 | *12* |
| | | ayol | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* | 0 | *0* |
| | jami | | 35 | *7* | 45 | *9* | 360 | *72* | 60 | *12* |

144 O'tkazilgan so'rovnomalar natijasida tadqiqotchi ishlanmasi.

1-yilda xududda ekoturizmni rivojlantirish uchun kelib tushishi mumkin bulgan daromad, yahni mahalliy jamoaviy tarzda 1 001 196 900 ekoturistik hududlarni barpo etish jarayonida eng dolzarb muammolardan biri moliyaviy mablag'lar hisoblanadi;

Ushbu tadqiqot jarayonida olingan natijalar ekoturizmning barqaror boshqaruvini amalga oshirishda yordam berib, soha rivojiga mahalliy aholini o'z hissalarini qo'shishga tayyorlik, daromad, va atrof-muhitni muhofaza qilish guruhiga ahzo bo'lish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Shu o'rinda ekoturistik hududlarda turistlarga xizmat ko'rsatish hajmi indikatorlari quyidagi formula yordamida hisoblangan bo'lsa,[145]

$$P^{s}oviz=\frac{NtourxT}{Tseas}$$

$P^{s}oviz$ - hududga bir kunda turistlarga xizmat ko'rsatish hajmi indikatori

T - o'rtacha sayohat kunlari, ***Tseas*** – turistik mavsum kunlari

Nanay ekoturistik hududiga ekoturizm hisobiga mahalliy aholiga kelayotgan daromad miqdorini quyidagi formula yordamida hisoblaymiz,

Hududdagi oilaviy mehmon uylari soni – 39 ta,

Turistik mavsum kunlari – 90 kun

1 ta oilaviy mehmon uyining qabul qilish sig'imi – 10 nafar sayyoh

1 kechalik o'rtacha tunash narxi – 25 ming so'm,

***Tseas*** – turistik mavsum kunlari

$$Etour_{Inc}=P_{avge}xC_{avge}xTseas$$

bu yerda:

$Etour_{Inc}$ – mahalliy aholiga kelayotgan daromad miqdori

$P_{avge}$ – o'rtacha tunash narxi, $C_{avge}$ –qabul qilishi sig'imi,

***Tseas*** – turistik mavsum kunlari,

Hududdagi oilaviy mehmon uylari soni – 39 ta,

Turistik mavsum kunlari – 90 kun;

1 ta oilaviy mehmon uyining qabul qilish sig'imi – 10 nafar sayyoh.

---

145 Pardayev A.X., Norchayev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm, o'quv qo'llanma, Toshkent – 2011, 95-bet.

1 kechalik o'rtacha tunash narxi – 25 ming so'm.

$E^1\ tour_{Inc}$ = 1 ta oilaviy mehmon uyining jami daromadi

$E^1\ tour_{Inc}$ = 25 000 x10x90 = 22 500 000

$P_{real} = E^1\ tour_{Inc} - Exp$

$P_{real}$ – sof foyda, ***Exp*** – xarajatlar

1 nafar mehmon uyining jami xarajatlari

Daromad solig'i – 600 000 so'm (1-yillik to'lov)

Jamg'arib boriladigan pensiya jamg'armasi to'lovi uchun – 1332 000 so'm

(1-yillik to'lov)

O'tin uchun sarf–xarajatlar – 720 000 so'm (90 kunlik mavsum uchun)

Elektr uchun ketadigan - 900 000 so'm (90 kunlik mavsum uchun)

$P_{real}$ = 22 500 000–3 552 000 =18 948 000

Nanay qishlog'i maxalliy aholisiga ekoturizmdan kelayotgan daromadni quyidagi formula yordamida hisoblaymiz;

$Loc_{Inc} = p_{real} x Nhot_t$

$Nhot_t$ – hududdagi jami oila mehmonxonalari soni

$Loc_{Inc}$ = 738 972 000 demak, mahalliy aholining ekoturizm hisobiga qo'shimcha daromadi 738 mln. 972 ming so'mni tashkil etadi.

Tadqiqotda bir mavsumda mahalliy aholining ekoturizmdan ko'rayotgan daromadlarini aniqlash mexanizmi ishlab chiqilgan. Ushbu mahalliy aholining ekoturizmdan olayotgan daromadlarini aniqlash mexanizmini boshqa hududlarga ham tadbiq etish orqali, hududdagi umumiy mahalliy aholi daromadlarini aniqlash imkoniyati kelib chiqadi.

Shunday qilib, mahalliy aholining ekoturizmdan iqtisodiy rag'bat ko'rishi ularning faol harakatini tahminlab beradi, yahniki ekoturistik hududda sayyoh uchun sayohat qilishning yana qanday turlarini tashkillashtirish haqida izlanadi. Hududda raqobat vujudga keladi. Bu esa o'z-o'zidan hududga tegishli bo'lgan ekotizim ehtiyotlanadi, mahalliy aholiga iqtisodiy ko'mak, mahalliy aholi va sayyohlar o'rtasida mo'htadil munosabatlar, xalqaro darajadagi

salomatlikka ko'maklashish, mamlakatimizning turizm soxasidagi yangi yo'nalishi bo'yicha barqarorligini tahminlab berishi kuzatiladi. Ushbu yo'nalishdagi o'tkazilgan muvaffaqiyatli tadqiqotlarga asoslanib, ekoturistik hududlarda "**Ekoturizmni rivojlantirish jamg'armalari**"ni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin bu sohada ekoturistik obhektlardan samarali foydalanishdagi muammolarni bartaraf etish va uning dastlabki ustuvor yo'nalishlarini aniqlash shu kunning dolzarb muammosidir.

## Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot jarayonida II-bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi;

1.Farg'ona vodiysi har bir viloyatlarini turistik salohiyati chuqur o'rganilib, turistik salohiyat jihatidan yuqori salohiyatga ega bo'lgan hudud ekanligi aniqlandi. Hududning turistik obhektlari umumlashtirildi va ushbu obhektlardan istiqbolda bu sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

2.Ekoturistik jihatdan salohiyatli tumanlar hisoblangan hududlarda mehmonxona va joylashtirish vositalari va turoperatorlar faoliyati qoniqarli darajada emasligi va ularning faoliyatni yo'lga qo'yish lozimligi aniqlandi.

3. Ekoturizm bevosita ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga taalluqli bo'lganligi sababli hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasida alohida ekoturizm bo'yicha mashul shaxs faoliyatini yo'lga qo'yish uchun shtat ajratish lozim.

4. Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyati yuqori bo'lgan hududlari EIS usulida asosiy mezonlar va quyi mezonlardan foydalangan xolda baholanib, hududdagi eng yuqori salohiyatli hududlari ham EIS mezonida belgilangan yuqori talablarga javob bermasligi, saralab olingan 9 ta hududdan 3 tasi o'rta salohiyatli hududlar, qolganlari zaif hududlar ekanligi aniqlandi.

5. Hududning ekoturistik salohiyatini oshirish uchun mezonlar bo'yicha ajratilgan ballarni har birini eng yuqori ko'rsatkichga

chiqarish orqali hududning ekoturistik salohiyatini yuksaltirish zarur.

6. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hududlarning EISni baholashda hududlar ballar bo'yicha joylashtirilishi mumkin va uchta hudud(Farg'ona, Quvasoy, Xonobod) ekoturizmning o'rta markazlari sifatida tanlab olinishi mumkin. Aniqlangan o'rta markazlar, kuchsiz markazlarga, ularning zaif tomonlariga ishlash bo'yicha ko'rsatma bera oladilar. O'rta markazlarni, yuqori salohiyatli hududlarga aylantirish lozim va zaif markazlarni esa ustida ishlash kerak.

7.Tadqiqot jarayonida ekoturizmni rivojlantirishda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish masalalariga jiddiy yondoshish, yakka tartibda targ'ibot-tashviqot qanchalik muhimligiga aniqlik kiritib, uning ijobiy natijalarini ilmiy asoslandi. Hududda Namangan viloyatining ekoturistik qishlog'i bo'lgan CHodak qishlog'ida tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bevosita moliyaviy mablag'larga tegishli bo'lgan empirik tadqiqot o'tkazildi va ijobiy natijalarga erishildi.

8. Bizning fikrimizcha, turizm operatorlari va tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari ekoturistik hududlarda mahalliy aholini doimiy tarzda o'qitishlari lozim. Har qanday ekoturizm rejalari va loyihalari uzoq muddatga asoslangan avlodlararo tenglik, rejalashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

9. O'tkazilgan tadqiqotlarimizdan mahlum bo'ldiki, ekoturizmni barqaror rivojlantirish uchun ` rejalashtirish jarayonlarini pastdan yuqoriga qarab rejalashtirish ko'proq samarali natija berishligi kuzatiladi. Yahni, mahalla, qishloq, tuman, viloyat va mintaqalar kesimida. Ushbu yondashuvda davlat rejalashtirish va rivojlanish jarayonining yordamchisi va ishtirokchisi sifatida ko'riladi.

Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Farg'ona vodiysiga tegishli viloyatlar va tumanlar miqyosida yuqoridagi tadqiqot natijalarini amalga oshirish va ularning sayyohlik imkoniyatlarini tadqiq qilish,

rejalarini tuzish va istiqbollarini belgilash orqali rejali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Farg'ona vodiysi tarkibidagi viloyatlar, unga tegishli shaharlar va tumanlar tabiati, ijtimoiy holati va iqtisodiy infratuzilmasi bir-biridan keskin farq qiladi va shuning uchun ham ekoturizmni rivojlantirishda ularning har biriga alohida yondashish lozim.

# III BOB. FARG'ONA VODIYSIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

## 3.1-§. Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish ob'ektlaridan samarali foydalanish muammolari

Bugungi kunda ekoturizmni rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifa ekoturistik rekratsion hududlarni shakllantirish, yahni mintaqada yuqori ixtisoslashgan dam olish va davolanish zonalarini yaratishdir. Mintaqaning noyob tabiati va ekologiyasi har birining maydoni kamida 200 gektarni tashkil etadigan 10 tagacha joyni aniqlash imkonini beradi.

Shu o'rinda, tahkidlash joizki, 2002-yil may oyida Kvebekda (Kanada) BMT ning atrof-muhit dasturi (YuNEP) va Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) bilan birgalikda o'tkazgan konferentsiyasida 132 mamlakatdan 10 mingdan ziyod delegatlar, davlat, shaxsiy va nodavlat sektor vakillari qatnashdilar. Unda ekoturizmning rivojlanish tamoyillari Kvebek deklaratsiyasida aks ettirildi.[146]Ushbu sammitda soxani rivojlantiruvchi eng muhim qoidalardan biri etib mahmuriy davlat yoki kichik birliklar doirasida ularning ekoturistik imkoniyatlarini belgilash birlamchi metod sifatida kiritildi. Ular har bir joyning yoki ekotizimlarning regional ahamiyat kasb etishi va ularni baholashda sayyohlikning turi va tipiga qarab ajratishni mahqul deb bildilar.

O.Xamidov tahkidlaydiki,[147] Farg'ona vodiysi hududining kichikligi, (mamlakat hududining 4,2%)tashkil etishligi, METHlardan atigi 3 ta tabiat yodgorliklarining mavjudligi, aholining zichligi tufayli antropogen tahsirning yuqoriligi mazkur viloyatlarda tabiatni asrash va muhofaza qilish bo'yicha ko'plab tadbirlarni amalga oshirishni obhektiv zaruratga aylantiradi.

---

[146] https://www.gdrc.org/uem/eco-tour/quebec-declaration.pdf

[147] O.X.Xamidov., O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar., T; Iqtisodiyot 2016-yil.,Monografiya, 82-bet.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan xolda, bizning fikrimizcha, Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishda qo'shimcha tarzda quyidagi obhektlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini yo'lga qo'yish hududda ekoturizm rivojidagi muhim jarayondir. Belgilangan obhektda tadqiqot o'tkazish jarayonida va ilmiy izlanishlarimiz natijasida qator obhektlarni ekoturizmni rivojlantirishga sezilarli tahsir qilishi aniqlandi. Mintaqadagi yuzaga kelayotgan tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari qatorida, Farg'ona, Marg'ilon va boshqa yirik sanoat korxonalari joylashgan shaharlar kiradi.[148] Jumladan, Qo'qon, Andijon kabi shaharlar ham shular jumlasidandir. Bu hududlarda ijtimoiy-ekologik vaziyat yaxshi emas. Sanoat markazlarida ishlab chiqarilgan turli gazlar va chiqindilar atrof-muhit xolatining yomonlashishiga olib kelmoqda. Ushbu xolatni oldini olish maqsadida flora va faunani muhofaza etish, ularni qayta tiklash chora-tadbirlarini ko'rish, yahni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali ekoturizmni rivojlantirishga erishish mumkin bo'ladi.

Ekoturizm mintaqaning istirohat bog'larida, o'rmon xo'jaliklarida, intensiv ekobog'larda, shuningdek, tog'li, adirli hududlarida, ixtisoslashgan muassasalarida, shifobaxsh buloq mavjud hududlarda muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Soha rivojidagi samarali foydalanish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlar va unga bog'liq muammolar, ushbu obhektlardan samarali foydalanish mexanizmlarini 3.1.1-rasmda aks ettirildi.

Ushbu modelda Farg'ona vodiysiga tegishli bo'lgan 3 ta hudud bitta tizim va faoliyat ostida muvaffaqiyatli birlashtiriladi. Hududdagi ekoturizmni rivojlantiruvchi obhektlar, mavjud muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari ketma-ket va izchillikda amalga oshiriladi.

---

[148] Geografiya.uz




**3.1.1-chizma. Farg'ona vodiysi viloyatlarini yaxlit ekoturistik hudud sifatida birlashtirib ekoturizmni rivojlantirish modeli[149]**

---

[149] Tadqiqotchi ishlanmasi.

I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mintaqada 3 ta bo'lib, hududi 29,4 km² ni tashkil etadi, lekin ekoturistik hudud sifatida foydalanilmaydi.

II. Farg'ona vodiysida jami Madaniyat va istirohat bog'lari soni 50 dan ortiq bo'lib, ushbu bog'larning barchasi talab darajasida emas. Mahalliy aholiga xizmat qilib kelmoqda, lekin ushbu hududlardan ekoturistik obhekt sifatida foydalanish, istiqbolda ularni xalqaro darajadagi ekoturizmni rivojlantirish uchun yo'naltirish soha rivojida muhim bosqichdir. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshiriladi:

-mavjud har bir madaniyat va istirohat bog'larini soya salqin daraxtlar bilan to'ldirish, yashillikka katta e'tibor berish, landshaft dizayni ustida mutaxassislarni jalb etish, zamonaviy kutubxona, bepul internet aloqalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratib berish lozim bo'ladi, klasterli moliyalash tizimini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi.

III. Hududda ilmiy jihatdan tadqiq etilib, kimyoviy elementlari soha mutaxassislari tomonidan tahlil etilgan shifobaxsh va mineral buloqlar soni 31 ta[150] ni tashkil qilib, Andijonda, Namanganda, Farg'onada jami 125 tani tashkil etib, ushbu hududlar ekoturizmni jadal rivojlantirishning muhim obhektlari sanaladi. Ushbu buloqlar suvidan samarali foydalanib ekoturizmning kognitiv(tafakkur) yo'nalishi uchun muhim obhekt sifatida foydalanish imkoniyati mavjud. Xalqaro mehmonlarni istaklarini o'rganish uchun 2002-yilda dunyoning kichik xashamatli mehmonxonalari tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra amerikaliklarning 54%, avstraliyaliklarning 60% va britaniyaliklarning 87 % sayohatchilari o'zlarining ekologik toza, ekologik sertifikatlangan mehmonxonalarda qolishni afzal ko'rishliklari aniqlandi. Sayohatlar (obhektning joylashuvi maqbul bo'lganligi, xizmat darajasi yuqori va

---

[150] Атлас родников Узбекистана, UNESCO, Ташкент 2006.

narxi maqbul bo'lganligi sababli).[151]. Ekomehmonxona mezonlari to'liq tasnifi (№-3 ilovaga qarang).




**3.1.1-rasm. Namangan viloyati shifobaxsh buloqlar xaritasi**

Hududidagi mavjud mineral va termal buloqlar hisobiga tibbiy turizm va ekoturizmni uyg'unlashtirgan xolda jadal rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.[152] Agar bunday innovatsion ko'p tarmoqli ekomehmonxonalar tashkil etilsa, turizmda mavsumiylikka barham berilib, ekoturizm mavsumini deyarli to'liq-yil davomida tashkillashtirish mumkin. Hududdagi shifobaxsh buloqlarning to'liq tasnifi keltirilgan maxsus qo'llanmaning ingliz tilidagi variantlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi.[153] Shu maqsadda Namangan viloyatining o'ziga xos ekoturistik hududlarini aks ettiruvchi maxsus qo'llanma Namangan viloyatining turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etilib samarali natija berdi.

---

[151] IHEI, Hotels care: Community action and responsibility for the environment, International Hotel Environmental Initiative, UK, 2002.

[152] H.Yoqubjonova, Ecotourism in the economy of the regions, №3(31), forum-nauka.ru

[153] H.Yoqubjonova., O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish omillari va undan samarali foydalanish yo'llari, Biznes-ekspert, №2, 2017. 28-bet.




**3.1.2-rasm. Farg'ona viloyati shifobaxsh buloqlar xaritasi**

Ushbu xaritada aks etgan buloq suvlari shifobaxshlik nuqtai nazaridan ilmiy asoslangan, ayni kunda mintaqa aholisi va boshqa viloyatlardan tashrif buyurgan sayyohlarga xizmat qilib kelmoqda. Istiqbolda investitsiya dasturiga kiritib, mintaqani ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida keltirib o'tilgan shifobaxsh buloq mavjud hududlarda (SPA (Sanitas pro Aqua) keng tarmoqli innovatsion ekomehmonxonalarini barpo etish imkoniyati mavjud. Bu esa mintaqaning ekoturistik salohiyatini xalqaro darajaga olib chiqishga keng yo'l ochib beradi. To'liq tasnifi (№4, №5-ilovalarda keltirildi).

(SPA (Sanitas pro Aqua) mehmonxonalari ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida taklif etishga sabab, ushbu hududlarga talabni shakllantirish loyihalarini ishlab chiqishga zaruriyat bo'lmaydi, chunki talab bugungi kunda infratuzilma mavjud bo'lmasada, tabiiy xolatda mavjud.




**3.1.3-rasm. Andijon viloyati shifobaxsh buloqlar xaritasi**

IV. Hududda hayvonot bog'lari soni 2 ta bo'lib, Farg'ona Milliy hayvonot bog'i 2016-yilda tashkil etilgan, Andijon Milliy Hayvonot bog'i 2019-yilda tashkil etilgan, lekin istiqbolda ular sonini ko'paytirish va hududini kengaytirish lozim. Chunki ekoturizm barqaror rivojida yovvoyi hayvonlarni ko'paytirish, ularga shart-sharoitlar yaratib berish, buyurtmaxonalar tashkil etish bioxilma-xillikni tahminlashga xizmat qiladi. Istiqbolda bu kabi bog'lar sonini ko'paytirib, ularning maxsus veb sahifasini ishga tushirish lozim bo'ladi.[154] SHu o'rinda hanuzgacha, Farg'ona vodiysi hududida qo'riqxonalar, Namangan viloyatida esa Hayvonot bog'i yaratish loyihasi yechimini kutayotgan masala bo'lib qolmoqda.[155]

V. Yaxlit tizim ostida birlashtirilgan modelga ko'ra, hududdagi ishlab chiqarish kuchlarini tahlil etilganda, 3.1.1-jadval mahlumotlaridan Farg'ona vodiysida ishsizlar sonining o'sish tendentsiyalarini tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aholi sonining ortib

[154] H.Yokubjonova, Environmental ecotourism in Uzbekistan innovative way, "Теория и практика современной науки" №3(33) 2018. 110 p.

[155] F.T.Egamberdiev, H.Yo.Yoqubjonova., Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"ilmiy elektron jurnali. №3, may- iyunь, 2018-yil, 10-bet.

borishi natijasida hududdagi ishsizlar soni ham sezilarli ravishda ortib bormoqda.

2018 - 2020-yillarda O'zbekiston hududlarida ishsizlik darajasi statistik ko'rsatkichlarini tahlil qilib, xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda ishsizlik darajasi 1,2 foizga oshdi. 2020-yilda hududda 2019-yilga nisbatan ishsizlikning eng yuqori darajasi Andijon (1,7 foiz), Farg'ona (1,6 foiz), Namangan (1,5 foiz)ga oshganligi kuzatildi. Shu munosabat bilan, daromad va ish bilan bandlikni oshirish uchun turistik salohiyati va ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan hududlarda ish o'rinlari tashkil etish zarur.

**3.1.1- jadval**

**Iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni (2018-2020-yillar)[156]**

| | Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi | ulardan: | | Aholining iqtisoliy faollik darajasi*, foizda | Aholining bandlik darajasi**, foizda | Ishsizlik darajasi, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Iqtisodiyotda bandlar | ishsizlar | | | |
| **2020 y.** | | | | | | |
| O'zbekiston Respublikasi | **14797,9** | **13239,6** | **1558,4** | **73,9** | **66,1** | **10,5** |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 1387,3 | 1236,7 | 150,6 | 75,3 | 67,1 | 10,9 |
| Namangan | 1205,3 | 1078,0 | 127,3 | 71,9 | 64,4 | 10,6 |
| Farg'ona | 1613,9 | 1438,3 | 175,5 | 72,5 | 64,6 | 10,9 |
| **2019 y.** | | | | | | |
| O'zbekiston Respublikasi | **14876,4** | **13541,1** | **1335,3** | **75,0** | **68,3** | **9,0** |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 1413,9 | 1284,5 | 129,4 | 77,2 | 70,2 | 9,2 |
| Namangan | 1214,7 | 1104,6 | 110,1 | 73,2 | 66,5 | 9,1 |
| Farg'ona | 1644,8 | 1492,6 | 152,2 | 74,5 | 67,6 | 9,3 |
| **2018 y.** | | | | | | |
| O'zbekiston Respublikasi | **14641,7** | **13273,1** | **1368,6** | **74,3** | **67,4** | **9,3** |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 1401,6 | 1266,8 | 134,8 | 77,0 | 69,6 | 9,6 |
| Namangan | 1162,6 | 1051,5 | 111,1 | 70,5 | 63,8 | 9,6 |
| Farg'ona | 1606,6 | 1451,0 | 155,6 | 73,1 | 66,0 | 9,7 |

[156] www.stat.uz

Farg'ona vodiysi O'zbekistondagi aholi eng zich joylashgan mintaqalardan biri bo'lganligi bois, ishsizlar soni mamlakatning boshqa hududlari bilan solishtirganda nisbatan yuqori bo'lib, iqtisodiy muammolar ham anchayin dolzarbdir.

Respublikadagi ishsizlik darajasi eng yuqori – 9,7 % bo'lgan 6 ta hududlar ichida: mintaqaga tegishli bo'lgan viloyatlar Andijon, Farg'ona viloyatlari ham borligi[157] ushbu hududlarda yangi ish joylarini yaratish lozimligini ko'rsatib beradi. Ishsizlik darajasi mintaqaning Namangan viloyatida nisbatan past. Hududda ish bilan band aholi soni 1 million 147 mingni, ishsizlar esa 115 mingdan ko'proq kishini yoki halqaro mehnat tashkiloti metodologiyasiga muvofiq iqtisodiy faol aholiga nisbatan (ishsizlik darajasi) 10,1 foizni tashkil etadi. [158]

Andijon viloyatidagi ishsizlik darajasining tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi sonining ortib borishi hisobiga ushbu ko'rsatkich-yil sayin ortib borayotganligini kuzatiladi. Oxirgi 3-yillik mahlumotlarni tahlil qilgan xolda, 2018-2019-yillarda viloyatdagi ishsizlar soni 129,4 ming nafarni tashkil etib, ishsizlik darajasi 9,2%ni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda viloyatdagi umumiy ishsizlar soni 150,6 ming nafarni tashkil etib, ishsizlik darajasi 1,7 %ga ortganligini kuzatiladi.

Farg'ona viloyatini tahlil etadigan bo'lsak, Andijonga nisbatan yuqori, yahni 2018-yilda aholining 155,6 ming nafari, ishsizlik darajasi 9,7% ni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich, 152,2 ming nafar, yahni ishsizlik darajasi 9,3% ni tashkil etgan.

2020-yilda umumiy aholining 175,5 ming nafari ishsizlarni tashkil etib, 10,9 %ga ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi sonining ortib borishi natijasida ortib borayotgan mintaqadagi ishsizlar sonini hududda turizm sanoatini barqaror yo'lga qo'yish orqali tahminlash lozimligini ko'rsatib bermoqda.

VI. Oxirgi 3-yil ichida Farg'onada 400 ga, Andijonda 250 ga, Namanganda 2500 ga jami 3150 gektardan ziyod intensiv mevali

---

[157] https://sof.uz/news/show/21871-mehnat-vaziri-ishsizlar-soni-eng-kup-bul
[158] uza.uz

bog'lar barpo etildi. Ushbu intensiv bog'lar hududning ekoturistik salohiyatini oshiruvchi yana muhim bir hudud. Respublikada meva-sabzavotchilikni rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar natijasida "2020-yilda meva va sabzavot, uzum va poliz mahsulotlari yetishtirishni 2,3 martaga ko'paytirish" vazifasi qo'yilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lamining ortib borishi kelgusida hududda meva-sabzavot, uzum yetishtirishni ko'paytirish orqali mamlakatimizda ekoturizmga rivojiga hissa qo'shishi[159]hamda dunyoning iqtisodiyoti rivojlangan 45 mamlakatida amal qiluvchi va asosiy maqsadi inson salomatligini muhofaza etish bo'lgan ekologik markirovkali mahsulotlar tarmog'i (The Global Ecolabelling Network-GEN)ga kirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.[160]

Ekoturizmni rivojlantirish yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borgan M.Honey (2008) fikricha, hududlarda ekoturizmni rivojlantirish jarayonida uning xususiyatlari keng qamrovga ega ekanligini inobatga olgan xolda ekoturizmni tuzilmaviy modelidan foydalanish zarurligini tahkidlaydi.[161]

3.1.4-rasmda ekoturizm faoliyatini tashkil etish tizimida unga bog'liq jarayonlar, unga xizmat qiladigan asosiy va qo'shimcha jarayon bosqichlari asos qilib olindi. Ushbu model hududiy ekoturizm faoliyatini tashkil etishning barcha jihatlarini qamrab olgan o'zaro bir-birini to'ldiradigan ekosayyohlik kompleksini tashkil etishga xizmat qiladi.

Aks ettirilgan ko'p bosqichli model ekoturizmni rivojlantirishni elementar aloqalari va ular orasidagi bog'lanishlar to'plami hisoblanib, asosiy obhektning elementlari, funktsiyalarini amalga

---

[159] A.Soxadaliev., H.Yoqubjonova., O'zbekistonda meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish ekoturizm omili sifatida., "Fan va texnikaning rivojlanishida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni" mavzusidagi Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. N; 27- 28 sentyabrь, 2018-yil.34-bet.

[160] H.Yoqubjonova., Farg'ona vodiysida ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish.,"Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari" nomli Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. N; 2016-yil. 105 - bet.

[161] Honey, M. (2008), Ecotourism and sustainable development: who owns paradise?, 2nd ed., Island Press, Washington.

oshiruvchi boshqaruv tizimi tushuniladi. Quyida tasvirlangan modelning asosiy tarkibiy qismlari ostida quyidagilar bo'ladi;

Jarayonning asosiy bo'g'ini va uning ostida, izchil bajarilishi lozim bo'lgan jarayonlar ketma-ketligi va ishning bosqichlari, jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tavsiflash uchun mo'ljallangan.

Yuqorida qayd etilgan ekoturizm rivojlangan davlatlar tajribalarini, ekoturizmni rivojlantirish modellarini o'rganib, tahlil etib, ushbu modelni xususan, har bir hudud kesimida bosqichma-bosqich, rejalashtirib amalda qo'llash kutilgan natijani beradi. Ekoturizm tabiatga mashuliyatli turizm shakli bo'lganligi sababli uni jadal rivojlantirishda ushbu ekoturizmning bosqichli modelidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.(2.6-rasmga qarang)

Ushbu bosqichli model mahlumotlariga ko'ra, jarayonning asosiy ish bosqichlari 2 muhim bosqichdan iborat;

1-rejalashtirish;

2-tashkillashtirishdir.

Rejalashtirish bosqichi 3 ta asosiy ish bo'g'inlarini o'z ichiga oladi, yahni asosiy maqsad, strategik vazifalar va metodologik yondoshuv.

Jarayonning asosiy maqsad bosqichi 2 ta muhim bo'g'inni o'z ichiga oladi; a) atrof-muhitni muhofaza etish; v) maxalliy aholi iqtisodiy farovonligini kuchaytirish.

Rejalashtirish jarayonidagi strategik vazifalar quyidagilardan iborat; a) soxa vakillarini to'plash; v) hududlarni aniqlab olish;

s) hududlarning EIS darajalarini baholash; d) baholash natijalari asosida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish.

Metodologik yondoshuv esa 3 qismga ajratiladi.

1-davlat va xususiy sheriklik mexanizmini keng ko'lamda yo'lga qo'yish;

2-jamoa ishtirokini tahminlash;

3-mahalliy aholi ishtirokini har tomonlama qo'llab-quvvatlash (2.3. paragraf).

Tashkillashtirish bosqichi bevosita uning yonidagi barcha bo'g'inlarga bog'liq bo'lib, jarayonning asosiy bo'lgan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bosqichga bog'liq tizimli jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi;

1.seminar-treninglar tashkil etish;

2. master-klass tashkil etish;

3. targ'ibot-tashviqot.

4.infratuzilmani tahminlab berish. Yuqoridagi bosqichlar turistlar oqimining barqarorligini tahminlab, mintaqaning barqaror rivojlanishiga erishiladi.

Yuqoridagi tizimli muammolarni xal etish jarayonida (2.6-rasm)dagi ko'p bosqichli model ishlab chiqildi. Namangan viloyati hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi tomonidan amaliyotga joriy etildi. (2019-yil 17 iyung'dagi mahlumotnoma) Ijobiy natijalarga erishildi.

Shunday qilib, ko'rsatilayotgan turistlar soni bo'yicha respublika hududlarining ekoturistik salohiyatini tahlil qilish mavjud ekoturistik infratuzilma va u bilan bog'liq muammolarni xal etish va har bir viloyatning tumanlari xususiyatlarini hisobga olgan xolda infratuzilma yaratishga imkon beradi. Chunki bugungi kunda rivojlangan ekoturistik infratuzilmaning mavjud emasligi bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular tashrif buyurgan sayyohlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarga bevosita salbiy tahsir qiladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu yaxlit tizim ostida hududlarni birlashtirish kelgusida hududlarda ekoturizmni rivojlantirishga, hamda mintaqaga tegishli hududlarning ekoturistik salohiyatini oshirish orqali valyuta tushumlarini yanada ko'paytirish imkonini beradi.

Shu o'rinda tahkidlash joizki, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish va yaxshilashga imkon beradigan istiqbolli yo'nalishlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

## 3.2-§. Hududning ekoturistik salohiyatini oshirishda o'rmon xo'jaligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmi

Hozirgi vaqtga kelib sanoatlashishning yuqorilab ketishi havo tarkibining ifloslanishi kuchayib ketishiga olib kelmoqda. Lekin bunga qarshi chora-tadbirlar uchun yashil o'simliklarni asrab-avaylamoq, ulardan maqsadli foydalanish mexanizmlarini tizimli tarzda yo'lga qo'ymoq lozim. Birgina misol, yashil o'simliklarni bir qismi bo'lgan o'rmonzorlardan rekratsiya va ekoturizmni tashkil etishda maqsadli foylanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi vaqtda yer yuzida quruqlikning 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Biroq o'rmonlarning bugungi holati qoniqarli emas. O'simliklar dunyosi-yiliga 380 mlrd tonna organik modda hosil qilib, uning 325 mlrd tonnasi dengiz va okean o'simliklariga, 38 mlrd tonnasi o'rmonlarga, 6 mlrd tonna o'tloqlarga to'g'ri keladi. O'simliklar atmosferani tozalab, uni $O_2$ bilan boyitib, tozalovchi vazifasini bajaradi. O'rmon hududlari jamiyat uchun behisob tabiat nehmatidir.

Fotosintez jarayoni asosan o'rmonlarda ko'p sodir bo'ladi. Ekoturizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan hududlardan biri bu o'rmon xo'jaliklaridir. Yer yuzini har 35-yilda mavjud yashil o'simliklar ekologik toza havoga to'yintirish salohiyatiga ega. Lekin keyingi-yillarda ushbu yashil o'simliklar atmosferaga-yil sayin ko'p miqdorda chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarni qayta ishlashga qodir emas. Buning uchun avvalo, bunday hududlarni kengaytirish, asrab-avaylash choralarini ko'rish lozim bo'ladi. Respublika hududlarida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarni (ming tonna hisobida) 3.2.1-jadval mahlumotlaridan tahlil etishimiz mumkin.

3.2.1-jadvalning statistik mahlumotlarini tahlil qilib, 2012-yildan 2019-yilgacha hududlardagi atrof-muhitga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori respublika bo'yicha umumiy hisobda 66,1 ming tonnaga ko'paygan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

2019-yilda eng yuqori ko'rsatkichlar miqdori esa Toshkent viloyatida (397,9 ming tonna), Qashqadaryo viloyatida (152,2 ming tonna), eng past miqdorli ko'rsatkichlar esa Surxondaryo (5,1 ming tonna), Xorazm (7,0 ming tonna), Jizzax(11,8 ming tonna) viloyatlarida kuzatiladi. Jadval mahlumotlaridan ko'rinadiki, ishlab chiqarish korxonalari soni ko'p bo'lgan hududlarda atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar ham ko'p miqdorni tashkil etishligi kuzatilmoqda.

Ushbu salbiy xolatlarni oldini olish maqsadida mintaqadagi o'rmon hududlaridan ekoturizmni rivojlantirishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

**3.2.1- jadval**

**Respublikamizda atmosferaga chiqarilayogan ifloslantiruvchi moddalar[162] (ming tonna hisobida)**

| | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 817,6 | 855,3 | 1 162,1 | 975,1 | 1 008,1 | 853,5 | 883,7 | 952,8 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 19,4 | 25,8 | 26,7 | 32,8 | 30,6 | 37,7 | 34,0 | 37,2 |
| viloyatlar: | | | | | | | | |
| Andijon | 12,2 | 14,4 | 6,6 | 18,5 | 36,7 | 15,8 | 15,9 | 14,3 |
| Buxoro | 61,7 | 50,7 | 51,9 | 55,6 | 58,5 | 63,8 | 74,8 | 69,1 |
| Jizzax | 14,1 | 17,1 | 37,2 | 70,2 | 63,4 | 5,2 | 11,8 | 4,3 |
| Qashqadaryo | 163,0 | 167,0 | 171,8 | 176,3 | 167,9 | 165,7 | 152,2 | 140,4 |
| Navoiy | 42,4 | 43,9 | 42,6 | 47,0 | 57,4 | 44,1 | 49,9 | 43,6 |
| Namangan | 7,0 | 3,7 | 3,9 | 7,8 | 15,8 | 15,9 | 15,2 | 15,8 |
| Samarqand | 52,8 | 49,1 | 51,3 | 54,7 | 51,6 | 37,1 | 52,1 | 44,2 |
| Surxondaryo | 4,4 | 3,7 | 5,8 | 3,1 | 3,2 | 3,2 | 5,1 | 6,9 |
| Sirdaryo | 46,9 | 35,4 | 69,3 | 66,1 | 68,9 | 59,6 | 60,5 | 47,8 |
| Toshkent | 290,4 | 372,3 | 619,2 | 370,6 | 318,7 | 302,9 | 336,6 | 397,9 |
| Farg'ona | 73,5 | 40,2 | 38,4 | 38,9 | 103,2 | 60,1 | 53,2 | 49,6 |
| Xorazm | 4,9 | 6,2 | 6,3 | 5,0 | 5,2 | 9,2 | 7,0 | 7,2 |
| Toshkent.sh. | 24,8 | 25,6 | 31,1 | 28,4 | 27,1 | 33,1 | 15,3 | 74,5 |

[162] statuz rasmiy ma'lumotlari.

Inson salomatligi uchun kislorodga to'yinish darajasi o'rmonzorlarda yuqoridir. O'rmonzorlarda yetishtirilayotgan daraxt xom ashyosidan 25 000 dan ortiq har xil birikma va mahsulotlar olinadi. SHu sababli dunyoda keyingi-yillar mobaynida yog'och mahsulotlariga bo'lgan talab 12 marotaba oshganligi kuzatiladi.[163] Shuningdek, o'rmonzorlardan qo'shimcha ravishda, kishilarning madaniy-estetik ehtiyojlarini qondirish, sog'ligini tiklashga ko'mak berish maqsadlarida ham foydalanish ko'zda tutilgan. Lekin Farg'ona vodiysi hududlaridagi o'rmon xo'jaliklarining tabiiy resurslaridan unumli foydalanilmayapti. Yuqoridagilardan tashqari, o'rmon tabiatni muhofaza qilish va tabiatda rekratsion dam olish uchun mo'ljallangan hudud hisoblanadi. Lekin birinchi navbatda mahalliy aholida tushuncha, hududda esa infratuzilma mavjud bo'lmaganligi sababli hech bo'lmaganda mahalliy aholi rekratsiya sifatida foydalanilmayotganligi kuzatiladi.

Ayni kunda respublika umumiy yer maydonining 25,2 foizini o'rmon fondi yerlari tashkil qilsa, uning 10%izi Farg'ona vodiysi hududiga to'g'ri keladi. O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish jarayonida ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional barqarorlikka erishiladi. Hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun o'rmon hududlari yetarlicha imkoniyatlarga ega. Ekoturistik obhektlar sifatida o'rmon xo'jaligi maydonlaridan unumli foydalansa bo'ladi.[164] Farg'ona vodiysida o'rmon xo'jaligi maydonlarining ulushi quyidagicha taqsimlanadi:

3.2.2-jadval mahlumotlaridan ko'rinadiki, hududda jami 138 332 gektar o'rmonzorlar maydoni mavjud bo'lib, Farg'ona viloyatida 12297 gektar, Andijon viloyatida 2029 gektar, Namangan viloyatida 124 0006 gektarni tashkil etadi. To'liq tasnifi №7-ilovada keltirildi.

---

163 E.T.Berdiev., G.M.Salohiddinov., H.F.Hamroev O'rmonchilik o'quv qo'llanma, T; 2012. 82- bet.

164 F.T.Egamberidiev, H.Yo.Yoqubjonova, Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va takomillashtirish masalalari, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, ilmiy elektron jurnali, 2018-yil № 3 - son, 9 - bet.

**3.2.2-jadval**

**Farg'ona vodiysidagi o'rmon xo'jaliklari to'g'risida mahlumot[165]**

| № | Hudud | soni | %hisobidagi ulushi | Er maydoni (gektar hisobida) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Farg'ona | 3 | 8.9 | 12 297 |
| 2. | Andijon | 1 | 1.5 | 2 029 |
| 3. | Namangan | 4 | 89.6 | 124 006 |
| | jami: | 8 | 100 | 138 332 |

Tadqiqot ishining ushbu paragrafining maqsadi, Farg'ona vodiysi hududidagi o'rmonzorlardan ekoturizmni rivojlantirish obhekti sifatida samarali va maqsadli foydalanishni tashkil etishdir. O'rmon xo'jaliklarining ulushining katta qismi son jihatidan ham, yer maydoni jihatidan ham Namangan viloyati (124 006 ga) hududiga to'g'ri kelmoqda. Nisbatan kichik yer maydoni jihatidan esa Andijon viloyati (2029 ga) to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasida O'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'rmonlardan ko'p maqsadli, oqilona, uzluksiz va barqaror foydalanishni, yahni jamiyatning o'rmon resurslaridan ovchilik, baliqchilik xo'jaliklari ehtiyojlari uchun foydalanish, madaniy-mahrifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish, ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanish[166] belgilangan bo'lsada, o'rmon xo'jaligi atrofidagi maxalliy aholi o'rmonlardan o'tin yig'ishda foydalanadi.

Shu o'rinda o'rmonlardan samarali foydalanish maqsadida o'rmonlarni rekratsion tarzda boshqarish orqali o'rmonlarni qayta tiklash jarayonlarining cheksiz tsikliga o'tishga qaratilgan faol va

[165] O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
[166] O'zbekiston Respublikasining «O'rmon to'g'risida"gi Qonunining yangi taxriri, 2018-yil, 16 aprelь, ORQ. 475-son, 46- modda.

passiv o'rmon xo'jaligining birlashuviga qaratilgan mexanizm o'rmon xo'jaligidagi o'ziga xos yondoshuvdir.[167] O'rmon xo'jaligi atrofida aholi zich joylashgan hududida o'rmondan rekreatsiya maqsadida foydalanilsa, bu xolat atrof-muhitni muhofaza etish va mahalliy aholiga iqtisodiy ko'mak beradi.

Tadqiqotchi A.Tishkovning fikricha, o'rmon hududi turizmning yangi turlari paydo bo'lishi uchun landshaft ochiqligi, noyob o'simlik va hayvonlar turlarining yo'qolib ketish darajasini saqlab qolish, biota va ekotizimlarning antropogen o'zgaruvchanligining oldini olishda muhim ahamiyatga ega hududdir.[168] Ko'p xollarda aholi uchun qulay yashash va dam olish muhitini yaratishda o'rmonlarning ahamiyati hisobga olinmaydi yoki tabiatni muhofaza qilish va shunga o'xshash boshqa vazifalar unutib qo'yiladi. Lekin, uning asosiy hududi o'ziga xos rekratsion yashil maydon ekanligini hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ekoturizmni rivojlantirish maqsadida o'rmon fondlaridan unumli foydalanishda, o'rmon fondi resurslaridan foydalanishga ko'p funktsional yondashuvga rioya qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki mintaqaning har bir hududidagi o'rmonlar bir nechta funktsiyalarni bajaradi. Bunday xolatda o'rmondagi daraxtlarning miqdori emas, balki undan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxi, rekratsion va himoya xususiyatlaridan foydalanish, yer osti suvlari va tuproq unumdorligini saqlash, biologik xilma-xillikni, o'rmonning madaniy va estetik qadriyatlarini saqlash ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ushbu ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishning o'rmon xo'jaliklarida amalga oshirish tadqiqot metodologiyasi tabiiy resurslarni baholash natijasida yuzaga

---

[167] Писаренко, А. И. Новая парадигма лесного хозяйства и управления лесами России / А. И. Писаренко // Вестник МарГТУ. Сер.: Лес. Экология. Природопользование. — 2008. — № 2. — С. 17-27.

[168] Тишков А.А. Актуальная биогеография как методологическая основа сохранения биоразнообразия//Вопросы географии. - Вып. 134. - М.: ИД "Кодекс", 2012. - С. 15-57.

keladigan ekologik tahsirlar qiymatini taqsimlashni, muqobil narx tushunchasiga asoslangan turli xil ekotizimlarni samarali jihatlarini hisobga olishni mintaqaviy ekoturizm tizimida o'rmon resurslaridan maksimal darajada samarali foydalangan holda ekologik muvozanatni buzmasdan qo'llanilishi mumkin. Ushbu yondoshuv atrof-muhit tahsirining alg'ternativ ifodasi bu tabiiy muhitning sifatini saqlash va ekotizimlardan barqaror foydalanish, yovvoyi tabiat sharoitlarini saqlash zaruriyati bilan bog'liq iqtisodiy sarfni kamaytirishdir.

O'rmon mahsuldorligini, undan foydalanish samaradorligini oshirish uchun bir qator tashkiliy va iqtisodiy masalalarni hal qilish va o'rmonlarni boshqarish tadbirlarini o'tkazish uchun mablag'larning manbai mintaqaviy dasturlar, ixtisoslashgan o'rmon xo'jaligi muassasalari mahsulotlari va xizmatlarini sotishdan tushgan mablag'lar, maqsadli jamg'armalar mablag'lari bo'lishi mumkin. O'rmonni muhofaza qilish, qo'riqlash, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, mahsuldorligini oshirish, undan foydalanish va ularni qayta tiklashni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi huzurida O'rmon xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilishligi[169] yuqorida ko'zda tutilgan maqsadli tadbirlarni amalga oshirishda bevosita xizmat qiladi. O'rmon sanoatining oldiga qo'yilgan vazifalar nafaqat Farg'ona vodiysidagi eng muhim tabiiy resurslaridan birini boshqarish bo'yicha davlat vakolatlarini amalga oshirish modelini shakllantirishga qodir, balki boshqa mintaqalar uchun ham qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi quyida (3.2.1-rasm)aks ettirildi.

[169] O'zbekiston Respublikasining O'rmon to'g'risidagi Qonuning (yangi taxriri) 47- modda.




**3.1.1-rasm. O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi[170]**

Ushbu mexanizmning bosh maqsadi o'rmon xo'jaligini muhofaza etish, aholini sog'ligini saqlashga ko'maklashish, o'rmon atrofida istiqomat qiluvchi maxalliy aholiga iqtisodiy ko'mak va turizmni barqaror shaklini rivojlantirishni nazarda tutgan xolda faoliyat olib boradi. O'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirishda har bir omilni aniqlash va undan samarali foydalanish lozim. Ushbu jarayon esa O'zbekiston Respublikasida o'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmlarini yaratish zarurligini anglatadi.

O'rmon hududlaridan barqarorlik tamoyillariga muvofiq foydalanish boshqa tomondan esa, o'rmon resurslarining atrof-muhitni himoya qilishdagi funktsiyalarini o'rmonlarning yog'och-xom ashyosi ishlab chiqarishdan ko'ra, muhimroq funktsiyalarga aylantirish lozim.

[170] Tadqiqotchi ishlanmasi.

Ushbu mexanizmda: ekoturizmni rivojlantirish jarayonida bir-biriga bog'liq, manfaatdor subhektlarning harakatlari natijasida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi harakatlanadi, yahni, Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi-ekoturizmni rivojlantirish jarayonida faol qatnashadi.

Hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi bevosita mahalliy hukumat vakillari bilan hamkorlikda ekoturizmni rivojlantirish doirasida hamkorlikda faoliyat olib borishi lozim.

Ushbu 3.1.1-rasmda o'rmon xo'jaliklarida ekoturizmni rivojlantirish mexanizmi quyidagilardir;
Ushbu mexanizmda institutsional boshqaruv quyilagilarni o'z ichiga oladi;

1) o'rmondan manfaatdor tomonlar bilan jamoatchilik o'rtasida aloqa tez-tez buzilish mumkin. SHuning uchun birinchi navbatda jamoat, xususiy sektor va mahalliy hokimiyat o'rtasidagi vakolat, rolg' va majburiyatlar bo'yicha mutanosib ravishda xabardorlik va umumiy tushuncha bo'lishi kerak. SHartnoma tuzilishi lozim.

2) o'rmondan foydalanish mexanizmi, unda o'rmondan foydalanishda jamoaviy rolni belgilash, mahlumotlar va qoidalarni tayyorlash jarayoni (o'rmondan kim foydalanishi mumkinligi; o'rmondan foydalanish shakllari, vaqti, o'rmondan foydalanish hajmi, joylashishi, texnologiyasi va ulardan foydalanish; o'rmondan foydalanishni qanday tashkil etish usullari; monitoring va baholash tizimi qanday; nizolarni hal etish mexanizmlari; yoki tartibga solish mahalliy xususiyatlarga qanday moslashtirilganligi). kabilar aks ettiriladi.

3) qoidalar shakli (yozma yoki og'zaki, rasmiy yoki norasmiy) bo'lishi jamoatchilik asosida kelishib olinadi.

4) rasmiy qoidalar va qoidalarning mavjudligi, agar iloji bo'lsa - tomonlarning vakolatlari va majburiyatlari, litsenziyalash va mehnat shartnomalarini o'z ichiga oladi. Ushbu mexanizmda

1.Talab-Hududiy sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan shakllantiriladi. O'rmonda haqiqiy ekoturizmni rivojlantirishning qathiy ekologik va rekreatsion talablarini qondirish uchun puxta

rejalashtirilgan, moliyalashtirilgan, boshqariladigan va bozor talablarini shakllantirish zarur bo'ladi. Mahlumki, o'rmon havosi ko'p kasalliklarda tavsiya etiladi.

2.CHora-tadbirlarni ishlab chiquvchilar va mashullar - Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, Hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmasi, maxalliy hokimiyat organlari. SHuningdek, "...turizm soxasining iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, madaniy va boshqa yo'nalishlaridagi infratuzilmasini takomillashtirish va turizm yo'nalishidagi diqqatga sazovor joylar, ularni yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash hamda amalga oshirish..."[171] jarayonlarida ushbu mexanizm samarali hisoblanadi.

3.Moliyaviy mablag'lar - O'rmonda biznesni rivojlantiruvchi tashabbuskorlar jalb etiladi. O'rmonda shuningdek, qishloq aholisi tomonidan turli xil sport turlarini taklif qilish orqali shaharlik sayyohlarni jalb qilish imkoni tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish natijasida mintaqa aholisining turmush darajasi yaxshilanishi uchun yordam beradigan muhit mavjud. Qishloqlardagi odatiy turmush tarziga ega bo'lgan mahalliy aholi ob-havo sharoiti, tabiiy va madaniy tuzilishi va tarixiy boyligi bilan shahar aholisiga dam olish va qishloq hayotini bilish uchun tegishli imkoniyatlarni taqdim etish imkoniyatiga ega.

4.Ishchi kuchlari – O'rmon atrofidagi maxalliy aholi alohida o'qitish jarayonida jalb etiladi. O'rmon qishloq aholisi o'rmonda ekoturizmni rivojlantirishda eng muhim manfaatdor tomonlardir. O'rmon resurslari, ayniqsa o'rmon atrofida yashaydigan mahalliy jamoalar uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy hissa qo'shadi. Qishloq aholisi o'rmon hududini qo'shimcha daromad manbaiga aylantirish lozim. Qishloq aholisi o'rmonlardan turistik biznes imkoniyatlari haqida tushunchaga ega bo'lmaganliklari sababli o'rmonlarni kesish, payhon qilish, o'rmonlardan chorvachilik uchun noqonuniy

[171] O'RPQ Turizm soxasini rivojlantirishda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'uliyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 28-son. 646-modda)T: 2017-yil, 12 iyulь, PQ-31-29-son.

yaylovlar sifatida foydalanishadi. Mahalliy aholining ekoturizm va uning afzalliklari to'g'risida xabardorlik darajasining yetarli emasligi ushbu loyihaning eng muhim cheklovidir.

Bizning fikrimizcha, eng muhimi, ushbu jarayonda ushbu hududga tashrif buyuruvchi ekoturistga qathiy tartib belgilash lozim, o'rmonni muhofaza etish asosiy maqsadi bo'lgan ekoturizmni tashkil etuvchilar ham asosiy maqsadi, ekotizimni himoya etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Buning uchun ularga ham mahlum mezonlarga amal qilishlari lozim bo'ladi. SHundagina o'rmon hududidagi ekotizim muhofaza etiladi, sekin-asta o'rmon hududida dam oluvchilar talabi ortadi, hududda ekoturizm faoliyatini yo'lga qo'ygan tadbirkorlik subhektlari barqaror daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Har bir hududning o'rmon xo'jaligi xususiyatlariga qarab o'rmon xo'jaligini saqlash tadbirlari quyidagi maqsadlarga erishishga va natijada o'rmon resurslarining potentsial qiymatini oshirishga yo'naltirilishi mumkin:

- jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan o'rmon xo'jaliklari barqarorligini saqlash va oshirish;
- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va o'rmon hududlari rejimini saqlash;
- o'rmonlarning yo'q bo'lib ketishini kamaytirishga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasini shakllantirish.

Ushbu tadbirlar aholi zich yashaydigan joylarda va aholining diqqat-ehtiborida o'tkazilishini hisobga olish zarur bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida o'rmon hududlarida katta miqdorda investitsiya imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagilarni tahlil etgan xolda, Farg'ona vodiysi o'rmonlaridan ekoturistik obhekt sifatida samarali foydalanishni tashkil etishda ekologik o'rmon uylari (Wooden House) loyihalarini barpo etish yaxshi natija beradi deb hisoblaymiz. Shuningdek, ushbu hududlarda (Birdwatching) – "qushlarni tomosha qilish" ekoturizmning eng ommaviy turini ham barqaror rivojlantirish imkoniyati mavjud. (Shimoliy Amerikada ekoturizmning eng mashhur turlaridan biri bo'lgan qushlarni tomosha qilish turi-yiliga

30 mln.dan 78 mln.gacha sayyohni jalb etib, Birdwatching ushbu mamlakatga qariyb 78 milliard AQSH dollari miqdorida daromad keltiradi.)[172] (Wooden House) yog'ochli ekologik uylarining o'ziga xos xususiyatlari;

1. jamiyat taraqqiyotiga

a) zamonaviy texnologiyalarni tejaydi

b) energiyani tejaydi

v)ishlab chiqarish jarayonida kam chiqindi ishlab chiqarish texnologiyasiga to'g'ri keladi.

g) uyning qurilish funktsional, bardoshli, ko'p-yillik ishlatishga yaroqli o'ziga xos innovatsion kichik xajmli turar joy.

2. sayohatchilarga

a)ekologik toza mahsulotdan ekanligi

b)kichik va qulay

v) shinam, oddiy

g)salomatlik uchun foydali, o'rmon hududining istalgan joyiga joylashtirish mumkin.

d) yengil ko'tarishga qulay.

Ushbu ekoloyihani iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun bir dona o'rmon uyiga ketadigan sarf-xarajatlarni hisoblaymiz,
$Z=aX$, bu model bir dona ekologik o'rmon uyini tayyorlash uchun talab qilinadigan materiallarga bo'lgan talablarini aniqlashda qo'llaymiz; bu xolatda, X – o'rmon uylari soni, a–bitta o'rmon uyiga material sarflanish mehyori, Z–o'rmon uyiga bo'lgan umumiy ehtiyoj. Z=329 200 000
Bizga bir gurux ekoturistlarni joylashtirish uchun 10 dona o'rmon uyining tayyorlash uchun materiallarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash lozim, u xolda;
$Z=a_1X_1+ a_1X_1+ a_2X_2+ a_3X_3+........+a_n X_n$
$Z=\sum^{n}_{i=1}a_iX_i$, bu xolatda,

Ushbu maqsadli ekoloyihaning iqtisodiy samaradorlik darajasini tahlil qilinganda;

---

172 Афанасьев О.Е., Афанасьева А.В. Концепт «экологического туризма» в мировой и российской практике: компаративный анализ и кейсы // Современные проблемы сервиса и туризма. 2017. Т.11. №4. С. 7-25. DOI: 10.22412/1995-0411-2017-11-4-7-25, с – 15.

kiritilgan investitsiya hajmi, eng kichik (20 kishilik) ekologik o'rmon sayohatchilar guruhi uchun joylashtirish uchun – 329 mln. 200 ming so'm

boshqa harajatlar – 10 mln.so'm

u xolda,

$$' = \frac{F}{IX} X100\%$$

*'– iqtisodiy samaradorlik, F– foyda, IX– sarf-xarajatlar*

mavsum kunlari -100 kun

20 maydan boshlab, iyung', iyulg', avgust oylari

bir ekoturist uchun bir kechalik tunash narxi, 50 000 so'mdan, 100 000 so'm

10 kunlik tushum – 1 000 000 so'm, (bir dona o'rmon uyiga);

1 oylik tushum – 3 000 000 so'm, (bir dona o'rmon uyiga);

3 oylik tushum – 9 000 000 so'm, (bir dona o'rmon uyiga);

Jami daromad 90 000 000 so'm, (kichik ekologik turar joy-10-20 o'rinli)

o'n dona o'rmon uyiga;

$$' = \frac{F}{IX} X100\% = \frac{90\,000\,000}{339\,200\,000} X100 = 26{,}5\%$$

Iqtisodiy samaradorlik darajasi 26,5%ni tashkil etadi.

Hududda fitotsintez ko'p, yashil manzara, ekologik xizmatlar mahalliy aholi, yahni o'rmon atrofi qishloq aholisi o'z ekologik mahsulotini taqdim etishi mumkin. Bunday ko'rinishdagi faoliyatni yo'lga qo'yish uchun avvalo ularga maxsus litsenziya taqdim etish lozim. O'rmonda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida ushbu innovatsion loyihaning SWOT tahlilini qilamiz; (3.2.1-jadvalga qarang)

I. O'rmonzorlarda ekoturizmni rivojlantirishda quyidagi faoliyat turlarini shakllantirish mumkin:

1.1. sayr qilish;

1.2. qushlarni tomosha qilish;

1.3.vilosipedda sarguzasht;

1.4.madaniy-tadbirlar o'tkazish;

II. Farg'ona vodiysiga tegishli o'rmonzorlardan ekoturizmni rivojlantirish jarayonida foydalanishdan o'rmonzorlar uchun manfaatli jihatlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi;

2.1. Hududda o'rmonlarning saqlanishini yaxshilash; 2.2. O'rmonni saqlab qolish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun daromad olish; 2.3.O'rmonga qo'shni bo'lgan mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini oshirish; 2.4. Mahalliy va xalqaro darajada mehmonlar dam olishini tahminlashga ko'maklashish; 2.5. Farg'ona vodiysiga tegishli bo'lgan o'rmonlarning turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish;

2.6.O'rmonlarda xavfsizlikni yaxshilash; 2.7.O'rmonlarda infratuzilmani takomillashtirish; 2.8.Hududdagi o'rmonlarning keng jamoatchilik ahamiyatini bilishi va anglashi.

**3.2.1-jadval**

**O'rmonlarda ekoturizmni rivojlantirish uchun investitsiyalash jarayonining SWOT tahlili[173]**

| S – Strengths (**Kuchli tomonlar**); | W- Weaknesses (Zaif tomonlar): |
|---|---|
| **Jozibador muhit**<br>**Dizayn moslashuvchanligi (taklif qiluvchining taklifiga ko'ra)**<br>**Ko'p turdagi mahsulot assortimenti-ning mavjudligi** | **Aholining o'rmonlarning nechog'lik salomatlik uchun foydali ekanligini chuqur anglay olmaganligida, tushunchalar mavjud emas;**<br>**Jalb etish uchun maqsadli jamg'arma-larning taqdim etilmayot-ganligi;**<br>**Ekoturizm yo'nalishida maqsadli foydalanilmaslik.** |
| **O-O"ortunities: (Imkoniyatlar)** | **T** - Threats:(**Xavflar**): |
| Uzoq muddatli ijara munosabatlari; investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi, hududning kattaligi(taklif qiluvchilarning xoxish istaklarini ehtiborga olgan xolda ixtiyoriy landshaft dizayini yaratish mumkin) | o'rmonda sayohatning dastlabki talabini yaratish qiyin bo'lishi mumkin<br>talab yo'qligi sababli investorlarni jalb etish qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin<br>Ekoturizm u qadar to'liq rivojlanmaganligi bois investorlarni |

[173] Tadqiqotchi ishlanmasi.

Shuningdek, yukoridagi takliflarni xal etishda - "...tarmoqqa xalqaro moliya institutlari grantlarini jalb etish va ekologik turizmni keng ko'lamda rivojlantirish..."[174] orqali hududdagi o'rmon xo'jaliklarida ekologik turizmni rivojlantirish va ekologik muammolarni mahlum qadar bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi 2018-yildan boshlab har-yili tasdiqlanadigan investitsiya dasturlariga O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining taklifiga asosan yangidan o'rmonzorlar barpo etish uchun maxsus texnika va zamonaviy texnologiyalarni sotib olish, ishlab chiqarish tashkilotlari va ekoturizm infratuzilmalarini tashkil etish, o'rmon xo'jaligi obhektlarini yangidan qurish, rekonstruktsiya qilish hamda tahmirlash ishlarining kiritishni[175] belgilab qo'yilgan. O'rmonzorlarda ekoturizmni rivojlantirish va maqsadli foydalanish maqsadida investitsiyalash zarur.

- tur operatorlik korxonalari bilan hamkorlik qilish;
- rekreatsiya va ekoturizm uchun dasturlar va qulayliklar yaratib berish;
- o'rmonlardan marosimlarda foydalanishga ko'maklashish;

**3.2.2-rasm. O'rmon xo'jaliklarining ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi vakolatlari[176]**

[174] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi PF-5041-sonli Farmoni, 2017-yil, 11 may.
[175] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 530 - sonli Qarori, O'rmon xo'jaligini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risidagi, 2017-yil, 19 iyul.
[176] Tadqiqotchi ishlanmasi..

Investitsiyalarni yo'naltirish lozim bo'lgan dastlabki bosqichlar quyidagilar;

- turar joylar yaratish;
- o'rmon hududida tabiiy yo'llar yaratish;
- alohida saytlar yaratish;
- dam olish uchun landshafli daraxt maydonchalarini yaratish;
- tushlik uchun maydonchalar;

Farg'ona vodiysidagi mavjud o'rmon ho'jaliklarining ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi vakolatlari quyidagilar hisoblanadi.

(3.2.2-rasmga qarang). Tur operatorlik korxonalari bilan hamkorlik, ekoturizm uchun qulaylik va dasturlari yaratib berish va boshqalar.

Shuningdek, mintaqa o'rmon xo'jaliklaridan ekoturizmni rivojlantirish maqsadida, o'rmon xo'jaliklarida chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik, quyonchilikni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;[177] bu esa o'rmon hududlarining ekoturistik salohiyatini yanada oshiradi.

O'rmonlar va tashabbuskorlarning resurslari, hududning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi. O'rmon xo'jaliklarida ekoturistik infratuzilmalar barpo etish uchun;

1.Investorga taqdim etilishi lozim bo'lgan mahlumotlar quyidagilardir;

1.Bozor segmentlari to'g'risidagi mahlumotlar;

O'zbekiston fuqarolari (maktab o'quvchilari)

- xalqaro takror keluvchi mehmonlar
- mahalliy aholi
- sayohatchilar
- mutaxassis shaxslar guruxi

2. O'rmonda maqsadli ekologik obhektlar quyidagicha hajmda bo'lishi maqsadga muvofiq; (Wooden House)

Turar joylar:

- kichik ekologik turar joylar (10-20 o'rinli)

---

[177] O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining Qarori. O'rmon xo'jaligi tadqiqot institutining Andijon filialini tashkil etish to'g'risidagi, Toshkent sh.,2017-yil 26 iyul,544-son.

- o'rta ekologik turar joylar (21-30 o'rinli)

- katta ekologik turar joylar (30-40 o'rinli) bo'lishi mumkin.

Davlat o'rmon fondining madaniy-mahrifiy, tarbiyaviy, sanitariya-gigiena, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish uchun berilgan hududlarida o'rmondan foydalanuvchilar o'rmonlarni va tabiiy landshaftlarni saqlash, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, o'rmonlarda yong'in xavfsizligi va sanitariya qoidalariga rioya qilish sharti bilan bu uchastkalarni obodonlashtirish tadbirlarini o'tkazadi.[178] Hududda ekosayyohlarga imkoniyatlarni yanada kengaytirish uchun

- turar joylar uchun kichik market tashkil etish;

- maysazorda dam olish maskanlarini barpo etish, skameykalar o'rnatish;

- daraxt maydonchalari landshaftlarini yaratish;

- kichik tipdagi kutubxonalar yaratish;

-o'rmon atrofidagi mahalliy aholi xonadonlarida uy mehmonxonalar, daraxt uylari va boshqa innovatsion turar joylarni barpo etish;

- o'rmon ichida kichik poezdda sayohat.

- qayiq xizmatlari .(o'rmon hududidan daryo o'tgan bo'lsa)

kabi turlarini yaratish lozim.

Shunday qilib, o'rmon xo'jaliklari ekoturizmni rivojlantirish maqsadida foydalanish imkoniyati yetarli bo'lgan hudud hisoblanadi. Buning uchun kishilarda o'rmonda sayohat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, o'rmon yaqini qishloq aholisida iqtisodiy daromad ko'rish imkoniyatlarini rag'batlantirish va xalqaro darajadagi investorlarni jalb etish lozim. Eng muhimi esa, o'rmon hududiga tashrif buyuruvchi ekoturistga ham, ekoturizm faoliyatini tashkil etuvchi subhektlarga ham qathiy tartib va mezonlarga rioya etishlari lozim bo'ladi.

---

[178] O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi Qonunning (yangi taxriri) 38- modda.

## 3.3-§. Milliy iqtisodiyotda ekoturizmni rivojlantirishning dastlabki strategiyalari va ustuvor yo'nalishlari

Ushbu ishning oldingi qismlarida muhokama qilingan masalalarga qo'shimcha ravishda, biz Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ko'rib chiqishimiz kerak. SHu munosabat bilan Farg'ona vodiysiga tegishli tumanlarda turizmning ekologik yo'nalishini barqaror rivojlantirish uchun dastlabki strategiyalar va ustuvor yo'nalishlarni taklif etildi; ushbu dastlabki strategiyalar va ustuvor yo'nalishlar hududning har tomonlama ijtimoiy-ekologik salohiyat darajasini tadqiq etgan xolda taklif qilindi. (3.1.1-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni tahminlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4861-sonli Farmonida o'rta muddatli istiqbolda turizm sohasini davlat siyosatining yangi vazifalari va ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan. Ular orasida: turizmni strategik tarmoq maqomini beradigan turistik rivojlanishning yaxlit kontseptsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, iqtisodiyotda ushbu sohani barqaror rivojlantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishning kuchli vositasiga aylantirish kabi muhim vazifalar yuklangan.

O'zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar Strategiyasiga muvofiq, o'rta muddatli istiqbolda xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish[179] kabi ustuvor maqsadlar belgilangan.

---

[179] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" 07.02.2017-yildagi 4947 – sonli Farmoni.

Farg'ona vodiysining har bir viloyatlari kesimida turizm sanoatini rivojlantirish yuzasidan turistik salohiyati yetarlicha, faqat tarmoqda rejalashtirish jarayonini to'g'ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi, aynan shu asosda mintaqaning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy vaziyati ham tubdan o'zgaradi.[180]

Jahon Sayyohlik Tashkiloti(WTO) mahlumotlariga ko'ra ekoturizm 2020-yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning beshta asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Soxa ekspertlarining fikriga ko'ra,-yil sayin tabiatning xolati haqida tashvishlanayotgan odamlarning soni ortib bormoqda. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda "... bir qator mamlakatlarda ekoturizm iqtisodiyotning yetakchi tarmog'i darajasiga ko'tarildi. SHunga muvofiq uni boshqarish yangi shakllarda amalga oshiriladi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga tegishli milliy bog'lar ekoturizmni rivojlantirishning asosiy obhektlariga aylandi. METH hududlarning 10-12% dam olish uchun ishlatiladi "[181]

Tadqiqot ishining ushbu 3.3.paragrafi Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirish strategiyalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishga qaratilgan.

Master plan strategiyalari hududda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha bosh rejalar ushbu hududni ekoturistik nuqtai nazardan rivojlantirishning turli xil variantlari ichidan eng maqbul varianti aniqlab olinadi.

Ushbu dastlabki strategiyalari bosqichlari 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasiyada belgilangan vazifalarni bajarishni nazarda tutgan xolda taklif qilindi.

Jamiyatning turizm iqtisodiyoti yo'lida pul topish uchun eng muhim yo'llaridan biri har qanday ekoturistik hududda dastlabki

---

[180] Soliev A.S., Nazarov M.L., Qurbonov Sh.B. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. - 348 b.

[181] Хамидов О. Совершенствование механизма управления развитием экотуризма в Узбекистане: автореф. дисс. д-ра. экон. наук. Самарканд, 2017. Узбекистане: автореф. дисс. д-ра. экон. наук. Самарканд, 2017.

bosqichi 1 (bir kechalik) qolish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishdan iboratdir. Jamiyatda dastlab insonlar belgilangan ekoturistik hududlarda qushlarni, gullarni, betakror tabiat manzaralarini tomosha qilish uchun pul to'lashi lozimligini qabul qilishlari qiyin kechadi. Lekin jozibador ekohududlar barpo etilganda bu samarali bo'ladi. O'z-o'zidan insonlar bu xolatni tabiiy xolatdek qabul qiladilar. Ushbu jarayonga xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish; davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish va keng qo'llash[182] yaxshi samara beradi.

Tadqiqot obhektida izlanishlar olib borish jarayonida hududni tahlil etib har tomonlama ekoturizmni rivojlantirish uchun eng dastlabki quyidagi strategiya bosqichlari ishlab chiqildi va taklif etildi.

3.3.1-rasmda aks ettirilgan mintaqaviy ekoturizmni rivojlantirishning master-plan (bosh reja) strategiyalari hududda ekoturizmni jadal rivojlantirish jarayonida eng dastlabki qadam sifatida o'z samarasini beradi. Quyida esa yuqorida aks ettirilgan strategiya bo'g'inlarini tahlil qilinadi;

***1- bosqich***

Hududda amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng dastlabki ish, ekoturistik hududlarda ekologik shahar ko'rinishidagi mustahkam turar –joylar hududini tashkil qilishdir. Ushbu hududni tanlashda shahar tashqarisidan, ishlab chiqarish joylashmagan ekoturistik qishloq hududini tanlab olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Eng toza ekologik qishloq" loyihasini tashkil etish maqsadga muvofiq. Yo'llar, yo'l chetlari ozoda, jamoat tansiqxonalarida umuman hech qaerda ortiqcha chiqindilar yo'q. Buning uchun qishloq aholisi jamoaviy tarzda ish olib borishi lozim. Dastlabki bosqichida har bir viloyatda bittadan, keyingi bosqichida har bir tumandan tanlab olinib ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. "Gastro-eko-qishloq" tizimida

---

182 2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi Toshkent sh., 2019-yil 5 yanvarь, PF-5611-son.

faoliyat olib borsa ham qishloq aholisiga moddiy manfaat beradi. Qishloq aholisi o'z hududi milliy taomlarini toza ekologik hududda taqdim etadi. Keyingi bosqichlarda bunday qishloqlar tanlovini amalga oshirish ularga rag'bat beradi.

***2 - bosqich***

Ekoturizm faoliyati to'g'risidagi axborotni markazlashtirish, shuningdek jamoatchilik tansiqxonalari va umumiy tibbiy xizmat ko'rsatish uchun qo'shni jamoalar bilan hamkorlikda mintaqaviy ekoturizm haqida mahlumotlarni to'plash. Birinchi marta tashrif buyurgan ekosayyohlar uchun barcha faoliyat va xizmatlar to'g'risida mahlumot to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan markaziy joyga ega bo'lishi lozim. Namangan viloyati ekosayyoh mehmonlar markazini barpo etish uchun asosli hududdir. Ushbu hudud ekoturizmga bo'lgan asosiy ehtiyojlarni qondirish salohiyatiga ega.

***3 - bosqich***

Farg'ona vodiysi hududidagi mavjud tabiiy resurslarni va aholi ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlash. Iqtisodiy jihatdan ekologik turizmni rivojlantirishning mahorat ko'lamini kengaytirish. Farg'ona vodiysidagi mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, imkoniyatlar soxa rivojida muhim rolg' o'ynaydi. Alohida muhofaza etiladigan hududlardan tashqari noyob tabiiy resurclardan ham unumli foydalanish jamiyatning va aholining iqtisodiy salohiyatida muhim o'rin tutadi.

***4 – bosqich***

Qo'shni jamoalar bilan hamkorlikda mintaqaning ekoturistik salohiyati haqida mahlumotlarni to'plash. Ekoturizm faoliyatida ishtirok etuvchi mavjud guruhlar (hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmalari xodimlari, tur operatorlar, jamoatchilik, maxalliy aholi) hamkorlik qilishi ekoturizm uchun dasturlarni ishga tushirish yanada barqaror platforma yaratadi. Misol uchun, xavfsizlik choralari, tog'li hududlarda, suv havzalarida turli xil xolatlarga jamoatchilik asosida yondoshiladi.

***5- bosqich***

Bir-biriga yaqin ekohududlar o'z imkoniyatlarini yaqin atrofdagi dam olish maskanlari bilan birlashtirishlari lozim. Shahar tashqarisidagi joylarda ekoturizm imkoniyatlarini jadal rivojlantirish maqsadida oilalarga keng imtiyozli imkoniyatlarni yaratib berish. Oilalar, sayyohlik operatorlari birgalikda sayyohlik guruhlarini jalb etish uchun hamjihat bo'lib harakat qilishlari lozim bo'ladi, ular o'z imkoniyatlarini yaqin atrofdagi dam olish maskanlari bilan birlashtirsalar maqsadga muvofiqdir. (Masalan, Chodak, Parda Tursun, Chust dam olish maskanlari)

***6- bosqich***

Oilalar, sayyohlik operatorlari hamjihatligini tizimli amalga oshirish, hozirda mavjud ekoturizm infratuzilmasiga qiziqish bildirgan xorijiy mamlakatlar va xususiy sektorlar bilan hamkorlik qilish va ekoturizm faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Ekoturizmni jadal va muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ekoturizmning ekologik dasturlarini, maxsus yo'nalishlar, jarayonlarni hisobga olgan holda jamiyatdagi hozirda mavjud infratuzilmadan unumli foydalanib, bosqichma-bosqich barpo etish lozim bo'ladi.

***7- bosqich***

Ekoturizm infratuzilmasiga qiziqish bildirgan davlatlar va xususiy sektorlar bilan moliyaviy hamkorlik qilish, investorlarni jalb etish, avtomobillar va velosipedlar yaxshiroq harakatlanish uchun transport yo'llarini yaxshilash, velosiped yo'llari, velosiped qo'yish joylari va xavfsizlik choralari kabi infratuzilmalarga investitsiya kiritish lozim.

Shu o'rinda, B.Berdiyorov, mamlakatda ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini quyidagilar deb baholaydi;

-mamlakatimizga kelayotgan sayyohlarning hududlar tabiatini yaxshi bilishlari uchun, hududlarning florasi va faunasini o'zida mujassam qilgan mamlakatning ekoturistik xaritasi va yagona katalogini yaratish lozim. Ushbu ekologik xarita va katalog hamroh tarjimonlar uchun ekskursiya davomida duch kelishi mumkin

bo'lgan hayvonlar va o'simliklarni aniqlashda zarur bo'ladigan oddiy, rasmli, ekologik mazmunli qo'llanma bo'lib xizmat qilishini tavsiya qiladi.[183]

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda, bizning fikrimizcha, respublikada ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif qilamiz. 3.3.3-rasm. Mahlumotlariga ko'ra, hududlarda ekoturizmni rivojlantirish jarayonidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida quyidagilar taklif etildi.

**Aholining ekologik madaniyati yuksaltirish** mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida o'rganilgan Namangan viloyati Pop tumani, Chodak qishlog'ida o'tkazilgan (3.3. paragraf mahlumotlariga qarang) Hududlarda "Ekoturizmni rivojlantirish loyihasi".




**3.3.3-rasm. Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari[184]**

[183] B.Berdiyorov., O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Biznes Ekspert jurnali, №6(138)-2019 4- 7 бет, http://www.biznes-daily.uz/ru
[184] Tadqiqotchi ishlanmasi.

**Ekoturizm tashabbuskorlarini qo'llab-quvvatlash** 1990-yilda tashkil etilgan Xalqaro ekoturizm jamiyati ahzolari, hamkorlari, bugungi kunda 190 ta davlatdan ortiq bo'lgan 150 000 dan ortiq o'z ahzolariga ega. Jamiyat faoliyati 1.2.paragrafda tahlil qilindi. (1.2.1-rasmga qarang). Mamlakatda esa ekoturizmni tashabbuskorlarini qo'llab-quvvatlash uchun turizmning ekologik yo'nalishi bo'yicha alohida turoperatorlar, turagentliklar faoliyatini yo'lga qo'yish, ekoturistik yo'nalishda dam olish hududlarini barpo etmoqchi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga davlat tomonidan imtiyozlar, soliqlar to'lashda yengilliklar berish, soxa vakillarini to'plab, ko'ngillilar va nodavlat va notijorat tashkilotini barpo etish va hamkorlarni biriktirish lozim bo'ladi.

**Kichik hajmli ekoturistik zonalarni barpo etish.** Viloyatning markaziy hududlariga nisbatan chekka qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nisbatan past darajasi, barqarorlikning sekin o'sishi kichik hajmli eko-etnoturizmni, yahni mahalliy ekoturizmni rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Mahalliy aholi o'zlarining hududlarlari farovonligidan manfaatdor. SHuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilishga ko'proq ehtibor berishadi. Hududda ekoturizm faoliyatining yo'lga qo'yilmaganligi, atrof-muhitga zararli tahsir ko'rsatish, madaniyat va urf-odatlarning yo'qolib borishini kichik hajmli ekoturizmni tashkil etishning zaruriyatini taqozo etadi. Kichik hamjli ekoturistik zonalarni tashkil etish tajribasi shuni ko'rsatib bermoqdaki, keng ko'lamli ekoturizmdan farqli ravishda maxalliy aholi turmush tarziga yo'naltirilganligi sababli, obhektlar va infratuzilmani rivojlantirish zamonaviy turizm standartlariga mos kelishi shart emas va ancha oddiy va arzonroqdir. Biroq, turizmning ushbu shaklini ham dastlab rivojlantirish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish lozim bo'ladi. Bunday investitsiyalar jalb etish jarayonida, maxalliy aholi uchun ekoturizm faoliyatini to'g'ri tashkil etishni yo'lga qo'yadigan kompaniya yoki nodavlat tashkiloti bo'lishi lozim bo'ladi. Ommaviy

turistik zonalarga yaqin joylashgan kichik hajmli ekoturistik hududlarni qo'llab-quvvatlash yanada samaralidir.

**METHlarda, suv havzalarida, suv omborlarida sayohat uchun infratuzilmalarni barpo etish** METHlardan ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha maxsus yo'riqnoma ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'llar, daryo bo'ylari, soy bo'yi, suv omborlarida ekoturistik hudud barpo etmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga keng imtiyozlar berish sayohat uchun infratuzilmalar yaratilishiga asos bo'ladi.

**Intensiv bog'larda, madaniyat va istirohat bog'larida ichki turizmni rivojlantirish.** Bugungi kunda Farg'ona vodiysida 2150 ga. Intensiv bog'lar mavjud. Ushbu hududlarda eko-agroturizmni jadal rivojlantirish imkoniyati mavjud. Hududdagi madaniyat va istirohat bog'larining mahlum tumanlardagi qismi maxalliy turistlarga xizmat ko'rsatish salohiyatiga ega emas. Vaholanki, yer maydoni jihatidan-yil bo'yi ko'p sonli maxalliy sayyohlarni jalb etayotgan madaniyat va istirohat bog' hududlaridan kam emas. Har bir tumandagi bog' hududlarini ixtisoslashish nuqtai nazaridan xususiy sektorlarga biriktirish, imtiyozlar, yengilliklar yaratib berish, qachonki, hudud aholisi ekoturizmning mohiyatini to'la qonli tushunsagina o'sha hududga ekoturizmni rivojlantirish imkoniyati yuqori bo'ladi.

**SPA(Sanitas 'ro Aqua) innovatsion mehmonxona komplekslarini barpo etish.** Tadqiqot ishining 2.2.paragraf (3.1.1-rasm-Namangan viloyati shifobaxsh buloqlar xaritasi, 3.1.2-rasm-Farg'ona viloyatining shifobaxsh buloqlar xaritasi, 3.1.3-rasm-Andijon viloyatining shifobaxsh buloqlar xaritasi) mintaqaning mineral, tabiiy shifobaxsh suv resurslari salohiyati o'rganildi.

**Hududlarda ekoloyihalar tanlovini o'tkazish.** "Ekoloyiha" bu atrof-muhitdagi ekotizimlar dizaynini loyihalashtirish bo'lib, "Insoniyat va atrof-muhit, ikkala tomonning manfaatlarini moslashtirishga yo'naltirilgan barqaror ekotizimlarni

yaratishdir."[185] Namangan viloyatini ekoturistik salohiyatini tadqiq etish jarayonida Namangan viloyati Pop tumanining shimoliy-g'arbiy qismida G'arbiy Tyang'-SHan tog' tizmalari cho'qqilari va yon bag'irlarida joylashgan Arashon buva nomi bilan ataluvchi maskan salohiyati aniqlanib, ekoloyiha ishlab chiqildi. Mazkur miniekotizim o'z navbatida 2 ta tipga ajratilgan. 1. Yaylov ekotizimi 2.Tog' yonbag'irlari ekotizimi. Arashon tog' vodiysida tabiiy yo'l bilan hosil bo'lgan va shifobaxsh hususiyatiga ega "Arashon bulog'i" mavjud. Mazkur ekotizimdan aholi mavsumiy chorvachilik, ovchilik va tog' bog'dorchiligida ekstensiv foydalaniladi.

Tadqiqotlarimiz hududni ekoturistik hududga aylantirish uchun yetarli darajada asos borligini ko'rsatdi. Ulardan eng asosiysi quyidagilar;

1.Ob'ekt katta yo'l hududidan 70 km ichkarida joylashgan bo'lib, u yerda haqiqiy miniekotizim mavjud. Hududdan aholi salomatligini tiklash va madaniy xordiq chiqarishda foydalanish mumkin hamda u yaxshigina daromad olib keladi.

2.Tadqiqotlarimiz qulay ekoturistik hududlarga suv yetkazish eng katta moliyaviy muammo ekanligini ko'rsatdi. U yerda esa shifobaxsh mahdanli(buloq) suvi mavjud. Bu esa ushbu hududni ekoturistik obhektga aylantirish uchun yetarlicha asos bo'ladi. Yuqoridagi tabiiy imkoniyatlarni inobatga olgan xolda hududda kichik hajmli ekoloyiha tuzildi; (Namangan viloyati hokimligining 16.08.2019-yildagi №01/18-2579 sonli mahlumotnomasi).

Ekoloyiha sharti xizmatlar faqat ekologiyalashtirishga qaratilgandir. Hududda iyung', iyulg', avgustg' oylarida mavsumiy talab mavjud. Kichik hamjmli ekoloyihada dastlab, 20 kishi uchun shart-sharoitlar yaratish lozim bo'ladi:

Ayni kunda ekologiyalashtirish tizimiga qaratilgan turistik xizmatlar (barcha xizmatlar ekologiyalashtirishga qaratilgan bo'ladi, yoritish tizimi, xizmat ko'rsatish)ga talab yuqori. Mintaqaning har

185 W.J. Mitsch & S.E. Jorgensen (1989). "Introduction to Ecological Engineering". In: W.J. Mitsch and S.E. Jorgensen (Editors). Ecological Engineering: An Introduction to Ecotechnology. John Wiley & Sons, New York, pp. 3-12.

bir hududining salohiyatini o'rgangan xolda ekoloyihalar tuzilib, amaliyotga joriy etilib hududlarda ekoloyihalar tanlovini o'tkazish lozim. Tanlov g'oliblarini dastlab hududiy turizmni rivojlantirish boshqarmalari, keyingi boqichlarda O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish lozim.

**Ekologiyalashtirishga katta ehtibor berish, mehmonxonalarni ekologik sertifikatlash** so'nggi paytlarda tobora ko'proq ishlab chiqaruvchi korxonalar insoniyat va tabiat oldidagi javobgarligini anglab, ishlab chiqarish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ekologik xususiyatlarini yaxshilashga har tomonlama harakat qilmoqda. Atmosfera va suv havzalariga zararli moddalarning chiqishini oldini olish, energiya sarfini kamaytiradigan va zararli tarkibiy qismlardan foydalanmaslikni o'zlariga qathiy belgilab olganlar. Natijalar to'g'risida istehmolchiga maxsus belgi - eko-bio - etiketka orqali xabar beriladi. Ushbu jarayonlar ham mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishda ekoturizm talabgorlarini ekologik toza mahsulotlar bilan tahminlashda muhim omildir.

**Mehmonxonalarni ekologik sertifikatlash.** Bugungi kunda dunyo turizm sanoatida dam olish maskanlari, hududlarni, qishloqlarni, restoranlarni mehmonxonalarni ekologik jihatdan sertifikatlovchi 50 ta davlatlarda 200 dan ortiq "ekologik yorliqlar" mavjud. Xalqaro tajribada bahzi sayohatchilar tashrif buyuradigan hududining ekologik jihatdan tasdiqlangan bo'lishini xoxlaydi. Ekologik sertifikatlovchi kompaniyalar, 44 ta xalqaro miqyosida tan olingan barqaror turizm standartiga asoslangan xolda faoliyat olib boradi. Bu yashil sertifikatlash standartidir. 1999-yildan beri amalda bo'lgan ekologik sertifikatlash tizimi turistik korxonalarning atrof-muhit, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlari bo'yicha 44 xil mezonlarni hisobga oladi, yahni ularning energiya istehmoli, chiqindilarni boshqarish, mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishda

ishtirok etguncha yashil mahsulotlardan foydalanish bo'yicha hududlarni, mehmonxonalarni ekologik sertifikatlaydi. Bular Green Globe, Green Key, Earth Check, Green Tourism, Travel Life, Bios'here Tourism, Local Or Regional Green Labels In Tourism, European Ecolabel For Tourism, Bio-Hotels, Fair Trade Tourism, Eco Tourism Australia nomi bilan ataluvchi yirik kompaniyalardir. Mamlakatda ekoturizm rivojida ekologik yorliqli hududlarni bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning mamlakatimizda bunday jarayon xali yo'lga qo'yilmagan.

**O'rmon xo'jaliklarida ekologik "Wooden House" dam olish maskanlarini barpo etish.** Tadqiqot ishining 3.2. paragrafida tahlil etildi. Andijon viloyati Andijon davlat o'rmon xo'jaligi bilan hamkorlikda ish olib borildi.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish asnosida "...mamlakatimiz mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy jadal rivojlanishini, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun har bir hududning tabiiy, mineral va xomashyo, sanoat, qishloq xo'jaligi, turizm va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni tahminlash;..."[186] imkoniyati tug'iladi. Dunyo tajribasidan mahlumki, ekoturizmni rivojlantirishda nisbiy qarorlar qabul qilishdan ko'ra qathiy dasturlar, maqsadli siyosat va shiorlar, choralar loyihalar amalga oshirilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni 3.3.4-rasmda keltirildi.

Turizm tarmog'ining ekologik yo'nalishi doirasida Farg'ona vodiysida kichik ekotrop zonalarni barpo etish, ekoturistik klaster hududlari, SPA(Sanitas Pro Aqua) innovatsion ekomehmonxona komplekslari, ekologik o'rmon uylari davlat va xususiy sheriklik asosida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

---

[186] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.




**3.3.4-rasm. Farg'ona vodiysida ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari[187]**

Tadqiqotda hududdagi madaniyat va istirohat bog'larini yashil ekohududlarga aylantirish, ekomanzara ustida ishlash, investorlarni jalb etish, hayvonot bog'lari sonini ko'paytirish, ekoturistik klaster yo'nalishida turistik marshrutlar ishlab chiqish, gastro-ekoqishloq hududlarini aniqlab olish, tabiiy hududlarni asrab-avaylash maqsadida kichik ekotrop zonalarni barpo etish, SPA(Sanitas 'ro Aqua) innovatsion ekomehmonxona komplekslarini barpo etish, o'rmon hududlaridan inson salomatligini tiklashga xizmat qilishligini inobatga olib, ekologik o'rmon uylari "Wooden House"

[187] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

dam olish maskanlarini barpo etish, dam olish maskanlarini, tabiiy hududlarni, ekoqishloqlar, ovqatlanish shoxobchalarini va mehmonxonalarni ekologik jihatdan sertifikatlash tizimi(yashil yorliqlar)ni amaliyotga joriy etish zarur.

Yuqoridagilarni tahlil etib, ushbu tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni dastlab mahalliy, so'ngra bosqichma-bosqich mintaqaviy darajada qo'llanilsa, ekoturistik hududlarning iqtisodiy va ekologik samaradorligi ortadi.

Farg'ona vodiysi - mamlakat yagona xalq xo'jalik majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o'zaro munosabati tufayli hosil bo'lgan yaxlit birlikdir. SHu o'rinda, uning tegishli viloyatlarining turistik salohiyat nuqtai nazaridan ham bir-biriga o'zaro bog'liq holda birlashishi yanada samaraliroq natijaga olib keladi.

## Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Tadqiqot ishining 3-bobida tahlil qilingan ekoturizmni rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, quyidagi natijalarga erishildi:

1. Ekoturizmning rivojlanish tamoyillari aniqlangan Kvebek deklaratsiyasiga ko'ra soxani rivojlantiruvchi eng muhim qoidalardan biri mahmuriy kichik birliklar doirasida ularning ekoturistik imkoniyatlarini belgilash birlamchi metod sifatida kiritilganligidir. Har bir hududning yoki ekotizimlarning regional ahamiyat kasb etishi va ularni baholashda sayyohlikning turi va tipiga qarab ajratish ko'zlangan maqsadga olib chiqishga undaydi.

2. Farg'ona vodiysiga tegishli bo'lgan 3 ta hududning bitta tizim va faoliyat ostida ekoturistik imkoniyatlarining birlashtirilishi hududning ekoturistik salohiyatini yuksaltiradi.

3. Bizning fikrimizcha, Farg'ona vodiysidagi mavjud Madaniyat va istirohat bog'laridan, ekoturistik obhekt sifatida foydalanish va ularni bu soxaga yo'naltirish maqsadida investitsiyalash zarur.

4. Bizning fikrimizcha, hududdagi ilmiy jihatdan o'rganilgan shifobaxsh va mineral buloqlar mavjud noyob tabiiy hududlardan (S'A (Sanitas 'ro Aqua) keng tarmoqli innovatsion mehmonxonalarini barpo etish Farg'ona vodiysining ekoturistik salohiyatini xalqaro darajaga olib chiqishga keng yo'l ochib beradi. Ushbu buloqlar suvidan samarali foydalanib ekoturizmning kognitiv(tafakkur) yo'nalishida ham muhim ob'ekt sifatida foydalanish imkoniyati mavjud.

5. Ekoturizm rivojlangan davlatlar tajribalarini, ekoturizmni rivojlantirish modellarini o'rganib, tahlil etib, soxa rivojida ekoturizmni rivojlantirish modelidan bosqichma-bosqich, hududlar kesimida rejalashtirib amalda qo'llash kutilgan natijani beradi.

6. Tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ladiki, o'rmon tabiatni muhofaza qilish va tabiatda rekreatsion dam olish uchun mo'ljallangan hudud hisoblanadi. Lekin Farg'ona vodiysining o'rmon xo'jaliklaridan birinchi navbatda maxalliy aholida tushuncha, hududda esa infratuzilma mavjud bo'lmaganligi sababli samarali foydalanilmayapti.

7. Ekologik Wooden House – "wood"so'zi ingliz tilidan yog'och, "house" esa uycha mahnosini anglatib, umumiy mahnoda esa "yog'ochli uycha", yahni yashil hududda salomatlikni, uzoq umrni tahminlashga xizmat qiluvchi ekologik yog'ochli uycha deb nomlanadi. Demak, ushbu innovatsion dam olish maskanida dam oluvchilar salomatlikni tiklash maqsadida tashrif buyuradilar va hududni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydilar.

Ushbu yog'ochdan jihozlangan uy yordamida ochiq havoda tabiat qo'ynida dam olishni tashkil etib, o'rmon hududining istalgan joyiga o'rnatish mumkin, shuningdek dam olib xordiq chiqarish orqali o'rmonlarni muhofaza etishga moliyaviy yordam beriladi.

8. Jahon Sayyohlik Tashkiloti(WTO) mahlumotlariga ko'ra, ekoturizm 2020-yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning beshta asosiy strategik yo'nalishlaridan biriga aylanishi kerak edi, lekin bu soxa xalqaro darajadagi pandemiya sababli eng katta miqdorda

iqtisodiy yo'qotish ko'rgan tarmoqqa aylandi. Soxa ekspertlarining fikriga ko'ra,-yil sayin tabiatning xolati haqida tashvishlanayotgan odamlarning soni ortib bormoqda.

9.Ekologik turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

